Аҳриман "Авесто"да *Angramañyu* тарзида келган, паҳлавий ва форсийда, юқорида таъкидланганидек, *Аҳриман* ("и"си қисқа) ёки *Аҳриман* ("и"си чўзиқ), кўринишини олган ҳамда "урушқоқ ва душман тангри" маъносини англатган. Эронийларнинг дунёнинг пайдо бўлиши ҳақидаги мифологиясида *Spantamañyu* (*Spantañyu*)га қарши қўйилган икки бош илоҳдан бирининг номи. Ўрта давр форс адабиётида *Аҳриман* *Ganamañyu* – *ўлдирувчи ва нобуд қилувчи* маъносини англатувчи унвони ва *задорнамо* – *ўлдирмоққа мойил* сифатлари билан ҳам учрайди.

"Янги Авесто" ва маздопарастларнинг диний адабиётида *Аҳриман* девлар маконининг (илоҳларга қарши бўлган девлар), бошқа девлар, жодугар ва парихонларнинг саркардаси ҳамда йўлбошчиси, шунингдек, *Хурмузд* (*Аҳура Мазда*)нинг ашаддий душмани сифатида тилга олинган.

"Тоҳлар"да унинг номи фақат бир марта учрайди ("Ясна" – 45, 2-банд), аммо "Янги Авесто"да унинг номи бир неча бор тилга олинган ва *ҳамма девлар саркардаси*, *аҳуравийларнинг барча душманлари ва бутун нопокликлар яратувчиси*, *жами касалликлар*, *иллатлар ва ифлосликлар сабабчиси* дейилади ҳамда оқибат сўнгида аҳуравий қувватдан енгиледи.

"Вендидот"да *Аҳриман*нинг макони *Анохтар* (ишмол) ва дўзахдир, дейилади. Эрон мифологиясига кўра, *Спантамайну* ва *Анграмайну* (*Хурмузд* ва *Аҳриман*) ўртасидаги жанг 12 минг йил давом этади. Ўнинчи мингйиллик ва ўн иккинчи мингйилликкача (уч сушёнатнинг пайдо бўлиши) унинг охириги босқичидир ва унинг оқибатида *Аҳриман* енгиледи ҳамда *Ашаҳ жаҳони* бошланади. Бу ўн иккинчи минг йиллик даврини "шукуҳли замон" дейдилар. Бу "ёвуз илоҳ замони" ёки "зулматли замон"га қарама-қаршидир.

Бут. Бу сўзнинг маъно қирралари бироз кенгдир. Энг аввало, ушбу сўз *будда* сўзига бевосита боғлиқ ҳолда хусусий илоҳ номини англатса, *санам*, *ҳайкал* каби маънолари унинг ботиллигидан, ясалишга мухтожлигидан келиб чиқади. Бу сўз "Авесто"да *Buiti* (девнинг номи) тарзида учрайди. Айрим олимлар бу сўзни "*bad*" асосида пайдо бўлган десалар, айримлари уни "*Budda*" ўзагидан дейдилар. "Авесто"да *Вендидот*нинг 19-фаргарди 1-бандида, 2- ва 43-бандида 3 бор *Buiti daevô* номи келган ва одамларни бутпараст қилиш асосий муроди бўлган дев сифатида гавдалантирилган. Ушбу сўз санскрит тилида *bhuta* тарзида бўлиб, форсий شبح маъносидадир. Бу сўзнинг 1) *шарпа*, *гира-шира кўринган нарса*; 2) *қўланка*, *арвоҳ*, *хаёлот*; 3) ҳарб. *нишон*, *мўлжал*, *қора* [13. 91.] каби маънолари мавжуд. Шунингдек, *бут* кофирларнинг маъбуд ва масжуди бўлиб, араб тилида *санам* демакдир. Бадиий адабиётда маъшуқа лақаби сифатида ҳам келади [17. 233.].



Ушбу сўзга И.Н.Шервашидзе *бурхон* сўзини таҳлил қилиш жараёнида тўхталари ва туркий тилларда хитой тили таъсирида пайдо бўлганлигини, ўзаги *fō* – будда, *комилликка эришган одам* эканлигини ҳамда форс тилига сўзд тили орқали ўзлашганини таъкидлайди [16. 59.]. Хитой тилидаги *бут* сўзи санскритча *budda* асосида ўзлашган. Ж.Клосоннинг фикрича ҳам хитой тилидаги ушбу сўз сўзд тили воситасида *бут-санам* маъносида форс тилига ўзлашган [7. 556; 3. 23.]. Бу фикри билан у П.Хорнга қарши чиқади. П.Хорннинг фикрича, янги форс тилидаги *бут* "Авесто"га оид *Buiti* (шайтон, девнинг номи) ўзагидан ҳосил бўлган [8. 42.]. К.Бартоломе [2. 968.] ҳам ушбу сўзга тўхталар экан, ўрта ва янги форс тилида *but* (*Будда, санам* маъноларида) авестовий *Butay* (*иблис Даеванинг лақаби, яна бир хусусий, хос номи* [9. 20.]) асосида пайдо бўлганлигини таъкидлайди.

Бут ва *будда* теонимлари асосида яна бир хусусий илоҳ номини англатувчи *бурхон* сўзи ясалган. Бу сўз шимоли-шарқий туркий тилларда ва қирғиз эпосларида *худо, санам* маъноларида кенг қўлланади [5. 282; 10. 89. 4. 360.]. Бу сўзни куча тилида *purgan* шаклида кўриш мумкин ва у *rudnakte* асосида вужудга келган: *rud* – будда, *nakte* – тангри [6. 186.]. *Бурхон* ўрта хитой тилининг сўнги даврларидаги *but* – ҳозирги хитой тилидаги *fō* – "будда, *комилликка эришган*" ва туркий *хон* (*қон*) – *хон, ҳукмдор* компонентлари бирикишидан ҳосил бўлган [5. 283; 10. 89; 4. 360.]. *Bur* – "будда"нинг Шимолий Хитойда айтиладиган шакли, *хон-император*. Икки компонент бирлашиб, *худолар ҳукмдори* маъносини англатган [16. 59-60.]. Шундай фонетик қурилмани биз қадимги уйғур тилидаги *bursaŋ* – *буддавий роҳиблар жамоаси* (буддийская монашеская община)да ҳам кўрамыз. Ушбу сўзни ўрта хитой тилидаги *büt-saŋ*, сўнги ўрта хитой тилидаги *bür-saŋ* (бу сўзлар асоси санскрит тилида *budda sangha*) билан ёки сўздий *paŋsnk* – *буддавий роҳиблар жамоаси* билан алоқадор дейишимиз мумкин [1. 17; 11. 126; 4. 369; 12. 414.].

Демак, ўзбек тилида илоҳ тушунчасини ифодаловчи бир неча сўзлар мавжуд бўлиб, уларнинг катта кўпчилик қисми лексик генезиси "Авесто"га бориб тақалади. Шунингдек, даврлар ўтиши билан бу илоҳ номини ифодаловчи сўзлар семантикасида айрим ўзгаришлар – маънода кенгайиш ёки торайиш жараёнлари содир бўлган ҳамда қўлланиш доираси ўзгариб борган, уларнинг айримлари умумий илоҳ номини ифодалаш учун, айримлари эса хусусий илоҳ номини ифодалаш учун хосланиб қолган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Bang W., Gabain A. von. Analytischer Index zu den fünf ersten Stücken der Türkischen Turfan-Texte // SPAW. Jg. 1931.
2. Bartholomae Ch. Altiranisches Wörterbuch. – Strassburg, 1950.
3. Benveniste E. Essai de grammaire sogdienne. Pt 2. – Paris, 1929.
4. Clauson G. An etimological dictionary of pre-thirteenth-century Turkish. Oxford, 1972.
5. Doerfer G. Türkische und Mongolische elemente im Neupersischen unter besonderer Berücksichtigung älterer Neupersischer geschichtsquellen, vor allem Mongolen und Timuridenzeit. Bd. II: Türkische elemente im Neupersischen Wiesbaden, 1965.
6. Gülensoy T. Türkiye türkçesindeki türkçe sözcüklerinin köken bilgisi sözlüğü. Ankara, Türk dil kurumu. 2007.
7. Henning W.B. Selected papers// Acta iranica. Deuxième série: Hommages et opera minora (Acta iranica . 14). Téhéran; Liège, 1977.
8. Horn P. Grundriss der neupersischen Etimologie. Strassburg, 1893.
9. MacKenzie D.N. A concise Pahlavi dictionary. L., 1971.
10. Räsänen M. Versuch eines etymologischen Wörterbuchs der Türksprachen. Helsinki, 1969.
11. Древнетюркский словарь / Под. ред. Надеяева В.М., Насилова Д.М., Тенишева Э.Р., Щербак А.М. Л., 1969.



12. Лившиц В. А., Хромов А. Л. Согдийский язык // Основы иранского языкознания. Среднеиранские языки. М., 1981.
13. Персидско-русский словарь. М., Русский язык. 1983. том II.
14. Ёразбоев А. Огахий тарихий асарларида форсий –мон компоненти // Илм сарчашмалари. Урганч. 2014. №5.
15. Ёразбоев А. Огахийнинг тарихий асарлари лексикаси. Т.: Муҳаррир. 2013.
16. Шервашидзе И. Н. Фрагмент общетюркской лексики. Заимствованный фонд // Вопросы языкознания. 1898. №2
17. خلف تبریزی . برهان قاطع. با شمس الدين محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع. با اهتمام دكتور محمد معين شمس الدين محمد بن اهتمام دكتور محمد امير كبير. ۱۳۸۶. در چهار جلد.
18. مازندرانی حسین شهید فرهنگ شاهنامه (نام کسان و جاها) بلخ بنياد نشاپور ۱۳۸۸.

МИФОЛОГИК ТАСАВВУР БИЛАН БОҒЛИҚ АЙРИМ АВЕСТИЗМЛАР ЭТИМОЛОГИЯСИ

Махмудов Рауфжон Баходирович

Хоразм Маъмур академияси кичик илмий ходими, Урганч давлат университети
 докторанти
 Илмий раҳбар – Ёразбоев Абдулла Дурдибаевич
 Урганч, Ўзбекистон

Аннотация: Ушбу мақолада ўзбек тилида кенг истеъмолда бўлган бир неча мифологик тасаввурлар билан боғлиқ авестизмлар этимологик нуқтаи назардан таҳлил қилинди. Ушбу мифонимларнинг тарқалиш ареали аниқланди.

Annotation: This article analyzes the etymology of Avestism's in relation to several mythological notions that are widely used in the Uzbek language. The distribution area of these mythonyms has been determined.

Калит сўзлар: авестовий сўз, генетик таҳлил, ўз қатлам, мифоним, этимология.

Key words: Avestian word, genetic analysis, own layer, myth, etymology.

Антик даврда олам ҳақидаги билимларнинг етарлича эмаслиги туфайли инсоният табиат ҳодисаларини турли илоҳлар бошқариб туради деган тасаввур билан яшаган ва ҳар бир табиат ҳодисаси “бошқарувчисига” алоҳида ном қўйиб, унга сиғинганлар. Айни тасаввурлар турли афсона ва у билан боғлиқ хилма-хил мифонимларнинг пайдо бўлишига сабаб бўлган. Туркий халқлар, чунончи, ўзбек халқи ҳам бу жараёнда жуда фаол иштирок этган. Қуйида ана шу мифологик тасаввурлар асосида пайдо бўлган, лексик генезиси “Авесто” билан боғланадиган айрим сўзлар ҳақидаги фикрларимизни баён қиламиз.

Пару мифологик тасаввурлар билан боғлиқ номлардан бири сифатида ўзбек тилида кенг қўлланади. "Авесто"да ушбу сўз *pairika* тарзида қўлланган бўлиб, *латиф*, *гайбий оламдан ҳисобланган жуда гўзал, одамни ҳусни жамоли билан йўлдан урувчи вужуд* маъносини англатади. Авестовий *pari* ёки *pairika* Аҳриман томонидан маздисно динини қабул қилганларни тўғри йўлдан уришга тайинланган Жодунинг муаннас жинси.



Шу тариха парилар Ахриман қўшинининг вакиллари сифатида ер, сув, гиёҳлар, чорва моллари ва оловга қарши иш кўрадилар. И.Пурдовуднинг фикрича, парилар думли юлдуз шаклидаги ёмғир фариштаси Тиштир билан ёғингарчиликни тўхтатиш ва ерни қурғоқчилик натижасида вайронага айлантириш мақсадида жанг қиладилар. Пахлавийда *parik* (янги форс тилида *k* ҳам тушиб қолиб, ушбу сўз *pari* шаклини касб этган), арман тилида *parik*, афғон тилида *pari*, хвонсорийда *pere*, гийлакийда *pari* тарзида қўлланади [10. 394.]. Форс адабиётида жиннинг урғочиси сифатида тилга олинган ва ниҳоятда гўзал юзли деб таърифланган. *Пари* сўзининг этимологияси *фаришта* сўзидаги *фар* билан боғланади. Ҳар иккала сўзда учровчи *par* ёки *фар* айна енгил, учиш хусусиятига эга бўлган маъносини англатади. *Пар* ўзбек тилида бир неча маъноларни англатади: 1) парранда танасини қоплаб турадиган юмшоқ ва нафис пат; 2) қанот; 3) барг; 4) буғ. Кўриниб турганидек, уларнинг барчаси енгиллик ва учуш хусусиятига эга. Демак, ўзбек тилидаги *par*, *парранда*, *фаришта*, *пари* сўзлари бир ўзакдан ҳосил бўлган дейишимизга тўла асос бор.

Ўзбек тилида мифологик тасаввурлар билан боғлиқ номлардан яна бири *дев* сўзидир. Дев зардуштийликдан аввал худо, илоҳ, маъбуд маъносини англатган. Кейинчалик зардуштийлик ва бошқа кўпхудолик ҳамда яккахудолик динларига, улар орқали халқ оғзаки ижодига кириб борган. Бир қанча тилларда *ёлгон илоҳ*, *ёвуз руҳ*, *дев*, *ибليس* маъноларини ифодалай бошлаган. Орийда бу сўз *daiua* (женский родда *daiui*) тарзида қўлланган бўлиб, *илоҳ*, *маъбуд* маъносини англатган. Қадимги ҳиндийда мурской родда *devā* – *самовий маъбуд*, *илоҳ*, женский родда *devi* – *самовий маъбуда*, *илоҳа* маъносида, *devya*, *däivya* – *илоҳий*, *маъбудларга хос* маъносида қўлланган ва у индоевропа тилидаги *deiü-s* – *маъбуд*, *самовий* сўзи билан боғланади. *deiü-s* индоевропа тилидаги *dei-* : *de{a}-* : *di-* : *diä* – *порламоқ*, *нур сочмоқ*, *ярқирамоқ* асоси билан боғланади [7. 306]. Рус тилидаги сутканинг ёруғлик мавжуд қисмини ифодалаш учун истеъфода этиладиган *день* сўзининг пайдо бўлиши айна асосга боғланади. Чунки индоевропа тилида *deieu-* сўзи *нурли кун*, *маъбудлардай нуроний само* маъносини англатган. Ўрта лотин тилида *deus*, *divus* (< *deiyos*), юнон тилида *ZeOs* – *нурли осмон* [5. 184-186.] маъносини ифодалаган бўлса, литва тилида *dievas* – *илоҳ*, *маъбуд* [6. 84], латиш тилида *dievs* [2. 93-94], қадимги прусс тилида *deiws*, *deywis* – *илоҳ* [4. 742-744]. Кўриниб турганидек, бу сўзнинг дастлабки маъноси *илоҳ*, *маъбуд*. Туркий ва эроний халқларда ҳам маъбуд маъносида қўлланиш ҳоллари кўп учрайди. хусусан, “Авесто”нинг дастлабки қисмларидан бўлган “Гоҳ”ларда *daevö zusta* – *дастлабки*, *илоҳийларга алқов* маъносидаги бирикмаси учрайди. Бу бирикма қадимги ҳиндий тилида ҳам *devä-justa* – *илоҳлар тарафдори* маъносини ифодалаган ҳолда қўлланган. Шунингдек, “Авесто”да *daeva masya* – *илоҳларга мос маъбуддон* бирикмаси учраса, ведаларда *devä- märtya* – *маъбуд одам* маъносидаги бирикма мавжуд. Бундай бирикмалар кейинги даврларда осетин ва суғдий тилларида ҳам учрайди [3. 628-629].

Дев шайтонлар жинсидан бўлиб, гумроҳ ва қинғирликни касб қилиб олган, таъби қинғир мавжудот дея таърифланади. Шунингдек, бу ном пахлавон, ботир, шижоатли инсонларга ҳам нисбат берилади. Баъзан отнинг лақаби, баъзан эса қаҳр, ғазаб маъноларини касб қилади ва араб тилида ҳам ушбу маъноларда истеъфода этилади.

Ушбу сўз "Авесто"да *daeva* (дев), пахлавийда *dev* шаклида, қадимги ҳиндийда *dēvā* – *худо* маъносида қўлланган. Бу сўз юқорида таъкидланганидек, қадимги орийларнинг кўпхудолик динидаги худолардан бирини ифодалаш учун истеъфода этилган, лекин зардуштийлик дини юзага келгандан сўнг ва Ахура Маздо якка худо сифатида тан олинган девларни, гумроҳлик қилувчиларни ёки шайтонларни шу ном билан аташганлар. Аммо *дев* сўзи эроний тиллардан фарқли равишда ҳинд-европа тилларида *худо* маъносида қўлланилаверган. Хусусан, ҳиндлар наздида *deva* ҳамон илоҳлардан биридир ва санскрит тилида ҳам *deva* – *ёруғлик*, *нур* маъносини англатган. Шунингдек, юнон мифологиясидаги бош худо *Zeus* ҳам айна шу номнинг фонетик ўзгариши асосида



юзага келган. Лотинларнинг бош худоси *Deus* деб номланиши, французларнинг бош илоҳи *Adieu* дейилиши ҳам шу ўзак асосидадир. Шунингдек, рус тилидаги *удивляться, удивительно, удивление, дивная красота* (божественная красота – мазмунини ифодалаш учун баъзан ушбу бирикма истеъфода этилади) каби сўз ва сўз бирикмаларида ҳам девнинг илоҳ маъносини ифодалаб тургани кўринади [8. 27.]. Рус тилидаги *девочка* сўзининг пайдо бўлишида ҳам таҳлил қилинаётган авестовий *daeva* асос бўлган. Ушбу сўзда ҳам илоҳларга хос гўзаллик тимсоли сифатида қиз болага илоҳнинг эркаланган шакли билан ном берилмоқда. Лекин христиан оламида ўрта асрларда “аёл жинсига мансуб одамлар шайтоннинг малайлари, улар инсон зотидан ташқаридадир” деган ғоя ҳукмрон бўлганлигини ҳисобга олсак, *девочка* сўзидаги *дев* айна “Авесто”да ифодалаган ёвузлик қўшинлари, шайтон хизматкорлари маъносини касб этиши ҳам эҳтимолдан ҳоли эмас. Бу фикрга инглиз тилида аёл жинсига мансуб одамни *woman* дейилиши ҳам исбот бўлади. *Wo* ёки *wi гумон* сўзидаги *гу* билан бир асосга эга бўлиб *ташқари, айрим* деган маънони англатади ва *woman* сўзи *инсонликдан ташқари, айрим* маъносини ифодалайди. Девлар “Авесто”да Аҳриман яратган ёвузлик қўшинларининг бир гуруҳи (яна бир гуруҳи парилар) сифатида қаралади ва улардан сақланиш учун маздопарастларга алоҳида йўл-йўриқлар кўрсатилади. Бу йўриқнома “Авесто”нинг таркибий қисми ҳисобланмиш “Вендидот”дир (асл шакли *Vi-dev-dat* – *девларга қарши берилган, инъом этилган* маъносидаги сўздир).

Туркий тилларнинг айримларида бирмунча кенг тарқалган, айна дамда, ўзбек тилида ҳам фаол қўлланувчи *ек* (*йек* (*йик*) *гўрунжи* тарзидаги бирикма таркибий қисмида) сўзи мавжуд. Ушбу сўз тарихан пали тилида *yakkho* (пракр. *Jakkha*) тарзида *иблис, шайтон, жин* маъноларида қўлланган. Бу сўз сўғд тилида *ук, укш, укшу* шаклида бўлиб, санскрит тилидаги *yaksa* (демон – иблис, шайтон маъноларини ифодалаган)га боғлиқдир. В.Банг ва М.Рясаненнинг фикрича, *уек* (иблис, шайтон) *jä* (*уе* – *емоқнинг* буйруқ майли) асосида пайдо бўлган. Чунки ушбу сўзнинг тарихан *мечкай, очофат* (русча *обжора*) маънолари ҳам бўлган. Лекин *уе* ва *уек* сўзларидаги ундошлар номутаносиблиги сабабдан И.Н.Шервашидзе бу фикрга қарши чиққан [9. 63.]. Фикримизча ҳам *уек* (иблис, шайтон)нинг *уе* (емоқ) билан алоқаси йўқ.

Ўзбек халқ оғзаки ижодида мавсум қўшиқларидан бири “Суст хотин” кўшиғи бўлиб, қадимда қурғоқчилик бўлганда одамлар “Суст хотин” шарафига маросим уюштирганлар ва ундан ёмғир сўраб қўшиқ (зардуштийларда бу маросим ёгингарчилик илоҳаси маъбуда Тиштарга ибодат қилиб, унга илтижолар қилиш билан амалга оширилган) айтганлар. Бу ҳам мифологик тасаввурлар асосида вужудга келган ном ҳисобланади ва, ўз-ўзидан, унинг генетикаси “Авесто”даги *tishtrya*га бориб тақалади. *Tiustar* Микоил (а.с.)нинг зардуштийлик динидаги муқобили. “Авесто”да *tishtrya*, паҳлавийда *tishtar*дир. “Авесто” тавсифига кўра *tishtrya*дан мурод яманий юлдуз бўлиб, Европа тилларида уни *Sirius, Canicula* дейдилар [1. 52, 651.].

Эрон мифологиясига кўра Хурмузд Сириусни юлдузларнинг нигоҳбони (кузатувчи, тўғри йўлга солувчи) ва посбони қилиб қўйган. “Тиштар яшт”да келишича, “Тиштарни улуғ, порлоқ ва шукуҳли, азим Ахура Мазда Зардуштни одамлар учун сарвар қилганидек, барча юлдузларнинг сарвари ва нигоҳбони қилди”. *Tishtryeni* “Авесто”да юлдузлар жамланмаси бўлиб, Тиштар ёнида унга ёр-у биродар бўлиб турадилар. Хўг Тиштарни Тир(Аторуд) билан бир деб билади. Аммо авестовий *tishtarya* порсийда *tir* дейилса ҳам, уларнинг бир ўзакдан ҳосил бўлганлиги аниқ эмаслигини Муҳаммад Муъин таъкидласа, Жалил Дўстхоҳ ҳам *tishtir* ва *tir*нинг иккисини бир деб билади. Бизнингча ҳам Тиштар ва Тир бир илоҳанинг икки хил номидир. Чунки маъбуда Тиштирга бағишланган яштни айна икки ном билан тилга олиш ҳолатлари кўп учрайди, қолаверса ой ва куннинг номланишида ҳам Тишти ва Тир бирдек истеъфода этилади, бу бежиз эмас деган фикрдамиз. Тиштар зардуштийлик динида алоҳида мақомга эга бўлган маъбуд



(фаришта)лардан бўлиб, “Авесто”даги саккизинчи яштни “Тиштар яшт” ёки “Тир яшт” дейдилар. Шунингдек, йилнинг тўртинчи ойини ва ҳар ойнинг ўн учинчи кунини фаришта Тиштар шарафига تير روز ماه تير дейдилар. Тиштар луғатларда ёмғир фариштаси, маъбудаси сифатида таърифланади, шу сабабли бу номни ислом динидаги Микоил (а.с.)га ҳам нисбат берадилар. Қадимда бўйи узунлик гўзаллик эталонларидан бири бўлган ва маъбуда Тиштар ҳам бўйи узун, гўзал илоҳа сифатида тавсифланган. Шу туфайли бугун “Суст хотин” Жанубий Қозоғистонда Тиштар илоҳасига бағишланган маросимларнинг элементи сифатида кўринса, Хоразмда бу илоҳага бағишланган маросимларнинг элементи сифатида “Ашшадароз” ўйини мавжуд. *Sust* ҳам *Ashshadaroz* (*daroz* – бўйи узун компоненти қўшилган ҳолда) ҳам Тиштар сўзининг фонетик ўзгаришлар асосида етиб келган шаклидир.

Хулоса қилиб айтганда, ўзбек тилида фаол қўлланиб келинаётган мифологик тасавурларга оид бир қанча сўзларнинг вужудга келиш асослари жуда қадимий бўлиб, уларни таҳлил қилиш ўзбек тилининг кечагина пайдо бўлган тил эмаслигини, унинг қадимий илдизларидан бир шахобчаси “Авесто”га бориб тақалишини асослайди. Бу далиллар мифологик тасавурларга оид кўплаб сўзларнинг пайдо бўлишида туркий халқларнинг ҳам бевосита иштироқи борлигини исботлайди. Айти дамда, бу борадаги изланишлар давом этишини таъкидлаш жоиз. Чунки бу гуруҳдаги кўплаб сўзларнинг тарихий илдизлари аниқланмаган ёки уларнинг маълум асосдан ҳосил бўлганлигига исботлар мавжуд эмас.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Bartholomae Ch. Altiranisches Wörterbuch. – Strassburg, 1950.
2. Fraenkel E. Litauisches etymologisches Wörterbuch. Bd. I. Heidelberg-Göttingen, 1962-1965.
3. Henning W.B. Selected Papers. Vol. II. Téhéran-Liège, 1977. (Acta Iranica, t. 14-15).
4. Mayrhofer M. Kurzgefaßtes etymologisches Wörterbuch des Altindischen. Heidelberg, 1953-1975
5. Pokorny J. Indogermanisches etymologisches Wörterbuch. Bern, 1959.
6. Абаев В.И. Историко-этимологический словарь осетинского языка. Т. I. М.-Л., 1958.
7. В.С.Расторгуева, Д.И.Эдельман. Этимологический словарь иранских языков. Том II. М. Восточная литература. 2003.
8. Х.Г.Короглы. Взаимосвязи эпоса народов Средней Азии, Ирана и Азербайджана. М.: Наука, 1983.
9. Шервашидзе И. Н. Фрагмент общетюркской лексики. Заимствованный фонд // Вопросы языкознания. 1989. №2.
10. شمس الدين محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع. با اهتمام دکتر محمد امیر کبیر. ۱۳۸۶. در چهار جلد.



УДК 398.22

ДОСТОН ИЖРОЧИЛИГИДА ПАРЧАЛАНИШ ВА УНИНГ ПРОФЕССИОНАЛ САҲНАГА КЎЧИШИ

Ачилов Насим Камалович

филология фанлари номзоди, доцент. Қарши давлат университети, Ўзбекистон

Аннотация: Мақолада достончилик санъатининг барқарор анъаналарда давом этиши, ижтимоий-маданий омиларнинг жонли оғзаки ижрога таъсири, бунда бахшилар ижросида юзага келган ўзгаришлар, достон ижрочилигида парчаланиш ҳамда достончилик анъаналарининг ҳозирги ҳолати ва тақдири Жанубий Ўзбекистон воҳаси мисолида таҳлилга тортилган.

Калим сўзлар: эпик анъана, эпик хотира ва билим, эпик дунёқараш, бахши, репертуар, парчаланиш, достон ижрочилиги, саҳнавий талқин.

Аннотация: В статье анализируется продолжение искусства эпической поэзии в устойчивых традициях, влияние социокультурных факторов на живое исполнение, изменения в исполнении бахши, фрагментация в эпическом исполнении а также современное состояние и судьба эпических традиций в оазисе Южного Узбекистана.

Ключевые слова: эпическая традиция, эпическая память и знание, эпическое мировоззрение, бахши, репертуар, разложение, исполнение дастан, сценическая интерпретация.

Annotation: In this article to continue in the stable traditions of the art of epic poetry, the impact of socio-cultural factorial on live performance, the changes in the performance of bakhshi and the current state and fate of the epic traditions will be analyzed on the example of the South Uzbekistan oasis.

Key words: epic tradition, epic memory and knowledge, epic world outlook, bakhshi, repertoire, combined performance, scenic interpretation.

Достон жро этиш ва тинглаш бахши ва унинг аудиторияси ўртасидаги диалектик жараён бўлиб, бир вақтнинг ўзида икки томонлама эстетик завқни ҳис этиш туйғуси шаклланади. Бахши ўз репертуарида мавжуд анъанавий достонлар билан тингловчилар аудиториясини завқлантиришга ҳаракат қилса, тингловчилар достон воқеалари ва қаҳрамонларнинг хатти-ҳаракатлари, руҳий кечинмаларини ҳис этиш орқали маънавий оламини бойитиб борган. Бундай ўзаро боғлиқлик бахши ва унинг тингловчилари ўртасида асрлар мобайнида шаклланиб келган ижодий ҳамкорликни юзага келтирган ҳамда достончиликда маълум қонун-қоидаларни такомиллаштирган. Қолаверса, тингловчиларнинг диди, достон ижро этишга бўлган талаблари бахши-шоирлардан жиддий изланиш ва маҳоратни талаб қилган. Фольклоршунос олимларнинг достончилик кечалари, бахши-шоирлар ижодий маҳорат сирларини кузатишлари достон айтиш ва жонли аудитория ҳақида қатор илмий-назарий хулосалар чиқаришга асос бўлди. Олимларнинг фикрича достон ижро этишнинг қаътий тартиблари мавжуд бўлиб, асосан, кеч куздан эрта баҳоргача ижро этилганлиги, бахшиларнинг кичик зиёфатдан сўнг терма ижро қилиб, аудиторияга қайси достонни тинглашларини сўрашидан сўнг достон ижро этишга ўтилган[1].

“Одатда достончилик ўлтиришлари тонгга уланган. Ўзбек халқ достонларининг кўпчилиги бир кеча куйлашга мўлжалланган. “Алпомиш”дек монументал асарлар икки ва ундан ортиқ кечада ижро этилган. Достонни қанча вақт куйлаш кўп жихатдан бахшининг тайёргарлигига, унинг бадиҳагўйлигига боғлиқ. Фавқулудда ижодий қувватга эга бўлган бахшилар бир достонни бир неча, хатто бир неча ой куйлаганлиги ҳақида ривоятлар бор”[2,19]. Достон айтиш кечаларининг бир неча кунга чўзилиши, албатта, тингловчилар



аудиториясининг қизиқишига сабаб бўлган бўлса, иккинчидан, бахши-шоирларнинг ижро маҳоратига боғлиқ бўлган.

Кейинги вақтда дoston айтишнинг янгича, замонавийлашган кўринишлари пайдо бўлганлиги боис, дoston матнларида парчаланиш, қурамаланиш ҳолатлари пайдо бўлди. Жонли оғзаки ижро ва анъаналарнинг маълум маънода ўзгаришга учраши дoston ижро этиш анъаналарининг бузилишига, ижрочиликда парчаланиш жараёнларини юзага келтирди. Дoston ва унинг ижрочилари дунёқарашига, ижро усулига ўзгача ёндашув ҳолатларини шакллантирди. Бундай ўзгаришлар бахшичилик санъатидаги қадимий анъанавий ижро жараёнларини сусайишига, ижрода янгича талқин ва сахнавий шаклларнинг пайдо бўлишига олиб келди. Натижада бахши тор доирадагина дoston ижро этиб, тингловчиларнинг ёхуд ижро этаётган тадбирнинг умумий сценарийси талабларига бўйсўнган ҳолда дoston куйлайдиган бўлиб қолди.

Шу асосда Сурхондарё-Қашқадарё ижрочилигига доира, баъзан чанқовузни олиб кириш таомили юзага келди. Эндиликда бахшилар тўйларда дўмбирага микрофонни улаб, доира жўрлигида шўх-шўх термалар, дostonлардан парчалар айта бошладилар. Дўмбира ва доира жўрлигида шўх оҳанглар, даврадагилар ҳаракатини дoston матнига қўшиб айтиш ёхуд эпосдаги ўйноқи вазнлар ва енгил шеърий мисралардан фойдаланишга эътибор қаратилши дoston матнларида ўзгаришларни юзага келтирди. Шу асосда дoston куйлаш усуллари ўзгариб, у профессионал сахнага кўчди. Бу ҳаракатлар муайян ҳолатларда бахшилар аудиториясини сақлашга имкон яратди. Ҳар бир янгиликка қизиқувчи халқимиз бахшиларни чақиртириб, бутун кеча давомида дoston айттиришга эмас, балки икки-уч соат давом этадиган тўйнинг томоша қисмида бахшиларга ҳам вақт ажратиб ўн, ўн беш минут дostonлардан парчалар, термалар эшитишга кўника бошлади. Бунинг учун бахшилар даврани қизитиш ва ўзларига жалб этириш мақсадида шўх матнлар, ўйноқи куйлар топиши лозим эди. Бахшилар "Алпомиш", "Гўрўғли", "Ойпарча", "Авазхон", "Келиной" дostonларидан парчалар куйлаб, янгича усулларда дoston ижро этиш йўллари шакллантирдилар.

Бундай йўл 70-80-йилларда Қашқадарё-Сурхондарёдаги бахшилар орасида оммалашиб, бугунги кунда ҳам давом этмоқда. Натижада ашулачилар сингари бахши-отарчилар гуруҳи шаклланди. Эндиликда бахшилар ёшларни ушбу санъатга жалб этиш, қизиқтириш йўллари излай бошладилар. Изланишлар натижаси маълум маънода бахшичилик санъатининг жонли ижрода давом этишига сабаб бўлган бўлса-да, аммо дoston куйлаш усуллари ўзгариб, у профессионал сахнага кўчди. Бошқача айтганда "Қашқадарё ва Сурхондарё воҳасида эпоснинг жонли анъаналарида "жонланиш" кўзга ташланди. Бундай жараён истеъдодли дostonчиларнинг (масалан, қашқадарёлик Қодир Раҳимов каби) етишиб чиқиши ва уларнинг ижодий фаолияти билан боғлиқ, албатта. Аммо уни эпос жонли оғзаки анъаналарининг янгиланиши ёки кўхна анъаналарнинг ривож тарзида қараш мумкин эмас. Чунки кўп асрлик дostonчилик эпик анъаналарининг аста-секинлик билан тадрижий давомли равишда сўна бошлаши жуда ҳам мураккаб диалектик жараён бўлиб, ижтимоий-иқтисодий ва маънавий омиллар таъсирида турли ерларда турлича кечади. Шундай экан, Шеробод дostonчилик мактабидаги (Қодир Раҳимов, Хушвақт Мардонақулов, Чори Умиров, Шоберди Болтаев, Боборайим Маматмуродов каби бахшилар фаолиятидаги) жонланиш ҳам эпос оғзаки анъаналари инқироз даврининг ўзига хос бир кўриниши бўлиб, унинг аста-секинлик билан сўна бориши қонуний ҳолдир"[3,5]. Шу асосда ижтимоий-маданий жараёнлардаги ўзгаришлар бахшиларнинг кенг аудиториясини чеклаб қўйди. Бахшиларнинг маросим ва тадбирларда замонавий кўринишда чиқишлари, шунингдек, профессионал сахна талаблари қонун - қоидаларига бўйсўнган ҳолда дoston ижро этишлар дoston матнларида парчаланиш ҳолатларини юзага келтирди. Бу каби ҳолат бугунги кунда оммалашиб бормоқда.



Натижада дoston матнлари даврадаги тингловчилар дунёқарашига мослашиб, унинг тўлик ижро қилинмаслигини шакллантирмоқда.

Бундай дoston ижро этишлар анъанавий дostonчиликдаги халқона руҳ ва матн муаммоларини юзага чиқармоқда. Биргина устоз кўрган, дoston ижро этиш санъатини оғзаки ўрганган Қора ва Чори Умиров, Шоберди Болтаев, Абдуназар Поёнов, Қаххор Раҳимов ва бошқа бахшилар репертуари ва ижро услуби ҳақида ҳам шундай фикр билдириш мумкин. Шоберди Болтаев репертуаридан ёзиб олинган дoston матнларини таҳлилга тортиш асосида ушбу жараён ҳақида тўхталиб ўтсак.

Маълумки, кейинги даврда бахшиларнинг оммабоп тадбирлар, халқнинг маиший турмуши билан боғлиқ маросимларда қатнашиб, терма ва дostonлардан парчаларни ижро этишда ўзига замонавий санъаткор сифатида баҳо бериши дoston матнларида парчаланиш ҳолатларини шакллантирмоқда. Бундай ҳолатлар эса дoston ижро этишнинг янгича талқинларини, анъанавий сюжетга эркин ёндашув туйғусини кучайтирмоқда. Шоберди Болтаев ижро этган (Дoston никоҳ тўйида ижро этилган) дoston матнларига эътибор қаратсак унда бахши хонадон эгаларининг хоҳиш ва иродаси асосида дoston воқеаларидаги баъзи эпизодларга ўзгаришлар киритиб, баъзи образларга хос тасвир воситаларида халқона руҳнинг бузилишига сабабчи бўлмоқда. Бахши ўзига замонавий санъаткор сифатида баҳо бериб, кўплаб ўринларда хонадон эгаларини ўйинга чорлаши, шу асосда ўйноқи вазнлардан фойдаланиб, шунга мос матнларни ижрода такомиллаштиради. Бир соатлик ижро жараёнида “Ойпарча”, “Алпомиш” ва талабга биноан термалардан фойдаланади. “Ойпарча” дostonидан Ойпарчанинг Шониёз подшоҳга Маккаи Мадинага кетаётган тасвирини ижро этаркан анъанавий матнга ўзининг ва тўй эгаларининг дунёқарашини асосида ёндашади. Мисол учун Ойпарчанинг Шониёзга “сизга йўл бўлсин”, деб айтаётган матнида шундай ҳолатлар кўзга ташланади.

Тоғ бетини безаб ётган туман-о,
 Қирқ хотининг мени қўймайди омон-о,
 Менга бўлар сен кетган сўнг охир замон-о,
 Уларнинг қирқ бири томон, менинг ўзим бири томон
 Хабаринг борми, хабаринг йўқми Шониёз.

Дostonнинг Умир шоир Сафаров ва Бўри бахши Аҳмедов[4] дан ёзиб олинган вариантларида ҳам Ойпарчанинг Шониёзга ҳажга бормаслигини илтижо қилиш тасвирлари мавжуд бўлиб, уларда тасвирни умумлаштириш етакчилик қилади. Жумладан, Умир шоир вариантыда Ойпарча тилидан айтилаётган тасвирда шундай руҳий ҳолат кўзга ташланади:

...Меҳнатимни кетма бундай зоя қип,
 Бу Зангарда бу бахтимни қора қип.
 Сарғайтиб кетмагин ёруғ юзумни,
 Қулоққа тут Ойпарчанинг сўзини,
 Ўзинг билмайсанми, гапнинг изини? (217-бет).

Шоберди бахши вариантыда ушбу тасвир индивидуаллашиб, бахшининг воқеага тингловчи дунёқарашини асосида баҳо бериш жараёни яққол кўзга ташлана боради. Ҳаттоки, бахши Ойпарча тилидан қирқ хотиннинг душманлик қилиш эпизодини олдиндан кўргани каби подшоҳ Шониёзга ёлбориш оҳангида айтмоқда. Бу ҳолат Умир шоир вариантыда “Ўзинг билмайсанми, гапнинг изини?” сўроғи орқали қирқ хотиннинг унга душманлик қилиш тасвирини эмас, балки унинг ҳаётида юзага келиши мумкин бўлган қисматини айтмоқда. Чунки айрилиқ жараёнида тақдирда юз бериши мумкин воқеалар вақт, фурсат масаласи билан боғлиқ. Умир шоир ана шу тасвирни халқона руҳда тасвирлайди.

Шоберди Болтаев томонидан худди шу тадбирда айтилган “Алпомиш” дostonи тасвирида ҳам мана шундай парчаланиш ҳолатлари кўзга ташланади. Тўйдаги шароит ва



унинг қатнашчилари рухий вазиятидан келиб чиққан ҳолда бахши дoston воқеаларини “Алпомиш”даги Ултонтознинг тўйи тасвири билан боғлайди. Бахши тўйни ўтказиш билан боғлиқ ҳаракатларни тасвирлаш жараёнида дostonдаги Ултонтоз тўйига эътиборни қаратади. Ёдгор образи орқали воқеаларга драматик тус беришни мақсад қилиб олади. Бахши воқеаларни тасвирлашда дostonда мавжуд бўлмаган баъзи эпизодларни киритадики, буларнинг барчаси эпик билимнинг замонавийлашиб бораётганлидан далолат беради. Мисол учун Алпомишнинг Зирак деган ака-сингил тутунган сингилсининг дoston воқеаларига кириб келиши, Ултонтознинг укаси Қоралочин деган чопоғонга Алпомиш келганлигини хабарини беришга ҳаракат қилиш тасвирлари мана шундай индивидуал ижодий жараёнлардан ҳисобланиб, бахши буни тингловчиларга куйидагича куйлаб, улар диққатини жалб қилишга ҳаракат қилади.

Қулоқ солгин Зирак шўрнинг зориға,
 Акагинам кеп қолибди Барчин деган ёриға,
 Товда кийик ўйнайдиё, тоғда ёққан қорига,
 Ҳар бир банда қувонади Худонинг берган борига,
 Қон кўярман деб келибди тўйхонанинг устига[5].

Дoston куйлашнинг замонавий усуллари дoston матнларини тўлиқ ижро қилиш имконини яратмайди, балки тадбирнинг маълум вақт оралиғидаги масофа бирлигида ижро қилиш кўникмасини шакллантиради. Шунингдек, бахши тўй эгаларини ўйинга чорлаш мақсадида ўйноқи вазндаги термалардан ҳам фойдаланмоқдаки, унинг матнида фақатгина тўй эгаларининг хатти-ҳаракати акс этиб, “аҳай-аҳай” каби қайтарма сўзлар такрор сифатида қўлланиб, мусиқага оҳангдошлик касб этмоқда. Матнда фольклор тили ва унга хос хусусиятлар мавжуд эмас.

Айниқса, Санжар Кубаев, Илҳом Норов каби ёш бахшиларнинг ижросида дoston матнларининг парчаланиш ҳолати яққол кўзга ташланмоқда.

Бунда дoston матнларидаги халқона руҳга нисбатан бахшининг ички кечинмалари, воқеаларга ўзининг дунёқарashi асосида баҳо бериш кўникмаларининг шаклланиб бориши дoston матнларидаги воқеаларни реал ҳақиқат сифатида баҳо бериш устунлик қилмоқда. Бу каби омилларнинг юзага келиши ижтимоий-маданий ҳаётимизга кириб келган театр ва оммавий санъат турларининг ўрни билан боғланади.

Хулоса қилиб айтганда, дostonчилик санъати аждодлар мероси-фольклор санъати сифатида янгича талкинлари билан авлодларга хизмат қилишда давом этади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Жирмунский В. М., Зарифов Х. Т. Узбекский народный героический эпос. – М., 1947; Зарифов Х. Улкан халқ санъаткорлари // Эргаш шоир ва унинг дostonчиликда тутган ўрни. – Тошкент: Фан, 1971; Шу муаллиф. Фозил шоир машҳур дostonчи // Фозил шоир. – Тошкент: Фан, 1974; Мирзаев Т. Халқ бахшиларининг эпик репертуари. – Тошкент: Фан, 1979.
2. Мирзаев Т. Халқ бахшиларининг эпик репертуари.– Тошкент: Фан, 1979. – Б.19.
3. Мирзаев Т. Ўзбек дostonчилиги ва “Алпомиш” дostonининг Бекмурод Жўрабой ўғли варианты ҳақида // Алпомиш. Дoston. Бекмурод Жўрабой ўғли варианты. – Тошкент, 1999. – Б.5.
4. Ойпарча. Дoston. Айтувчилар Умир шоир Сафаров ва Бўри бахши Аҳмедов. Нашрга тайёрловчилар М.Жўраев, М.Жўраева // Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 100 жилдлик. 8-жилд. Сўзбоши, илмий изоҳлар ва резюме муаллифи М.Жўраев. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2016. -Б.217.
5. Ушбу дostonлардан келтирилган матн “baxshi.uz” сайтидан ёзиб олинди. Айтувчи Шоберди Болтаев.



УДК82.0(574)

БАЛҒОЖА МЕН ҚҰНАНБАЙДЫҢ ЕТКЕН ІСТЕРІ МЕН СӨЗДЕРІНІҢ ҮНДЕСТІГІ

Серікбай Оспанұлы, Күлзада Мырзағалиева
 Ө. Сұлтанғазин атындағы Қостанай мемлекеттік
 педагогикалық университетінің профессорлары

Аннотация Балғожа мен Құнанбай замандас. Бірі Ыбырайдың атасы, бірі Абайдың әкесі. Екеуінің өмірі мен еткен істерінде ұқсастық көп. Өйткені екеуі де елдің қамын жеп, балаларын орысша оқытуды ойлаған. Мақалада екеуінің ұқсастығы, ел үшін еткен ісі бір-бірімен салыстырыла отырып айтылады.

Тірек сөздер: би, билік, оқу, білім, Құдай, жанашыр, тәлім, тәрбие, мектеп, заман, заң, абырой, атақ.

Құнанбайдың шөбересі Әрхам Кәкітайұлы (1886-1963): «Құнанбай үшінші ұлының атын Ибраһим деп арабшалап қойды. Ибраһим Мұхаммед пайғамбардың ұлы атасы, өзі де пайғамбарлық атағын алған адам екен. Бұл атты баласына қоюы Құнанбайдың өз ортасынан ерекше дін жолына берілгендіктің белгісі сықылды»[1,15 б.],-дейді.

Құнанбайдың Құдайберді, Тәңірберді деген ұлдарының аты да Әрхам сөзін растай түседі.

Бірін-бірі білді ме, білмеді ме, ол жағы бізге белгісіз, атақты би Балғожа Жаңбыршыұлы мен Құнанбай Өскенбайұлының заманы да, заманына сай амалы да бір болған. Екеуі де мұсылман дінін ардақ тұтып, оған қызмет еткен.

Құнанбай 72 жасында қажылыққа барып, Меккеден келген соң бар өмірін құдайға құлшылық етумен өткізді. Меккеге барған қазақ қажылары түсетін Тақия деген үй, Қарқаралыда мешіт салдырды.

Ал, Балғожаның Алланың ақ жолында болғанын Ыбырай Орынборға оқуға барғанда өлеңмен жазған мына хатынан аңғару қиын емес:

«Қарағым, көзім нұры, көңіл гүлім,
 Сөзімді ілтипатпен тыңдап ұғын.
 Айрылма мұсылмандық тұтқасынан,
 Өлім хақ, өмір өтер, тұрмас бір күн.
 Барасың қамап тұрған қалың жауға,
 Бола гөр өзіңе-өзің тым-ақ мығым...»[2,260 б.]

Өлеңдегі «Бұл сөзім, Аллаға аян барлық мінім», «Көзіме жасымды іркіп сұрап тұрмын Әлемге тегіс жеткен Хақтың нұрын» деген жолдар да оның Құдайдан безбегендігінің куәсі. «Барасың қамап тұрған қалың жауға» дейді. Бұл жол оған кешегі Кеңес дәуірінде тағылған «шен-шекпен үшін орыстарға сатылған, орысшыл» деген айыптарды бекерге шығарады. Енді бірде осы өлеңінде ол «Шамаң келсе нашардың жағында бол», «Нәсіп болып жете алсаң мақсұтыңа, Ұлтыңа қызмет істе бұл бір сырым» дейді.

Жанашыр жүрек түкпірінен шыққан шынайы, арада ғасырдан артық өтсе де әлі жастарға берер тәлім-тәрбиелік мәні зор, үгіт-насихатқа толы, ақыл, нақыл, өсиет өлең. Халықтың қамын ойлап қамығу, немересінің болашағына алаңдап егілу бар. Сонымен бірге Балғожаның ішкі әлемінен де хабар беріп, мақсат-мүддесін, көргендігі мен көрегенділігін де айқындай түсетін туынды.

Балғожа да, Құнанбай да оқу-ағарту ісіне ерекше көңіл бөліп, балаларын оқытуды жөн санаған. Балғожа 5 жасар немересі Ыбырайды қазақ балаларына арналып Орынбор қаласындағы Шекара комиссиясы жанынан ашылған 7 жылдық мектепке беруді



ойластырып, мектепке алынатын балалар тізіміне алдын-ала қостырып қояды. Мектеп ашылғанда 9 жасар Ыбырай дабасқа балалармен бірге оқуға қабылданып, 1957 жылы мектепті үздік бітіріп шығады.

Өскенбай тұңғыш қызы Тойбаланы, одан екі жыл кейін туған Құнанбайды ел ішінде зекет, садақа жинап жүрген бір қожаға оқуға берсе, «Қазақ балаларының оқығанын арман етіп көкसेген ұлы Құнанбай өзінің күзегінен ең алғаш там салдырып, сауын мал, азық жинап беріп, айналасындағы қазақ балаларын, өз балаларын оқытқан»[1,9 б.] «Екі там» деген жерде мектеп ашып, онда «Байдалының Сары молдасы» аталып кеткен Мұхамет, мұсылманша сауатты Ғабитхан Ғабдыназарұлы, Әуез, Хасен сабақ берген. Құнанбайды өз балалары Құдайберді, Тәңірберді, Ибраһим (Абай), Ысқақ, Оспан, Халиолла алғаш осы мектепте оқып, сауаттарын ашқан. Жылына Ташкенге бір рет керуен жіберіп, оқушы балаларға керекті кітаптар алдырып тұрған.

Сол тұстағы заман ағымын жақсы түсінген екеуі де балаларын орысша оқытуды теріс көрмеген. Ыбырай жоғарыда аталған мектепте 7 жыл бойы орысша оқыған.

Құнанбай 1845 жылы өз елінде қазақ балаларын оқытатын училище ашпақ болып Шекара комиссиясына қазақ, орыс тілін еркін меңгерген орыс мұғалім жіберулерін сұрап хат жазады. Алайда олар Құнанбайдың ой-пікірін қолдағанмен, екі тілді бірдей білетін мұғалімнің жоқтығын айтып, Тобықты елінде тілмәш болып жүрген жігітке жалақы төлесе, бос уақыттарында сабақ беруіне болатынын хабарлайды.

Құнанбай Абайды, Балғожа Ыбырайды 12-13 жасынан-ақ билік айтып, шешен сөйлеуге баули бастайды.

Балғожамен бірге туған Ханқожаның Ақдәулет, Қылышбай деген екі баласы болады. Қылышбай болыс болып тұрғанда Ақдәулет інісіне өкпелеп Бағаналы Байырға көшуді ойлайды. Елдің бас адамдары жиналып көшпе десе, Ақдәулет көнбейді. Сол кезде Ыбырай оқуды жана бітірген кезі. Ақдәулеттің хабарын естіп Ыбырай келеді. Ақдәулетке сәлем беріп, жай-күйін сұрап отырғанда айтқан өлеңі екен дейді:

«Мұнан барсаң барарсың
 Бағаналы-Байырға.
 Нарынды берген тамырға.
 Жая менен жал салып
 Берерсің тоқал қабырға.
 Төсекті қалың төсерсің
 Өтпестей қылып сауырға.
 Ағаңнан өзің барған соң
 Жая менен жал түгіл
 Зар боларсың қарынға.
 Малыңа азық жинауға,
 Жарымассың шабынға.
 Түбек тимей өзектен,
 Малыңды қыс күн бағуға.
 Қона алмассың қалыңға
 Жазғытұры болғанда
 Жая алмайсың малыңды,
 Жайсаңы бар ауылға.
 Асығарсың сонда, аға,
 Көшемін деп қайтадан
 Ағайын-туған бауырға.
 «Өз тұяғы тұлпардың,
 Өзіне дәрі» деген бар
 Қайтыңыз, аға, ауылға!»



Ыбырайдың сөзіне тоқтап, Ақдәулет көшін түсіріп, қайта қонады. Мал сойып қонақасы әзірлеп жатқанында Ыбекең Қылышбайға сәлем бере барып:

«Уа, Қылыш-еке, Қылыш-еке!

Бақыт қонды басыңа.

Көтере алмай бақытты

Аққан судай тасыма.

Қастасқаның Ақан ба,

Білгендігің осы ма?

Ағаң қонды қасыңа

Ерулікке тай сойып,

Шақырыңыз асыңа.

Қоса шақыр Жүзбайды.

Жүзекем келсін жиынға

Іштің сырын қозғайды.

Жүзбайдың айтқан билігін

ешкім сынап, бұзбайды.

Әр ауылдан бір кісі ал,

Сөз тыңдарлық саналы,

Сонда халқың азбайды.

Ысқыра берсең сұрланып,

Өсек-аяң қоздайды.

Жаннан жанның артығы жоқ,

Сендегі артық тек бақыт

Бағыңа ешкім қолын созбайды», – депті.

Қылышбай сөзден жеңіліп, тайын сойып, Жүзбайды, Ақдәулетті шақырып татуласқан екен. [3].

Абайтанушы, филология ғылымдарының докторы, профессор Мекемтас Мырзахметов «Құнанбай Абайды түбінде билікке алып келуді ойлаған,- деп жазады.- Сондықтан орысша оқытпастан бұрын, оның қазақы ортаның нәрімен сусындап, кейін медресеге оқуға жіберді. 13 жасында билікке араластырды. Осылайша, Абай елдің рухани қазынасын меңгеріп, халыққа не керектігін түсінді»[1,30 б.]

Балғожа да, Құнанбай да асқан ақыл иесі, сөзге шешен, іскер, дала заңдары мен Құран қағидаларын да, орыс заңын да жақсы білген, ел қамын жеген айтулы тұлғалар. 1850 жылдың 12 наурызында толтырылған бір құжатта Балғожа Жаңбыршиннің Ұзын қыпшақ билеушісі, 48 жаста, жүзбасы екендігі, орта бойлы, толық, дөңгелек жүзді, қараторы, шағын қара сақалды, шүңірек көзінің үстінде қалың қас-қабағы бары айтылып, Ұзын қыпшақтың алтыбас тармағы биінің баласы екендігі көрсетіліп, «Ол қазақ ордасының Шығыс бөлігіндегі ең бір ақылды, ел сыйлаған билердің бірі[4,112-121 бб.]»-деп жазылса, поляк халқының көрнекті демократ-революционері, этнограф Адольф Янушкевич Құнанбай жайында «Табиғат оған кесек ақыл, ғажайып ес және жүйрік тіл берген. Іскер, өз аталастарының игілігі туралы қам жейді. Дала заңдары мен Құран қағидаларының баянды білгірі, қазақтарға қатысты Ресей заңдарын жатқа біледі, қара қылды қақ жарған би және өнегелі мұсылман»[1,4 б.],-деп жазады.

Сол заманда өмір сүрген елге белгілі замандас ақындар мен би, шешендер де кейінгілер де, екі тұлға жайында жақсы пікірлер айтқан.

Балғожа 1860 жылы жаз айында қайтыс болып, би жаназасына үш болыстың адамдары – өз жұрты, құдалары арғынның Алдияр (Таз) руының атақтысы Жазы бидің елі шақырылыпты. Ол кезде бұл елдің басқарушысы Шоқай би екен. Дәл сол тұста ол қажылықта болып, келе алмайды. Келген соң Балғожаның дүниеден өткенін естіп, қатты қайғырып: «Балғожа екі тумайды, жаратылысы бөлек еді Білімділігі мен парасаттылығы,



әділділігі мен кішіпейілділігі, қайырымдылығы, абырой-беделі орыс-қазақта сирек кездесетін қасиетті жан еді. «Қолда барда алтынның қадірі жоқ» деген ғой. Марқұм, аға тұтып алдымнан өтпейтін. Кездесе қалсақ, атымды байлап, аттанарда қолтығымнан сүйейтін. Енді ондай бекзатты қайдан табарсың, қайран сарбаз ерте кетті?!»- деп өкініш білдіріп, жолдас-жораларын жинап ақылдасып, орнына барып дұға оқыту үшін Балғожаның еліне сауын айтып елші жіберіпті[2,117 б.].

Балғожа мен Құнанбайдың замандасы, қазақтың алғашқы журналистерінің бірі Асылқожа Құрманбаев 1894 жылы «Дала уалаятының газетінде» жарық көрген «Қазақтар қандай адамды жақсы кісі деп атайды» деген мақаласында бұрынғы замандарда қазақ бай болмаса да туғаннан ақылы көп, қайырымды, әділ хәм параға қарамайтын адал адамды құрмет тұтқанын айта келіп, Тезек батырды, Төле, Сармантай, Шоң, Қазыбек, Бағай-әке, Хұсейін билермен қатар Торғай облысынан Балғожа бидің атын атайды[5].

Құнанбай Шәкәрім 27 жасқа толғанда дүниеден өтті. Ол Құнанбайды тәте дейді екен. «Мен тәтеме сәлем беріп тұратын едім. Бірақ, жиі барып, қасында отыруға мүмкіндік болмады. Тәтемнің ауылы біздің ауылдан шалғай болатын. Жанына бес-алты рет барғанымның өзінде көп әңгіме айтып, ақыл беретін... Әсіресе адалдық жағын баса үйрететін... Тәтем: «Көпке жақпай, адал болмай, абырой, атақ алмайсың», -дейтін» [1,11 б.]-, дейді ол.

Балғожа би туралы Сегіз Сері (Мұхамед-Қанафия) Баһрамұлы:

«Шоқай, Жазы, Балжеке,-үшеуіңіз
 Бұл күнде бетті дұрыс түзедіңіз.
 Көз салып ілгеріге, айқын болжап,
 Ұрпақтың болашағын көздедіңіз...

Біріндей осы ұлың күн мен айдың,
 Сырына қанық болар әрбір жайдың.
 Тіл-көз бен сұқ көздерден есен болсын,
 Асады қатарынан Ыбырайың...»[6,179 б.],-

деп Балғожаны мақтап, немересі Ыбырайға бата берсе, Жаңбыршы ұрпақтарының бірі Сейітқали Төлегенұлы ел ауызынан жазып алған бір өлеңде:

«Қыпшаққа би Балғожа аға болды,
 Ағасы Қанқожа би дана болды.
 Айбыны аш арыстан секілді еді,
 Көрсетті сан қазаққа тура жолды.
 Үш жүзге Құсмұрында билік айтты,
 Әр сөзін хатқа жазып, бетіне айтты.
 Тоқтатып жалғыз ауыз сөзбен жұртты,
 Халайық риза болып, елге қайтты»,-[7],

делінеді.

Құнанбай жайында Біржан сал:

Құтыма тіл тигізбе—ер Құнанбай,
 Алашқа даңқы шыққан кер бұландай [1,4 б.],-

десе, айтыскер ақын Төребай Есқожаұлы:

Көп ерлер Құнанбайға еліктеген,
 Жауы да Құнанбайды кемітпеген.

Меккеге жүз кісілік үй салдырып,
 Үш жүзге даңқы шыққан ерлікпенен[1,4 б.],-

деп тебіренеді.

Ыбырай атасы туралы:



Қыпшақта би Балғожа аға болды,
 Ағасы Ханқожа би дана болды.
 Айбыны аш арыстан секілді еді,
 Көрсетті сан қазаққа сара жолды.

Үш жүзге Құсмұрында билік айтты,
 Әр сөзін хатқа жазып бетіне айтты.
 Тоқтатып жалғыз ауыз сөзбен жұртты,
 Халайық риза болып елге қайтты[7]-,

десе, Абай:

«Арғы атасы қажы еді,
 Бейіштен тартқан шәрбатты.
 Жарықтықтың өнері,
 Айтуға тілді тербетті.
 Адалдық, ақыл жасынан,
 Қозғапты, тыныштық бермепті.
 Тәубесін еске түсіріп,
 Тентекті тыйып, жерлепті.
 Ол сыпатты қазақтан,
 Дүниеге ешкім келмепті.
 Өлмейтін атақ қалдырып,
 Дүниеге көңіл бөлмепті[1,4 б.],-

деп толғайды. Балғожаның немересі Ыбырай (Ибраһим) Алтынсарин де, Құнанбайдың ұлы Абай (Ибраһим) да Ислам дінін қадір тұтып, оның ақ жолында болды. Балғожа тәрбиесін көрмесе Ыбырай, Құнанбай тәрбиесін көрмесе Абай ұлы тұлғаларға айналар ма еді, айналмас па еді?!

ПАЙДАЛАНЫЛҒАН ӘДЕБИЕТТЕР:

1. Кәкітайұлы Ә. Құнанбай Абайдан зор үміт күтеді // Аңыз адам, № 13(121) шілде, 2015.
2. Оспанов С. Алтынсарин әлемі. / Қостанай қ. «Центрум» ЖШС, 2017.
3. ҰҒА сирек кездесетін кітаптар мен қолжазбалар қоры, К-397 қор, №2.
4. ЦГА РК ф.И-4, Оп.Л., д. 2512
5. Құрманбаев А. Қазақта қандай адамды жақсы кісі деп атайды // Дала уалаятының газеті, 1894, №26.
6. Сегіз сері (Мұхаммед-Қанафия) Баһрамұлы. Таңдамалы шығармалары. Солтүстік Қазақстан заң академиясы-2003.
7. Қазақстан республикасының ҒА кітапханасы. К-397 қор №2. Ыбырайдың баспаға шықпаған өлеңдері. 3-12 беттерінен.



УДК 811.512

ФРАЗОВЫЕ РЕПРЕЗЕНТАЦИИ КОНЦЕПТА «ПРОЩАНИЕ»

Мамытова Гулмира Зикирбаевна

старший преподаватель кафедры практического курса русского языка и культуры речи факультета русской филологии Ошского государственного университета

Касымова Жыпаргуль Акбаралиевна

преподаватель кафедры практического курса русского языка и культуры речи факультета русской филологии Ошского государственного университета

Машиева Роза Каныбековна

преподаватель кафедры практического курса русского языка и культуры речи факультета русской филологии Ошского государственного университета

Темиралиева Толгонай Тайлакбаевна

преподаватель межфакультетской кафедры русского языка факультета русской филологии Ошского государственного университета
 Ош, Кыргызстан

***Аннотация.** Данная статья посвящена анализу концепта «прощание» как самостоятельного концепта через описание его онтологического пространства (соответствующей ситуации) и языкового пространства (комплекса разнородных средств языковой репрезентации).*

***Ключевые слова:** концепт, фраза, прототип, прощание, расставание, интерпретация.*

Наиболее широко репрезентируется концепт «прощание» на уровне фразовых единиц. Весь набор микрополя фраз подразделяется на парадигмы, в которых единицы группируются по тому или иному прагматическому признаку.

Ядро микрополя фраз занимает наиболее частотная, стилистически нейтральная фраза *До свидания*, в структуре которой предлог до «знаменует временной предел разлуки – расстанемся до нового свидания» [3, с. 81]: – *Ну, я пойду, – стеснительно сказал Вермо. – До свиданья* (А.Платонов). Менее частотным является сниженный вариант *До свиданьчика!* (разг.): *Одначе прощенья просим, – говорит он [солдат] [...] До свиданья вам. – До свиданьчика...*(А.Куприн).

Значение временного предела, «но уже гораздо более осознаваемого говорящим» [3, с. 81] заключено во фразе *До встречи*: – *До встречи, – помедлив, шепчет он [мальчик] Хомину. // – До встречи! – я чувствую, что они обнимаются и Хомин целует его* (В.Богомолов). В контексте представленные фразы «прирастают» эксплицитно выраженным элементом, указывающим на сроки разлуки (на короткое время / надолго / навсегда), с приблизительным и точным указанием: *До скорого свидания; До скорой встречи!*», *До новой встречи; До завтра; До завтрашнего дня; До понедельника; До следующего лета* и др. Место предполагаемой встречи в содержании фраз прощания характеризуется не только как реальное пространство (До встречи в театре; До встречи на стадионе), но и как виртуальное пространство – при разрыве контакта по телефону, радио, по окончании телемоста и т.п. (До следующей связи; До встречи в эфире; До встречи на канале РТР / НТВ / на нашем сайте; До встречи в программе «Герой дня»). В речи часто такие фразы используются после наиболее частотного стереотипа *До свидания: Ну, вот мы и пришли. Мой дом. До свидания, Юрий Иванович. До завтра* (И. Грекова).

Эксплицитное выражение семантического компонента зрительного восприятия отличает высокочастотную фразу *увидимся*. Для русского *До свидания* существуют точные параллели в других языках (в польском, немецком, румынском), которые в



буквальном переводе толкуются как «снова увидятся», через определенное время (Через неделю увидимся). Актуализация компонента «при аудиовосприятии» отличает менее частотную фразу *Услышимся!*

Dostonlarning tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak: "O'rta va yaqin Sharq xalqlari, shu jumladan turkiyzabon xalqlar og'zaki va yozma adabiyotidagi katta hajmga ega bo'lgan liro-epik asarlardir".¹² Dostonlar xalqning o'tmishi, buguni, ertasini bog'lovchi, ajdodlar ma'naviy merosini avlodlarga yetkazuvchi folklor namunasi bo'libgina qolmay, balki, ana shu xalqning o'zi bilan birga yashovchi, taraqqiy etuvchi yirik janrlardan biridir. Ota - bobolarimiz azal-

¹¹ Karimov I. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent "Ma'naviyat" 2008-y. 30-31-betlar.

¹² Salayev F, Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so'zligi. - Toshkent: Yangi asr avlodi. 2010. - 65-bet.



azaldan “Alpomish”, “Go’ro’g’li”, “Kuntug’mish”, “Rustamxon” dostonlarini tinglab ulg’ayishgan. Ularning ruhiyati mana shu ma’naviyat sarchashmasidan suv ichgan, kamolga yetgan. Aynan hozirgi rivojlangan davrda ham shunday uzoq tarixiy davrlar silsilasidan o’tib kelayotgan durdona folklor namunalari yosh avlodga o’qitish-ularning har tomonlama barkamol inson bo’lishida, milliylik ruhining singdirilishida asosiy omillardan biri bo’lib xizmat qiladi.

Xalq dostonlari haqida so’z borganda, albatta, ularda ilgari surilgan g’oyalarga e’tiborimizni qaratishimiz shart. Zero, har bir ijod namunasi kitobxonga o’ziga xos ma’naviy ozuqa bera olganligi bilan ham ahamiyatlidir. Haqli ravishda shu o’rinda ayta olamizki, xalq dostonlari har bir kitobxonga milliy o’zligini anglatuvchi, tarixidan xabar beruvchi, eng muhimi milliy va umumbashariy tuyg’ularini yuragiga jo etuvchi, ularni mustahkamlovchi asosiy manbadir.

Mashhur dostonlarimizdan bo’lgan, katta-yu kichikka tanish “Alpomish” dostonida ham aynan yosh avlodga yuksak namuna bo’ladigan, ularni insoniy sifatlarga ko’proq e’tibor qaratishga undaydigan jihatlar kuylangan. Doston bosh qahramonlari Alpomish va Barchinoy obrazlari orqali qadim - qadimdan bir millat, bir xalq bo’lib yashab kelgan o’zbek xalqi tarixi aks ettiriladi. Dostonda qahramonlar tilidan aytilgan so’zlar esa mana shu xalqning eng muhim hayotiy tushuncha va qadriyatlarini aks ettiradi. Misol sifatida Alpomish tilidan keltirilgan ushbu satrlarga e’tibor beramiz:

Oq kirovka oltin sovut kiyaman,
 Bor kuchimni bilagimga jiyaman.
 Olmos olsam qirmizi qon quyaman,
 G’animlarning tanasini uyaman.
 Qarchig’ayman, dushman boshin qiyaman,
 Esim olsa, bo’tadayin bo’zlayman.
 Dushman ko’rsam kesib bag’rin tuzlayman,
 Aslim sherman, o’zim yo’lbars izlayman. (3. 24-bet)

Ushbu satrlardan anglashimiz mumkinki, jasurlik, mardlik, vatanparvarlik kabi sifatlar aynan qahramonning asosiy jihatlaridan biri. Shu jumladan, dostonda asar konfliktini yuzaga keltiruvchi og’a - ini munosabatlarini ham ko’rishimiz mumkin. Boybo’ri zakot so’rganini eshitib Boysarining tiliga shunday so’zlar keladi:

Dardli qul dardimni kinga yozaman,
 Ayrolig’ o’tiga bag’ri poraman,
 Muna elda sig’indi bo’p turaman,
 O’z akamga qanday zakot beraman?!
 Maslahat ber o’ng ming uyli qarindosh.
 Xudo deyin, yaratganga jilayin,
 O’z akamga qanday zakot berayin,
 O’z akamga o’zim zakot berguncha,
 Boshqa yurtda juz’ya berib yurayin,
 Maslahat ber, o’ng ming uyli qarindosh! (3. 38-bet)

Yuqoridagi so’zlardan ham ko’rishimiz mumkinki, og’a – inilar o’rtasidagi o’zaro tushunmovchiliklar yuzaga kelganligi katta bir xalqni ikkiga bo’lib yuboradi. Afsuski, bu ziddiyatlar o’z oqibatini ko’rsatib Boysari boshliq xalqning o’zga ellarda sarson-sargardon bo’lishiga olib keladi. O’zga ellarga ketgan bu xalq, o’zga elning yerida yurib, o’z vatandoshlarini, mustaqilligini, erkini eng muhimi yaqinlari-yu, tug’ilib o’sgan tuprog’ining qadriga yetadi. Bu voqealardan ham o’quvchi o’ziga to’g’ri xulosa chiqarib, inson uchun eng muhim bo’lgan aziz ne’matlarni qadrlashni o’rganadi.

Dostonda bosh qahramonlarimizdan bo’lgan Barchinoyning xatti-harakatlari orqali o’zbek qizlariga xos xislatlarni ham ko’rib o’tamiz. Dostonda uning har bir so’zi muhim



vaziyatlarda tutgan yo'li orqali o'quvchiga o'zbek xalqi ayollariga xos ibo, hayo, nafasat, jasorat, aql-zakovat sadoqat kabi takrorlanmas sifatlar ham singdiriladi. Buni Barchinoy tilidan aytilgan quyidagi s'ozlardan ham ko'rishimiz mumkin:

Har so'zimni ola berding qiyoma,
 Qo'lingdan kelganin qilgin, ayama.
 Meni olmoqqa hadding bormi, qalmoqlar,
 O'z yo'lingga bora bergin, badbaxtlar.
 Oti Alpomish yorim bordir,
 Chakasida shunqorim bordir.
 Qatordagi norim bordir,
 Chilla kirganda mast bo'lgan,
 Xatapga boshini urgan,
 Ne zo'rlarning dodin bergan,
 Qo'ng'irotda qaysarim bordir.
 Xabar borsa bek Alpomish kelmaymi,
 Xomin kelsa, senday qalmoq o'lmaymi,
 Holing bilib to'g'ri yursang bo'lmaymi?! (3. 79-80 bet)

Barchinoy tilidan aytilgan ushbu so'zlardan ham anglashimiz kerakki, aynan o'zbek ayollariga xos xislat-u fazilatlar ushbu obraz misolida o'z aksini topgan. Shu sababdan ham yuksak fazilatlar egasi bo'lgan Barchinoy obrazi o'zbek qizlariga namuna sifatida yorqin misol bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, dostonda yuksak insoniy fazilatlardan biri bo'lgan do'stlik tuyg'usi yuqori pardalarda kuylanadi. Bunga misol sifatida Alpomish va Qorajonning munosabatlarini keltirishimiz mumkin. Jumladan, Qorajon obrazi tilidan shunday so'zlar aytiladi:

Bildim qo'ng'iroflik zotingni,
 Malakdayin suratingni,
 Qovdon yegan otingni
 Boychiborlarga mengzadim.
 Moyacham deb so'rganingni,
 Galman javob berganingni,
 Rustam kabi mujgoningni
 Alpomishlarga mengzadim.
 Shirin suxanli tilingdi,
 Bilagingdagi zo'ringdi,
 Panjasi uzun qo'lingdi
 Boysarilarga mengzadim.
 Kallasi katta boshingdi,
 Bildim men qilgan ishingni,
 Burgutday o'tirishingni
 Boybo'rilarga mengzadim.
 Haq deb chiqqan nolishingni,
 Jasad-u, tana, to'shingni
 Kuntug'mishlarga mengzadim. (3. 134-bet)

Dostondagi qahramonlarning aytgan so'zlari kitobxonni yanada teranroq o'ylashga, ularning kechinmalari-yu, dunyoqarashiga kengroq nazar tashlashga, tahlil qilishga undaydi. Doston voqealari o'quvchini to' asar boshidan tugallanmasiga qadar xayolini band etadi. Bu voqealar hayotiyliigi, badiiy boyitilganligi bilan ham o'quvchini o'ziga jalb etadi. Dostondagi har bir voqea insoniy munosabatlarni izga solishga, ma'naviy qadriyatlarni avaylab - asrashga



undaydi. Shuningdek, inson, tabiat, jamiyat haqidagi o'zbek xalqining o'ziga xos qarashlari ham aks etgan. Bu asarlarni o'qitish orqali o'quvchilarda milliy va umumbashariy qadriyatlarni rivojlantirgan bo'lamiz. Aynan shuning uchun ham yosh avlodga bu asarlarni o'qitish ularni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga yordam beradi. Doston voqealari o'quvchida milliy g'urur va iftixor tuyg'ulari bilan birga, umumbashariy tushunchalarni ham rivojlantiradi. Bu dostonlarni o'qitish orqali kelajak avlodni o'tmishimiz, bugunimiz, ertamiz haqida chuqurroq o'ylashga, ajdodlarimizning bizga qoldirgan buyuk ma'naviy merosini qadrlashga, avaylab-asrashga, rivojlantirishga undagan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent "Ma'naviyat" 2008-y. 30-31-betlar.
2. Salayev F, Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so'zligi. –Toshkent: Yangi asr avlodi. 2010. -65-bet.
3. Alpomish. O'zbek xalq ijodi. -Toshkent:Gafur G'ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi, 2016. - 24, 38, 79, 80, 134-betlar.

UDK 801.8

GERMENEVIKA – MATN TALQINI

Normurodov Boburjon Sobir o'g'li

Muzrabot tumani, 2-maktab ona tili va adabiyot o'qituvchisi

Chorshanbiyeva Adiba Olloqulovna

Muzrabot tumani, 2-maktab ona tili va adabiyot o'qituvchisi
 Surxondaryo viloyati, O'zbekiston

***Annotatsiya:** Bugungi rivoj topgan zamonda badiiy asar va uning ahamiyati juda muhim hisoblanadi. Milliy o'zligimizni anglashda mumtoz adabiyot namunalari beqiyos o'ringa ega. Ammo ushbu adabiyot durdonalarini tushunish bugungi avlod uchun murakkablik tug'dirmoqda. Bu muammoning yechimi sifatida adabiy hermenevtika ilmini o'rganish va shu sohada kadrlar yetishtirish kerak deb hisoblaymiz.*

***Kalit so'zlar:** Hermenevtika, Germes, adabiy hermenevtika, talqin, tushuntirish, matn talqini*

Germenevtika so'zi grekcha "hermenevtike" – "tushuntiraman" degan ma'noni anglatadi. Hermenevtika etimologiyasi yunon mifologiyasiga borib taqaladi. Qadimgi Yunoniston miflarida Germes degan xudo bo'lgan. U Olimp tog'ida yashovchi xudolar elchisi bo'lgan va ularni odamlar bilan bo'glab turgan. Aytilishicha, u odamlarga xudolarning buyruqlarini yetkazib turgan hamda o'zi yetkazayotgan mantni talqin etish va tushuntirish ham uning zimmasida bo'lgan. Bir vaqtning o'zida u savdo homiysi ham hisoblangan Savdo esa tabiiyki o'zaro tushunishni talab etadi.

Matn talqini bilan bog'liq hermenevtika – talqin nazariyasi, talqin etish san'atidir. Badiiy matn talqini bilan shug'ullanuvchi hermenevtika esa adabiy hermenevtika deb ataladi. Bu sohaning falsafiy va adabiyotshunoslik bilan bog'liq jihatlari dunyo olimlari tomonidan



o'rganilgan. Shunday olimlardan Shleyermaxer, Diltey, Xaydegger, Gadamer kabilarni misol qilish mumkin.

G'arbiy Yevropada XVIII asrda fanga kirib kelgan germenevtika metodologiyasi hozirda barcha jamiyatlarning boshqaruv bo'g'inlarida ham qo'llaniladi. Bu istiloh avvalda muqaddas diniy kitoblarning matnini o'rganar va tushuntirar edi.

Ayniqsa, teolog faylasuflar Vilgelm Diltey (1833-1911) va Fridrix Shleyermaxer (1768-1834) germenevtikani o'sha davrlar G'arb olamining konstitutsiyasiga aylangan Bibliya matnlaridagi hamd-sano va na'tlarni keng sharhlashda qo'lladilar. Keyinchalik esa o'rta va kenja avlod germenevtlari tomonidan bu metod universallashti. Edmund Gusserl va Martin Xaydegger germenevtikani fenomenologiya hamda ruh haqidagi fanlarga olib kirdi.

Xaydeggerning shogirdi Xans Georg Gadamer (1900-2001) esa metod imkoniyatlarini kengaytirib interprotatsiya sferalarini ko'rsatib berdi. Matnni tushunish hech qachon oxiriga yetmaydi, — deydi u “Haqiqat va metod” asarida. Zamondoshimiz Yurgen Xabermas esa germenevtikani sotsiologiyaga olib kirdi. G. M. Mayer, X. Volf, A. Bek, F. Ast va boshqalar bu tushuntirish amaliyotini falsafaga olib kirishga uringanlar. Shulardan, Xristian Volf (1679-17654) (Kand uni ratsionalistik dogmatizmga ayblagan) va “Aristotel sillogizmi”, “Suqrot” kabi falsafiy traktatlarning muallifi Genrix Mayer (1867-1933) teologiyada ham, hatto teosofiyada ham matnlarni sof aqliy quvvat bilan germenevtik talqin qilishni targ'ib qilganlar. Germenevtikaning ibtidoiy shakli o'rta asrlar G'arbda teologiya, patristika, sxolastika, egzetika bag'rida yashaganini bilamiz. Lekin, har qanday ta'limotning o'zgacha shaklida bo'lsa ham o'z o'tmishi bor. Talqin masalasi bilan bog'liq dastlabki asar Gomerning “Iliada”si bo'lgan. “Iliada” va “Odissey” asarlarini talqin etgan grammatistlar germenevtiklar rolida namoyon bo'lishgan

Sharqda matn sharhlashda, tushuntirishda germenevtik metodlar oldin ham bo'lgan. Ammo ular boshqacha nomlangan. Bu metod, ayniqsa, diniy matnlarda uchragan. “Avesto” matnlariga sharh “zand” deb yuritilgan. “Qur'on” sharhi esa “Tafsir” deb ataladi. Har qanday adabiy, falsafiy oqimning ildizini, avvalo, sharqdan izlash kerak.

Mavzuni yaxshiroq anglash uchun bir tajriba o'tkazamiz. Bir hikoyani bitta odamga aytamiz. U esa boshqa odamga, unisi esa boshasiga aytadi. Shunday tartibda o'n nafar odamdan so'ng yana sizga yetib keladi. Sizningcha hikoyada o'zgarish qay darajada bo'ladi? Bu uni talqin etuvchilarga bo'g'liqdir. Agar o'n nafar odam ham bilimdon va ziyoli adabiyotshunos bo'lsa oddiy hikoya yanada sayqal topadi. Lekin ular oddiy odamlar bo'lsa matn “o'ladi”.

Mumtoz adabiy asarlarning matnlari, undagi obrazlar, ko'pincha, majoziy ma'noda qo'llaniladi. Shu sababli o'quvchi asar mohiyatini anglashda qiyinchiliklarga duch keladi. Bunday hollarda ko'pincha asarning nasriy bayoniga ehtiyoj seziladi. Shuni anglash kerakki, nasriy bayon bu asar degani emas. Chunki nasriy bayonda yozuvchidan tashqari tarjimonning ham roli bo'ladi. Uning ham ichki kechinmalari, ruhiyati, so'z boyligi, dunyoqarashi aks etadi. Shuning uchun ham asarni o'z tilida, o'z yozuvida o'qib tushunish eng to'g'ri yo'ldir. Ammo bu ishni hamma ham uddalay olmaydi.

Bizda hozirda matnshunoslarimiz shu masala bilan shug'ullanishadi. Ammo sohada kadrlar yetarli emas. Bundan tashqari, matnshunoslarimiz qadimgi qo'lyozmalar bilangina ceklanib qolishmoqda. Zamonaviy adabiyotda ham shunday matnlar uchraydiki, ularni, albatta, talqin etish zarur. Masalan, Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” asari qahramoni Zaynab obrazini har kim har xil talqin etadi. Kimdir uni ayblasa, yana kimdir Kumushni ayblaydi, boshqa birov esa O'zbekoyimni qoralaydi. Bu fikrlarni jamlab o'quvchiga yetkazish adabiy germenevtlar ishi nazarimizda. “Adabiyotshunoshlar nima ish qiladi?,- degan savol paydo bo'ladi. Ular obrazlar, oqimlar, o'xshtishlar-u kinoyalar, asar syujeti haqida fikr yuritsin. Matn talqini bilan esa aynan adabiy germenevtlar shug'ullansin.

Germenevtlar faqat adabiy soha uchun emas balki juda ko'plab sohalarda faoliyat yuritishi mumkin. Misol uchun siyosiy sohada, ma'muriy sohada, huquqiy sohada... Biz



rivojlanayotgan mamlakat ekanmiz ayni sohalardagi o'zgarishlarni buzib talqin etish holatlari ham uchrab turibdi. Bu kabi muammolarni oldini olish uchun germenevtlar kerak.

Yana adaboyotga qaytamiz. Juda ko'p bahslarga sabab bo'lgan Chingiz Aytmatovning "Jamila" qissasi haqida to'xtalsak. Asar qahramoni Jamila hamma narsani tashlab, sevgilisi bilan qochib ketadi. U oilali, buning ustiga urush ketayotgan davr edi. Uning ishi to'grimi? Bu savolga ham adabiy germenevt javob berishi kerak.

Xulosa o'rnida, biz mushohada yuritgan adabiy-falsafiy metod haqida kichkina bir izlanish, xolos. Biz bu metod haqida yana to'xtalamiz va uning nazariy va amaliy asoslari xususida kengroq ma'lumot beramiz. Adabiy germenevtika matn mazmunini yorqin talqin etishi kerak-ki uni izohlashga ehtiyoj qolmasin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. **Jabborov Sh.** Germenevtika – talqin nazariyasi. – T.: "Tafakkur" junali. 2010-yil. №1 son.
2. **Борев Ю.** Эстетика. – М., 1988
3. **Jabborov E.** Jahon adabiyoti janr va oqimlarning o'ziga xos xususiyatlari/ T.: "Mumtoz so'z". 2016-yil.
4. **Erkinov A.** Germenevtika – matn talqini ta'limoti. "Jamiyat va boshqaruv" jurnali., 1997

UDK 801. 8

O'ZBEK TILIDA SHAKLDOSH SO'ZLAR VA KO'P MA'NOLI SO'ZLARNING QO'LLANILISHI

Xoliqova Gulshan To'g'ilovna

Qo'shrabot tuman 34-umumiy o'rta ta'lim maktabi
 ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
 Samarqand viloyati, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada shakldosh so'zlar va ko'p ma'noli so'zlar haqida qiyosiy fikrlar yoritilgan bo'lib, ular orasidagi o'xshashlik va farqlar taqqoslab tadqiq etilgan. Shakldosh so'zlar va ko'p ma'noli so'zlarning tilshunoslik va badiiy adabiyotda tutgan o'rni ko'rsatib berilgan. Shakldosh so'zlar va ko'p ma'noli so'zlarni bir- biridan farqlash usullari matnlar misolida ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: leksika, sinonimiya, metafora, shakldoshlik, ko'p ma'nolilik, polisemiya, tajnis, tuyuq, badiiy san'at, urg'u, lirika, nutq bezagi, bosh ma'no, ko'chma ma'no.

Har qanday tilning, jumladan, o'zbek tilining ham leksik qatlami boy va serqirradir. Tilning leksik qatlami ichki va tashqi imkoniyatlar asosida boyib boradi. Ayniqsa, o'zbek tili boshqa tillarga nisbatan boy ekanligini XV asrdayoq A. Navoiy bobomiz o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida aytib o'tadi. Unda Navoiy bobomiz turkiy tilni shakl va ma'no-munosabati jihatidan forsiy til bilan taqqoslab, turkiy tilda sinonimiya hodisasining nihoyatda keng ekanligini ko'rsatib beradi. Bundan tashqari o'zbek tilida qo'llaniladigan shakldosh so'zlar, ko'p ma'noli so'zlar ham leksik qatlamni tashkil qiladi.



Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ona tili fani o'qituvchilarining zimmasidagi asosiy vazifalar shundan iboratki, o'quvchilarning adabiy til me'yorlarini yetarli darajada o'rganishiga ko'maklashishdir. Ayniqsa, o'quvchilarni erkin, mustaqil fikrlashga o'rgatish va ularning aniq, to'g'ri ravon nutq egasi bo'lib shakllanishida ona tili fani o'qituvchilarining xizmati katta hisoblanadi. Bu esa pedagoglarning ta'limga yangicha g'oya va qarashlar, yangi metod va usullarni qo'llay olishini talab qiladi. Bugungi kunda ba'zan o'quvchilar uchun murakkablik tug'diradigan shakldosh va ko'p ma'noli so'zlar ustida to'xtalib o'tmoqchimiz.

Tilimizdagi so'zlar bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlardan iborat. So'zlarning asosiy qismini ko'p ma'noli so'zlar tashkil etadi. Ko'p ma'nolilik tilshunoslikda polisemiya deyiladi. Ko'p ma'nolilik deyarli barcha mustaqil so'z turkumlariga xosdir. Ko'p ma'noli so'zlar shaklan bir xil, shakldosh so'zlar ham shaklan bir xil. Ammo ko'p ma'noli so'zlarda o'z ma'no va ko'chma ma'no bo'ladi. Ya'ni so'zlarning nutq jarayoniga bog'liq bo'lmagan atash ma'nosi o'z ma'nosi hisoblanadi.

So'zning nutq jarayonida boshqa so'zlarga bog'lanib hosil qiladigan yondosh ma'nosi ko'chma ma'no hisoblanadi. Masalan, til so'zining bosh ma'nosi inson yoki hayvonning bir a'zosi. (Tabib bemorning tilini chiqartirib ko'rdi)

U dehqonchilikning tilini yaxshi biladi. (ko'chma ma'no)

Insonning dilidagi tiliga chiqadi. (ko'chma ma'no)

Til o'rganish uchun katta mehnat qilish kerak. (ko'chma ma'no)

Ko'p ma'noli so'zlar qancha ma'noda ishlatilishidan qat'iy nazar ular o'rtasida bog'liqlik, aloqadorlik bo'ladi. Necha ma'noda ishlatilishidan qat'iy nazar bir so'z turkumi doirasida sodir bo'ladi. Ko'p ma'noli so'zlar o'rtasida ma'no ko'chish hodisasi tilshunoslikda metafora usulida ma'no ko'chish ham deyiladi. Ya'ni metafora o'xshashlik asosida ma'no ko'chishidir. Masalan,

qozonning og'zi (metafora)

qopning og'zi (metafora)

g'orning og'zi (metafora)

o'choqning og'zi (metafora)

Metafora usulini fanga olib kirgan shaxs yunon faylasufi Aristotel hisoblanadi. Aristotel o'zining "Poetika" asarida ma'no ko'chishining bir necha turlarini ko'rsatib o'tgan. Shu turlardan to'rtinchisi ko'p ma'noli so'zlardagi ma'no ko'chishidir. Arastu ko'p ma'noli so'zlarni poeziya tilining belgilovchi xususiyati deb hisoblaydi va ularga g'oyat katta ahamiyat beradi. Faylasuf metaforani birinchi galda nutq bezagi deb hisoblaydi. Ikkingchidan esa metafora yuksak darajada aniqlik, yoqimlilik jozibasiga ega, undan o'rinli va bilib foydalanish esa o'ziga xos badiiy san'atdir, deb ta'kidlab o'tadi.

Ko'p ma'noli so'zlar o'rtasidagi bog'liqlik jihatiga ko'ra shakldosh so'zlardan farqlanadi. Agar ko'p ma'noli so'zlar o'rtasidagi bog'liqlik yo'qolsa, u shakldosh so'zga aylanadi. Shu tarzda dastlab ko'p ma'noli so'z bo'lib, keyinchalik shakldosh so'zga aylanib ketgan ba'zi so'zlarni farqlab olish o'quvchilarda biroz qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Masalan, dam so'zi dastlab ko'p ma'noli so'zlar qatorida o'rganilgan. Keyinchalik bu so'z shakldosh so'zga aylanib ketgan. Masalan, dam (nafas), dam (hordiq), dam (bosqon) kabi.

Shakldosh so'zlarning hosil bo'lishida o'zga tillardan so'z o'zlashtirish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, **bog'** (o'zbekcha bog'laydigan ip yoki tugun) so'zi tojik tilidan o'zlashgan **bog'** (daraxtlardan hosil qilingan maydon) so'zi bilan shakldoshlik hosil qilgan.

Shakldosh so'zlar aytilishi va yozilishi bir xil bo'lib, turli atash ma'nolarini bildiradi. Ya'ni shakli o'xshash ikki va undan ortiq so'zlardir. Ular o'zi ifodalayotgan atash ma'nolariga ko'ra bir so'z turkumi doirasida va har xil so'z turkumi doirasida hosil bo'lishi mumkin. Masalan,
 chang (to'zon)



chang (cholg'u asbobi) ot so'z turkumi

chopmoq (yugurmoq)

chopmoq (yerni ag'darmoq)

chopmoq (kesmoq) fe'l so'z turkumi

Shakldosh so'zlarning ko'pchiligi har xil so'z turkumi doirasida ham kuzatilishiga misollar: ot (hayvon), ot (ism), ot (harakat)

yoz(fasl), yoz (dasturxon yozmoq), yoz (daftarga yozmoq)

o't (o'simlik), o't (olov), o't (ichki a'zo), o't (harakat)

Shakldosh so'zlar ham ko'p ma'noli so'zlar kabi nutqni bezaydi. Ularning qaysi ma'noni ifodalashini nutq jarayonida anglab olamiz. Bundan tashqari shakldosh so'zlarda urg'u ham ma'no farqlash uchun xizmat qiladi.

yangi`-sifat olma`-ot

ya`ngi-ravish o`lma-fe'l

Shakldosh so'zlardan badiiy adabiyotda ham keng foydalaniladi. Lirikaning tuyuq janri shakldosh so'zlar orqali hosil bo'ladi. Masalan,

Yoshliging g'animat, bolam, o'sib, un,

Chiqarma behuda sado hamda un.

Ko'r, quyosh tig'ida va tegirmonda

Ezilib, so'ng aziz bo'ldi bug'doy-un.

Ushbu tuyuqda un so'zlari o'zaro shakldosh so'zlar bo'ib, Birinchi misrada "o'smoq, ulg'aymoq" ma'nosida, ikkinchi misrada "ovoz, shovqin" ma'nosida, to'rtinchi misrada esa "xamir tayyorlanadigan un" ma'nosida ishlatilayapti. Tuyuqda shakldosh so'zlarni qo'llash mumtoz adabiyotda tajnis san'ati deyiladi. Ammo tajnisni har doim ham shakldosh so'zlar deb hisoblamaslik kerak. Chunki mumtoz adabiyotimizdagi ba'zi tuyuqlarda talaffuzi bir xil, yozilishi biroz farlanadigan so'zlardan ham foydalaniladi. Ayniqsa, Lutfiy ijodida bunday so'zlarni uchratamiz. Masalan,

Charxi kajraftor elidin yozamen,

Chiqmadim hijron qishidin yoza men.

Bir meni yorliq bila yod etmas ul,

Har necha ul shahg'a qulluq yozamen.

Men sening ilkingdin, ey dil, bandamen,

Vah, qachon yetkay men ul dilbanda men.

Bevafolarg'a meni qilding asir,

Sen menga sultonsen, ey dil, banda men

Xullas, o'zbek tilshunosligidagi mavzular bo'yicha o'quvchilarda bilim va ko'nikma hosil qilish uchun unga doir turli mashqlar, topshiriqlar bajarish tavfsiya etiladi. Tilni o'qitishda uchraydigan ba'zi muammolarni bartaraf etish uchun dars jarayonidagi faoliyatini maqsadli tarzda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Xususan, yuqorida ko'rib o'tilgan ikkita mavzuni qiyosiy- tahliliy jihatdan o'rganish ularning farqli jihatlarini ajratib beradi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek tilidagi barcha qatlamlarni o'rganish millatning milliy va ma'naviy me'rosini anglash va dunyo tillari qatorida o'zbek tilining ham o'ziga xos mavqeyini ko'rsatib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M. Mukarramov. O'zbek tilida o'xshatish. -Toshkent :Fan, 1976.
2. Shoabdurahmonov Sh, M Asqarova va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1980, 105-111-bet.
3. Aristotel. Poetika. Labirint, 2000. 170-bet.
4. Hojiyev A. O'zbek tili grammatikasi. Toshkent:Fan, 1975.



5. N. Mahmudov, A. Nurmonov va boshqalar. Ona tili, 5-sinf. Toshkent:Ma'naviyat, 2015.

УДК 801.8

НЕОБХОДИМОСТЬ ИЗУЧЕНИЯ ЯЗЫКА

Сим Марина Вячеславовна

Нам Надежда Вячеславовна

Учителя английского языка 6-й общеобразовательной школы города Гулистан
Сырдарьинской области

Косматенко Вероника Викторовна

Учитель русского языка и литературы в 6-й общеобразовательной школе города Гулистан
Сырдарьинской области, Узбекистан

***Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы обучения иностранным языкам подрастающего поколения в эпоху комплексного инновационного глобального развития, отдельные аспекты обучения в западном и восточном мире в этом процессе на примерах.*

***Ключевые слова:** западный мир, восточный мир, «Новый джентльмен», практический опыт, бизнес, собственник, западный и восточный менталитет, интеллект, здоровое наблюдение, ноосферный период, позитивный характер, «акмешахс», интенсивный, творческий, расширенная информация и медиа - технологии и др.*

Основным фактором в достижении сегодняшней цивилизации западного мира является пробуждение и появление новой эры, главная проблема заключается в том, что все работали вместе в образовательном процессе с целью воспитания личности новой эры. Этот аспект связан с теорией Дж. Локка, основателя теории нового джентльмена в Англии, молодого джентльмена - практичного, деловитого, осторожного и, что самое главное, способного сочетать свои новые качества с традициями прошлого.

Такие моральные качества, которые должны присутствовать в каждом человеке, также были приняты во Франции и адаптированы к их менталитету - чтобы создать французский образ высоких моральных качеств, добродетелей, ума, здоровой наблюдательности, воспитанной в духе доброты. Конечно, западный и восточный менталитет нельзя сравнивать друг с другом, потому что в западном мире преобладает индивидуализм, а в восточном - коллективный. Поскольку жители Запада предпочитают выражать свое личное «Я», чем мнение других, регулярная работа над собой, интерес к культуре других народов, желание изучать иностранные языки носят более позитивный характер.

То есть без преувеличения можно сказать, что древнеримский философ Сенека, по его словам - великолепие некоторых работ определяется не их масштабом, а их своевременностью, - похоже, заложил эту идею.

Сегодняшняя ноосферная цивилизация создает такую динамичную и глобально интегрированную инновационную среду, что в результате важность изучения языка и



культуры других народов становится как никогда важной. Ни одно государство не может развиваться отдельно без сотрудничества с другими государствами. Чтобы установить экономические, политические, дипломатические, культурные, просветительские отношения с другими странами, необходимо выучить язык этого народа.

В последние годы общеобразовательные школы Узбекистана обеспечены учебниками в соответствии с новыми государственными образовательными стандартами и учебными программами в этой области для изучения русского и иностранных языков (немецкого, французского, английского). При этом для каждого класса разработаны современные учебники, а учащимся и учителям предоставляется достаточное количество учебников.

В целях повышения эффективности обучения русскому и иностранному языкам общеобразовательные школы получили все необходимое оборудование и инвентарь. Основная цель - воспитание зрелых кадров, «акмешахсов», способных полностью соответствовать мировым стандартам и конкурировать с зарубежными специалистами во всех областях.

Чтобы знать культуру и духовность нации, нужно знать язык этого народа, сохраняя его чистоту. Как сказал великий мыслитель Алишер Навои: «Хочешь язык - обращай внимание на ветер». В свою очередь, народ и нация должны знать язык других народов, чтобы представить свою культуру, духовные и просветительские взгляды своих мудрецов мировому сообществу.

Мы должны в полной мере добиться эффективности от внедрения современных «интенсивных», «творческих» подходов к обучению иностранным языкам подрастающего поколения. Для этого необходимо в учебном процессе заниматься с детьми индивидуально, учитывая конкретные психологические и эмоциональные аспекты каждого.

Как отметил глава нашего государства, необходимо совершенствовать школьные программы на основе передового зарубежного опыта, ... привести их в соответствие с международными стандартами, ... повысить качество литературы, для чего мы должны знать иностранные языки и обучать им будущие поколения. В настоящее время действующая система организации изучения иностранных языков в жизни нашего общества не в полной мере отвечает требованиям времени, в частности, использованию передовых информационных и мультимедийных технологий.

Для того, чтобы рационально и справедливо использовать современную науку, знакомить мир с научным и духовным наследием мыслителей прошлого, изучать научное наследие мировых ученых на их родном языке, необходимо изучать иностранные языки.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Мирзиёев Ш.М. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису.-Т.: НМИУ «Узбекистан», 2020.
2. Великие здравого смысла: Человек эпохи Просвещения: Кн.для учителя // Сост. S.Ya.Karts. - М.: «Просвещение», 1992.
3. Куронов М. Если хочешь, чтобы мой ребенок был счастлив. - Т.: «Духовность», 2013.



УДК 82-1

КЛАССИК ҒАЗАЛ ТАРЖИМАЛАРИГА ЛИНГВИСТИК ТАҲЛИЛ ВА СИНТАКТИК-СЕМАНТИК ЁНДАШУВ

Зарипова Феруза

Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети
 Тошкент шаҳри, Ўзбекистон

Аннотация Ушбу мақолада бадиий таржима йўналишида ижод қилаётган истеъдодли таржимон Қ.Б. Маъмуров томонидан адиб Алишер Навоийнинг баъзи ғазалларини бадиий-эстетик, ҳам лингво-типологик нуқтаи назардан асл матнга қанчалик даражада яқин эканлигини аниқлаш учун лингвистик таҳлил ва синтактик-семантик ёндашув асосида ғазалнинг асл ва таржима матнини таҳлил қиламиз.

Калим сўзлар: Бадиийлик, таржима, лингвистик таҳлил, синтактик-семантик ёндашув, услубият, лингво-типологик, қолип, вариантлик, таржима матни, муқобиллик

Бугунги кунда Ўзбекистонда мамлакат стратегик ривожининг бош омиллари белгиланар экан, «Мана шу стратегияга мувофиқ, барча соҳа ва тармоқлар қатори маданият ва санъат, адабиёт, оммавий ахборот воситалари равнақини янги босқичга кўтаришни биз ўз олдимизга мақсад қилиб қўйганмиз. Аввало халқимизнинг яратувчилик даҳоси билан бунёд этилган ноёб меросини ҳар томонлама чуқур ўрганиш, юртимиздан етишиб чиққан буюк аллома ва мутафаккирларнинг ҳаёти ва илмий-ижодий фаолияти ҳақида яхлит тасаввур уйғотиш, ёш авлодни гуманистик ғоялар, миллий ғурур ва ифтихор руҳида тарбиялашдек эзгу мақсадлар кўзда тутилган». Шунга кўра, Она тилимизнинг чет тилларга таржима қилиш имкониятларини тизимли равишда ўрганиш ва очиқ бериш учун уни чет тиллар билан қиёсий-типологик ва таржимашунослик нуқтаи назаридан тадқиқ қилиш ҳам мумтоз, ҳам бугунги миллий замонавий адабиётимиз намуналарини жаҳон тилларига, шу жумладан инглиз тилига таржима қилишнинг долзарб муаммоларидан бири ҳисобланади. Бу эса бизнинг тадқиқотимизнинг **қанчалик ўта долзарб** эканлигидан далолат беради.

Биз мазкур мақолада бадиий таржима соҳасидаги етакчи ва истеъдодли таржимон Қ. Маъмуров томонидан инглиз тилидаги таржималарини таҳлил қилиб, улар ҳам бадиий-эстетик, ҳам лингво-типологик нуқтаи назардан аслиятга қай даражада яқин эканлигини аниқлаш учун лингвистик таҳлил ва синтактик-семантик ёндашув асосида ғазалнинг асл ва таржима матнини таҳлил қиламиз.

Мисол сифатида А.Навоий қаламига мансуб “**Ғаройиб ус-сиғар**” асарининг 352 ғазалидан бир парчани таҳлил қиламиз. Мазкур ғазал 14 байтдан, иборат бўлиб, унинг қофияланиш: а-а, б-а, в-а, г-а, д-а, й-а, ё-а шаклида берилган, масалан., биринчи байти:

Ҳар кунгил ороми чун бўлмиш дилоромим менинг,

Ул сабабдин йўқтурур кўнглумда оромим менинг.

Мазкур байтнинг биринчи қатори 37 та фонемадан иборат бўлган, 20 та бўғиндан ташкил топган 6 та сўздан иборат бўлса, иккинчи мисраси, 38 фонемадан иборат бўлган 18 бўғиндан ташкил топган 6 та сўздан иборат. Биринчи мисрадаги гап икки составли ёйиқ гапдан иборат бўлиб, унинг таркиби 6 та гап бўлагидан иборат. Унинг кесими “чун бўлмиш” феълли ибора билан ифодаланган. Иккинчи мисрадаги гап ҳам икки составли ёйиқ гапдан иборат бўлиб, унинг таркиби ҳам 6 та гап бўлагидан иборат. Иккинчи гапнинг кесими “йўқтурур” феъли билан билан ифодаланган.

Таниқли арузшунос олима, филология фанлари доктори Д.Юсупованинг насрий баёнида ғазалнинг биринчи мисрасида (1) “Менинг дилоромим ҳар қандай кўнгилга ором бағишлайди, (2)шу сабабдан менинг дилимдан ором кетган” деб изоҳлайди. Келтирилган



насрий баёнга асосланиб, таржимон Қ. Маъмуров ғазалнинг биринчи байтини қуйидагича таржима қилади:

*For each soul my beloved provides pleasure,
 For this reason, I've lost my soul's true leisure.*

Мазкур келтирилган парчада **қўнғил ором**и **чун бўлмиш** яъни севгилиси ёнида бўлса қўнғили яйрайди (хурсанд бўлади) деган маънони беради. Бу ерда ўзбек тилида **чун бўлмок** яъни **хурсанд бўмок**, **мамнун бўлмок**, **бахтли бўлмок**, **қувонмоқ** сингари феъллар синонимик эквивалент сифатида турли маъноларга эга. Бу ерда гапнинг предикация таркибида **“бўлмиш”** маъносини бериш учун инглиз тилидаги **“to provide”** феълнинг ҳозирги замон шакли ёрдамида инглиз тилида ифодалашда ўз аксини топган. Амалга оширилган таржимадан кўриниб турибдики, асл матнда кесим ўрнида фаоллашган процессуал актив синтаксема “чун бўлмиш” феълли бирикма ёрдамида ифодаланган бўлиб, уни таржимасида provides феъллини лингвистик-типология ва услубий хусусиятларини сақлаган ҳолда таржимада маънони ўзгаришига йўл қўйилмаган. Шунда, ўзбек тилида **“чун бўлмиш”** иборасини инглиз тилига **“provides pleasure”** яъни **хурсандчилик**, **бахт лаззатини** (эмфатик ҳолатни) тақдим этиш маъносидан аслиятга мос тарзда таржима амалга оширилган.

*For each soul my beloved provides pleasure,
 For this reason, I've lost my soul's true leisure.*

Таржимада, мазкур байтнинг биринчи мисраси, 25 фонемадан иборат бўлган 12 та бўғиндан ташкил топган 7 та сўздан иборат бўлса, иккинчи мисраси, 25 фонемадан иборат бўлган 11 бўғиндан ташкил топган 8 та сўздан иборат. Биринчи мисрадаги гап икки составли ёйиқ гапдан иборат бўлиб, унинг таркиби 6 та гап бўлагидан иборат. Унинг кесими ҳозирги замон ноаниқ феъл шакли “provides” билан ифодаланган. Иккинчи мисрадаги гап ҳам икки составли ёйиқ гапдан иборат бўлиб, унинг таркиби 8 та гап бўлагидан иборат. Иккинчи гапнинг кесими ҳозирги замон перфект шаклидаги “‘ve lost” билан билан ифодаланган.

Энди таржима матнидаги синтактик-семантик элементарни аниқлашга киришамиз. Биринчи мисрани ташкил қилган гап таркиби эга ўрнида ишлатилган субстанционал агентив (beloved), кесим ўрнида фаоллашган процесул категориясига мансуб актив (provides), ҳамда тобе гап бўлаклари ўрнида ишлатилган субстанционал категорияга мансуб объект (pleasure) ва воситали объект (for..soul), ҳамда позессив (my) ва жамловчи (each), жами 6 та синтаксемадан иборат.

Агар юқорида келтирилган синтаксемалар мазмунини ташкил қилган синтактик-семантик унсурлар асл байт таркибидаги гап бўлаклари ўрнида келган синтаксемалар мазмунида ҳам мавжуд бўлса, демак, таржимани оригиналга яқин, ёки унга уйғун деб ҳисоблаш мумкин. Бунинг учун асл байтнинг биринчи гапи таркибидаги синтактик-семантик элементарни аниқлашга киришамиз.

Биринчи мисрани ташкил қилган гап таркиби эга ўрнида ишлатилган субстанционал агентив (дилоромим), кесим ўрнида фаоллашган процесул категорияга мансуб актив (чун бўлмиш), ҳамда тобе гап бўлаклари ўрнида ишлатилган субстанционал категорияга мансуб объект (ором) ва воситали объект (қўнғил), ҳамда позессив (менинг) ва жамловчи (ҳар), жами 6 та синтаксемадан иборат. Биринчи мисрадаги синтаксемаларнинг мазмун плани доираси ҳам асл (ўзбек) тилида, ҳам таржима (инглиз) тилида ҳам сон жиҳатдан, олтидан, ҳам синтаксемалар мазмуни жиҳатидан агентив, актив, объект, воситали объект, позессив, ва жамловчи каби синтактик-семантик унсурлар бир бирига мос келиши таржиманинг аслга ўта яқинлигини ёки асл билан уйғун эканлигига далил ҳисобланади.

Энди иккинчи мисранинг (*For this reason, I've lost my soul's true leisure*) таржима матнидаги синтактик-семантик элементарни аниқлашга киришамиз. Иккинчи мисрани



ташқил қилган гап таркиби эга ўрнида ишлатилган субстанционал агентив (I), кесим ўрнида фаоллашган процессул категориясига мансуб актив тугалланган ('ve lost), ҳамда тобе гап бўлаклари ўрнида ишлатилган субстанционал категорияга мансуб объект (leisure), позессив (my, soul's) ва квалитатив (true) ҳамда каузатив (for...reason) ва кўрсаткич (this) каби жами 7 та синтаксемадан иборат.

Агар юқорида келтирилган синтаксемалар мазмунини ташқил қилган синтактик-семаник унсурлар асл мисра таркибидаги гап бўлаклари ўрнида келган синтаксемалар мазмунида ҳам мавжуда бўлса, демак, таржимани аслга яқин, ёки унга уйғун деб ҳисоблаш мумкин. Бунинг учун асл байтнинг иккинчи гапи (*Ул сабабдин йўқтурур кўнглумда оромим менинг.*) таркибидаги синтактик-семантик элементарни аниқлашга киришамиз. Иккинчи мисрани ташқил қилган гап таркиби эга ўрнида ишлатилган субстанционал экзистенциал (оромим), кесим ўрнида фаоллашган процессул категорияга мансуб экзистенциал негатив (йўқтурур), ҳамда тобе гап бўлаклари ўрнида ишлатилган кўрсаткич (ул), позессив (менинг) ҳамда каузатив (сабабдин), жами 6 та синтаксемадан иборат. Иккинчи асл гапда 6 та синтаксеманинг мавжудлиги аниқланди. Таржима матнида эса битта янги квалитатив (true) синтаксема таржимон тамонидан маънони кучайтириш учун киритилганлиги аниқланди. Шунинг учун ҳам таржима матнида синтаксемалар миқдори биттага ортик.

Таржимон Қ. Маъмуров томонидан қилинган кўплаб таржималарни худда мана шу юқорида келтирилган синтактик-семантик таҳлилга тортиш билан уларнинг аслга қанчалик яқин ёки асл билан уйғун эканлигини аниқлаш ва бу лингвистик методологиядан келажакдаги таржималарни янада такомиллаштириш учун кенг фойдаланиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги “Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир” нутқи//<http://uza.uz/oz/politics/adabyet-va-sanat-madaniyatni-rivozhlantirish-khal-imiz-mana-03-08-2017>.
2. Юсупова Д. Алишер Навоидан сабоқлар // Жаҳон Адабиёти. Тошкент, 2019. - № 7. – Б.3 – 4.
3. Маъмуров Қ. 352- ғазал таржимаси // Жаҳон Адабиёти. Тошкент, 2019. - № 7. – Б. 4.



УДК 801.8

БОҒЛАНИШЛИ МАТН ТУЗИШ ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИЛАР НУТҚИНИ ЎСТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Олимжон Ешимбетов

Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти асисстенти
 Қорақалпоғистон, Ўзбекистон

Аннотация Мазкур мақолада бошлангич синф ўқувчиларининг қорақалпоқ гуруҳларида ўқитиладиган ўзбек тили фанининг бола нутқини ўстиришига қаратилган боғланишли матн тузишининг илмий-назарий асослари ҳақида сўз юритилади. Унда матн тузиш негизида тўғри талаффуз қилиш, чиройли ва равон ёзиш, тушунчасини аниқ етказа олишига қаратилган тавсиявий характердаги мулоҳазалар, эсприментлар хусусида мулоҳаза берилган.

Таянч атама: матн, нутқ, когнитив, вербал, онг, тафаккур, тасаввур, идрок, эстетик завқ, тушунча.

Таълим тизимининг ривожлантирилиб, такомиллаштириб бориши учун она тили (ўзбек тили) фанидан ўқувчиларга турли хил матн тузиш қорқали ҳам уларни миллий маънавиятимизнинг бой хазинаси билан яқиндан таништириш имконини беради. Айниқса, таълим қорақалпоқ гуруҳларида ўтиладиган ўзбек тили фани ҳам ўз олдида ана шундай долзарб вазифаларни кўндаланг қўйганлиги билан муҳим аҳамият касб этади.

Шунинг учун ҳам таълим берувчи матн яратиш технологиясини жиддий ўзлаштириш лозим. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги тасдиқланган 3 синф учун яратилган “Ўзбек тили” дарслигида ўқувчиларга нутқ ўстиришнинг ўзига хос қирраларини намоён қилган турли машқ, ўйин, топшириқлар мантиқий изчилликда берилган. Матнни хоҳлаган шаклда, хоҳлаган мавзуга мос ва хос равишда яратиш мумкин. Шу маънода, матннинг илмий-назарий, методик асосларини ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқдир. Масалан, кўрсатилган дарсликнинг 19 саҳифасидаги 3 машқ ҳамда 3 топшириқни кўриш мумкин. Берилган машқда: “Синфингиздаги нарсалар номини қуйидаги жадвалга мувофиқ жойлаштиринг” мазмунида келтирилади.

Ўқув қуроллари	Мебеллар	Техника жиҳазлари
Дафтар	Парта	Компьютер
Ручка	Стол	Проектор

Бу руйхатни ўқувчилар ўзлари хоҳлаганча тўлдириб, ёзишлари мумкин. Мазкур топилган сўзлардан ўқувчилар ўзларининг тушунча ва имкониятларидан келиб чиққан ҳолда матн тузадилар. Берилган машқнинг топшириқ шаклида “Синфда” номли матн тузиш ҳам уйга вазифа сифатида кўрсатилган. Яъни – **унда, да** кўшимчаларидан унумли фойдаланиб, “боғланишли матн” тузиш кўрсатилган. Бу ўқувчига нутқ ўстириш малакасини шакллантиришга хизмат қилиш баробарида, тўғри талаффуз қилиш кўникмасини ҳам юзага чиқаради. Яъни ўқувчи тасаввур, қайта такрорлаш, эслаш, мулоҳаза юритиш орқали “Синфда” нима мавжуд, нима мавжуд эмас деган интилиш билан ўзининг маҳоратини, зеҳниятини текшириб кўришига кенг йўл очиб боради. Таниқли методист Т.Зиёдова қайд этишича: “Нутқ тилнинг ифода воситаларидан фойдаланган ҳолда воқеликка айланган фикридир. У нутқ аъзоларининг онгли ҳаракати жараёнида пайдо бўлади. Рухий ҳодиса бўлган тилнинг ифода воситалари нутқ ихтиёрига ўтгач, ҳақиқатга айланади. Демак, нутқнинг вазифаси онг, хотира ва тафаккурнинг



уйғунликдаги фаолияти маҳсулини барча учун тушунарли, адабий, меъерий шаклга киритиш, уни моддийлаштириш, (ахборотга айлантиришдан) ва тингловчига етказишдан иборат”¹. Дарҳақиқат, ўқитувчи олдида жуда катта масъулиятли вазифа турганлигини ҳам англатади. Матн яратиш ўз-ўзидан бўлмайди. У маълум ижтимоий-психологик контакт натижасида юзага келади. Айниқса, матн яратишда ўқувчи ёши, синф дунёқараши ҳам муҳим аҳамият касб этади.

Матн яратишда илк асос – **онглилик**– ўқув материали ва ўқувчи шахсининг ўзаро яхлитлиги, яъни ёши, руҳияти синтезига эътибор қаратилади.

Матн яратишда иккинчи асос – **вербаллик** тизимида ўқувчи-ўқитувчи орасида кечадиган мулоқот фаолиятида, ўқувчининг фаоллиги, интилиши, қизиқиши каби хусусиятлар муҳим омиллардан бири саналади. Яъни ўқувчи ва ўқитувчи синфдаги мавжуд имкониятлар негизида бирор матн тузиш режасини тузиб чиқади. Бу ўринда қизиқиш ва хоҳиш ҳам эътиборга олинishi зарур.

Учинчиси – **когнитивлик** эгаллаган билим ва кўникмалар, малакалардан унумли фойдаланган ҳолда матн яратиш, бу жараён ўқувчининг кашфиётига кенг йўл очади ҳамда эркин фикрлаш қобилиятини шакллантиришга имкон беради.

Булар ўқувчига эркин, ўз фикрини мустақил баён қилиш тизимини шакллантириш билан бир қаторда, нутқ ва тафаккур тушунчасига жуда катта ижобий таъсир кўрсатади. Айниқса, боланинг боғланишли нутқи тўғри тизим орқали шакллантирилмас экан, ўқувчининг мавжуд билимлардан ўрни-ўрнида фойдаланиш имкониятини чеклаб қўяди.

Нутқий – амалий кўникмаларнинг боғлашдаги энг муҳим хулосавий халқаси ўқувчида мустақил фикрлаш, матн яратиш кўникалари тизими устида жиддий ишлаш, тафаккур қилиш дастурини барқарорлаштириш учун муҳим атрибут вазифасини ўтайди. Шунингдек, ўқувчи эгаллаши лозим бўлган кўникмаларнинг натижадорлигига хизмат қилади.

Масалан, қорақалпоқ гуруҳларида ўзбек тили дарсликларида боғланишли нутқни ўстиришга қаратилган жуда кўплаб мисоллар, машқлар, топшириқлар берилган. Келтирилган дарсликнинг қарийб 90% нутқни чиройли ва равон, бежирим етказиш, тўғри талаффуз қилишга одатланиш, муҳим сўзларни такрорлаш орқали билиб олиш, чиройли ёзиш кўникмаларини ривожлантириш учун мантиқий изчилликда ёритилган. Унда луғат ва топишмоқ, матал ва мақол, шеър ва диалоглар ўқувчиларни фаоллигини, зехниятини камол топтириш учун мўлжаллаб келтирилган. Масалан, г ва ғ товушларини тўғри талаффуз қилинг сингари машқни олиб кўрайлик:

- *гала, илгак, гилам, барг, гугурт, тугма, гулзор, кузги;*
- *гунча, мағзи, галтак, пўстлоғи, гоз, тўграмоқ, гишт, сигмоқ.*

Мазкур мисоллар тўғри талаффуз қилишга йўналтирилган бўлиб, нутқий кўникмаларни ривожлантиришга ҳисса бўлиб қўшилади. Келтирилган сўзлар иштирокида матн яратиш топширилса ўқувчилар намуна асосида 5-6 гап тузиб, уни ифодали қилиб талаффуз қилишга даъват қилиш мумкин. Масалан, намунада: **Осмонда бир гала қалдирғоч учиб юрибди.**

Демак, матн тузиш мобайнида ҳам ўқувчи сўз ўрганади, ҳам нутқий малакасини чархлайди, ҳам зехниятини юксалтиради, ҳам ўзига хос билим ва кўникмаларни эгаллайди. “Мустақил яратилган бадий матн – ўқувчининг имло саводхонлиги, ижодий тафаккури, сўз бойлиги, нутқий салоҳиятини намойиш этувчи кўзгу, акс садо. Чунки ўқувчининг она тили таълими жараёнида эгаллаган билим, кўникма ва малакалари уларнинг амалий татбиқи – ўқувчининг ўзи мустақил яратган матнидагина ўз ифодасини

¹Зиёдова Т. Матн яратиш технологияси. –Т.: ЎзФА “Фан” нашриёти. 2007. –Б. 9.



топади”². Зеро, ўқувчи ўзининг суҳбатдоши фикрини ҳам қабул қилиши, ўз эҳтиёжини амалга оширишнинг энг бирламчли омилларидан бири саналади. Натижада ўқувчи мустақил билим ва кўникмани ўзлаштиради. Сўз ва унинг ифодалаётган маъносини, моҳиятини жиддий англашга кенг йўл очади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Зиёдова Т. Матн яратиш технологияси. –Т.: ЎзФА “Фан” нашриёти. 2007. –Б. 24.
2. Рафиев А., Муҳаммаджонова Г., Зиямуҳаммедова Г. Ўзбек тили. 3 синфлар учун дарслик. –Т.: “Ўзбекистон”. 2016. –Б.149.

УДК 82-1

Маноқиб-ҳолот адабий жанр сифатида

Машҳура Раҳмонова

Шаҳрихон тумани 64-умумий ўрта таълим мактаб ўзбек тили фани ўқитувчиси
 Андижон, Ўзбекистон

***Аннотация:** Мақолада маноқиб-ҳолотларнинг адабий жанр сифатида мумтоз манбалардаги мазмун-моҳияти ҳақида сўз юритилади. Уларнинг келиб чиқиши, этимологик илдизлари урганилади. Тазкиралар таркибидаги ихчам ва содда берилган маноқиблардан мисоллар келтирилади.*

***Калим сўзлар:** маноқиблар, холот, тазкира, сифатлар, фазилатлар, зикр, рухият, муножотлар, кечинмалар.*

Мумтоз адабий манбаларда тез-тез учрайдиган маноқиб атамаси мазмуни ва асл моҳиятини холис изоҳлаб, далиллаш масаласида назарий етишмовчилик сезилади.

Маноқиб (арабча яхши сифат, гўзал хислат сўзидан олинган) бирон кишига яхши сифат ва хислатлар, мақтовлар билан унинг мартабасини улуғлаб ёзилган рисола ва номалардир.

Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, маноқибларнинг келиб чиқиши ва этимологик илдизлари жуда қадим замонларга бориб тақалади. Миллий ва умуминсоний қадрият даражасига кўтарилган комил ва фозил олим, шоир, ҳукмдор каби тарихий шахсларни махсус таҳаллус ёки унвон маноқиблари билан эъзозлаш жуда қадим замонларданок одат тусига кирган. Маноқибларга хос хусусиятлар тазкираларда ҳам акс этган. Тазкираларда маноқиблар мумкин қадар ихчам, қисқа, аниқ ва лўнда ёритилади. Тазкиранинг бу хусусияти Абу Мансур ас-Саолибийнинг (961-1068 йиллар) “Йатимат ад-дахр” (“Замонасининг ягона дурдрнаси”) тазкираси мисолида кўра бўлади. Тазкирада Х асрда яшаган 47 та бухоролик шоир ҳақида қисқача маълумот ва шеърларидан айрим намуналар келтирилган. Навоийга қадар яратилган адабий манбаларда маноқиблар жанр

²Зиёдова Т. Матн яратиш технологияси. –Т.: ЎзФА “Фан” нашриёти. 2007. –Б. 24.



сифатида учрамаса ҳам, қатор асарларда инсон шахсининг айрим сифат ва хусусиятлари улуғланган ўринлар талайгина. Ана шу жиҳатлар тазкираларда, тарихий асарларда, насабномаларда учрайди. Улар маноқибнинг жанр сифатида шаклланишига ўз таъсирини кўрсатган.

Демак, адабий маноқиблар мадҳиялар, тазкиралар, киссалар, мақомотлар, тарихий асарлар, марсиялар таркибида ҳам учрайди.

Буларнинг ҳар бири ўзига хос хусусиятга эга. **Маноқиб-мадҳия**да муаллиф қаҳрамоннинг яхши сифат, гўзал хислат, эзгу фазилат, чиройли хосият, ибратли хусусиятларини мадҳ этади. Тантанаворлик, кўтаринки кайфият, шодлик, фахр-ифтихор туйғуларига йўғрилганлик, нисбатан баландпарвоз оҳанг ва шу кабилар бундай маноқибларга мос хусусиятлардир.

Навоийнинг Абдурахмон Жомий, Саййид Ҳасан Ардашер вафоти муносабати билан ёзган марсиялари бу жиҳатдан диққатга сазовордир.

Маноқиб-тазкира анъанавий таомилга биноан маноқиб-мақолалардан тузилади. Гарчи барча тазкираларга мос келадиган тақий (парадигма), андоза (формула), қолип топиш мушкул бўлса-да, барча тазкиралар учун муайян даражада умумий хусусиятлар мавжуд. Бу борада Мақсуд Шайхзода (1908-1967йиллар) “тазкирачилик тарихидан” рисоласида қуйидаги назарий хулосаларни келтирган: “Тазкирачи муаллифлар ўз асарларини турли белгилар ва қоидаларга риоя қилган ҳолда тузганлар. Мавжуд тазкираларда одатан маълум бир даврнинг ва маълум бир мамлакатнинг (кўпинча қатор ҳамсоя мамлакатларнинг) шоирлари ёки муайян тоифалари ҳақида гап боради. Ёзувчилар, одатда, бир белги остида туркумлашади. Сўнгра булардан ҳар бири борасида алоҳида маълумот берилади. Бу маълумотлардан ҳар бирини мақола ёки мақолача, тўғрироғи, фикра деса бўлади. Булардан бир хили уч-тўрт жумладан иборат кичкина хабарга ўхшаса, бошқа бир хиллари дурустгина муфассал тақриз ёки танқидий мақолани эслатади”.

Мақсуд Шайхзоданинг бу мушоҳадалари тазкира тузилиши тамойиллари ҳақида мухтасар тасаввур ва тушунча беради. Тазкираларда тадқиқотчи тақдим этаётган андоза қаламга олинаётган қаҳрамонларга хос сифатлар, ижодининг айрим хусусиятлари акс этган. Мана шу жиҳат тазкира билан маноқиб жанрини бирлаштириувчи омил ҳисобланади.

Мавлоно адиб “Насойим ул-муҳаббат” тазкирасидан еттинчи бўлиб муносиб жой олган Абдуллоҳ Муборак зикрида битган ёдномасида ёзади: “Анинг маноқибни зикри тилаган киши Ҳазрат Шайх Фаридиддин Аттор қуддасасоллоҳу сиррахунинг “Тазкират ул-авлиё”сида таласунки, вофий (етарли даражада вафо этувчи) битилибдур”.

Тазкира-маноқибларнинг мажмуаси, яъни у муайян зикрлардан иборат қилиб тузилади. Зикр эшлаш, эслатиш, тилга олиш, ёдномма демақдир. Бу тазкирага хос биринчи умумий хусусиятдир. Иккинчи хусусият шундан иборатки, ҳар қандай мажмуа-маноқиб ўзигагина хос белги ва хусусиятлар билан ажралиб турувчи тоифа зикрида берилади. Ана шунинг учун ҳам дебоча-муқаддимада у ёки бу тоифанинг умумий таърифу тавсифи умумлашган тарзда ифодаланади. Учинчидан, унвонга алоҳида диққат-эътибор қаратилади. Тўртинчидан, касб-кор, ҳунар албатта қайд этилади. Тазкирага хос бешинчи хусусият шундан иборатки маноқибларни таржимаи ҳол, арзи ҳол, руҳий ҳолат, ижтимоий аҳвол, иқтисодий аҳвол, маънавий аҳвол, маъруфий аҳвол (даража), номаи аҳвол, шарҳи ҳолсиз тасаввур этиш мумкин эмас.

Маноқибнавис ўзи тўплаган ушбу далилий материаллар асосида ижод этади. Қайси асос, маълумот ёки далилни танлаб олиш унинг ўз ихтиёрида. Қандай муносабатда бўлиб, қандай услубда, қай тарзда, қанчалик маҳорат билан ёритиши ҳам маноқибнависнинг ўзига боғлиқ.

Маноқибшунослар назарий кузатувларига таянганлари сабабли шуни яхши биладиларки, ортиқча чўзилиб кетган маноқиб фазлу фазилат ҳисобланмайди. Даҳо



сўз санъаткори Алишер Навоий яратган маноқиблар инсоният заковатининг энг қадрли, ҳикматли дурдонасидир. Улар миллат ва жаҳон маънавий-маърифий ҳазиналарини бойитган дуру гавҳардир. “Мажолис ун-нафоис” тазкираси XV аср Шарқ адабий муҳити ҳақида бой таассурот беради.

Навоийнинг 1491 йили тузган “Мажолис ун-нафоис” тазкираси ўзбек адабиётининг дурдона асарларидан биридир. Унда 459 та шоирнинг дилрабо ва дилкушо шеърий анжуманлари ёритилганлиги учун ҳам тазкира “Нафис мажлислар” деб номланган. Тазкиранинг муқаддима қисмида шеър санъатларига катта баҳо берилади: “...араб фусаҳоси балоғат зеварлари била намойишлик ва фасохат гуҳарлари била оройишлик назм раъноларига жилва берурлар эрди ва даъво куси овозасин фалакка еткурурлар эрди. Ҳазрати малики алломнинг каломи мўъжиз низоми Жаброили хўжаста фаржом воситаси била хайр-ул аном алайҳиссалавату вассалламга нозил бўлди. Бас, назм илми қойиллари ва шеър фани комиллариким дақойиқ дурри покининг баҳри уммони ва маоний лаъли оташнокининг кони бўла олгайлар, бас, шараф хайл ва азиз қавм бўлгайлар”(3). Иқтибосда Аллоҳ Таоло каломи- Куръони карим фаришта Жаброил алайҳиссалом орқали Муҳаммад пайғамбаримизга етказилганлиги ҳикоя қилинган. Бунга араб шоирларининг шеърий нола –муножотлари муболағали равишда то арши аълогача етиши сабабларидан бири сифатида тасвирланган. “Назм илми қойиллари ва шеър фани комиллари” (етук санъаткор нозим-шоирлар) нафосат, гўзаллик гавҳарларининг денгизи, латофат, эзгулик гавҳарларининг кони ҳамда шарафли ва азиз қавм бўла олишлари тараннум этилган. Шундан келиб чиққан ҳолда шоирларнинг исм-шарифлари, саховатли, гўзал сифатлари шарафларга муносиб эканлиги васф этилганю мавлоно Ҳожа Қосим Анвордан то Лутфийгача, Мир Маҳдумдан то Атойгача, Вафойи Ҳоразмийдан то Ҳусайн Бойқарогача аҳли назм соҳоби истеъдодлари абадийлаштирилган.

Маноқиблар тиизимида “Тарихи анбиё ва ҳукамо” рисоласи марказий аҳамиятга эга. Бунда анбиё-набийлар, расуллар, пайғамбарлар, ҳукамо –эса луғавий маъносига кўра ҳокимлар, ҳукм этувчилар маъносида қўлланилган. “Тарихи анбиё ва ҳукамо” асари билан Навоий юксак маърифат ва қадрият майдонига чиқди. У тўрт муқаддас китоб: “Таврот”, “Забур”, “Инжил”, “Куръони карим” ақидаларидан, ўз давригача ёзилган кўплаб “Тарихи набавий”, “Қиссас ул-анбиё”, “Каъбул ахбор” асарларидан мукамал ва муфассал билимдон эканлигини кўрсатди. Навоий “Тарихи анбиё ва .(с.а.в)гача, Луқмони ҳакимдан Бузгугмеҳргача, “Тарихи мулуки аҷам”да Искандар Зулқарнайндан бошлаб барча эроний шоҳлар тарихигача берган. Тасаввуф фалсафаси ва сўфийлик намоёндалари ёритилган “Насойим ул-муҳаббат мин шамойим ул-футувват” ҳам бу асарга маънодошдир, мавзуий жиҳатдан “Тарихи анбиё ва ҳукамо” билан “Тарихи мулуки аҷам” ўртасида боғловчи, тўлдирувчи асар вазифасини ўтайди.

Ҳолот адабий турини маноқибнинг айнан ўзи, деб фараз қилиш мумкин. Ҳолотнинг луғавий маъноси –ҳол сўзининг кўплиги. Ҳол сўзи қуйидагича изоҳланади: ҳол-бир он, бир макон ва замондаги кайфият, шу пайтдаги жисмоний-руҳий ички ва ташқи кечинмалар, ҳис-туйғу сезгилари, ўй-хаёл, орзу-интилишлар мажмуи. Лаҳза сайин у аҳвол сари такомиллашиб боради. А диб ҳаётидаги ижтимоий-сиёсий, маданий-маиший ҳол-аҳволнинг тасвирланиши ҳасби-ҳол атамаси билан ифодаланади. Агар дард-армон, оғриқ-изтироб, мақсад-муддаолар қаламга олинса, арзи ҳолга айланади.

Навоийнинг маънавий-маърифий ҳазинасидаги “Ҳамсат ул-мутаҳаййирин”, “Ҳолоти Саййид Ҳасан Ардашер, “Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад” адабий-илмий, таржимаи ҳол жанридаги асарлари маноқибнинг шоҳона дурдоналари ҳисобланади. Уларнинг ҳар бири алоҳида йирик мавзудир.

Фойдаланилган адабиётлар

1.М.Шайхзода. Асарлар. 4-жилд. Т.,1996, 83-84б.



2. А. Навоий. Насойим ул-муҳаббат. МАТ. 17-жилд. Т.: Фан, 2001. 15-б.

3. А. Навоий. Мажолис ун-нафоис. МАТ. 13-жилд. Т.: Фан, 1997. 7-б.

UDK: 801.8

PASHTU TILIDA NOTO‘LIQ REDUPLIKATSIYANING TURLARI

Abduvaliyeva O‘g‘iljon Shuxrat qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Eron-afg‘on filologiyasi”
 kafedrası tadqiqotchisi

Ilmiy rahbar: **Rahmon Inomxojayev**

“Eron-afg‘on filologiyasi” kafedrası professori, fil.f.d.
 Toshkent, O‘zbekiston

***Annotatsiya.** Maqolada pashtu tilida noto‘liq reduplikatsiyaning turlari masalasi konkret shaklda belgilangan, mavzu asl manbalardan olingan misollar asosida o‘rganilib chiqilgan hamda hozirgi zamon pashtu tilida noto‘liq reduplikatsiyalar aniqlanib, ularning turlari, tuzilishi, mezonlari hamda ma‘nolari ochib berilgan.*

***Tayanch so‘zlar:** kopulyativ qo‘shma so‘z, reduplikatsiya, noto‘liq reduplikatsiya, exo-konstruksiya reduplikatsiya, alliteratsiya, ichki fleksiya, komponent, taqlidiy so‘z.*

Reduplikatsiya fonomorfologik hodisa bo‘lib, uning “noto‘liq” (so‘zning faqat bir bo‘g‘ini takrorlanadi) va “to‘liq” (so‘zning butun negizi takrorlanadi) ko‘rinishlari mavjud¹³. Noto‘liq reduplikatsiya - takrorning shunday turiki undagi komponentlardan biri mustaqil holda ishlatilmaydi, balki faqat faqat ma‘noga umumiylik tusini bag‘ishlaydi. Noto‘liq reduplikatsiyalar asosan og‘zaki nutqda keng qo‘llaniladi. So‘zlashuv nutqida ko‘p ishlatilgan prozava dramatik asarlarda bu turdagi leksikaning qo‘llanishi ulardagi tabiiylik va jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Rus olimasi Z.M. Kalininaning tadqiqotida pashtu tilidagi noto‘liq reduplikatsiyalar ikki guruhga bo‘lib o‘rganilgan¹⁴: 1) noto‘liq reduplikatsiyadagi birinchi komponent (ot yoki sifat) muayyan bir ma‘noni anglatadi va tilda mustaqil qo‘llana oladi, ikkinchi komponent esa birinchi komponentga nisbatan fonetik o‘zgargan variant bo‘lib, mustaqil leksik ma‘no anglatmaydi. Shu sababli bu takror hodisasi “ritmik-qofiyali yoki exo-konstruksiya reduplikatsiya deb ham ataladi; 2) noto‘liq reduplikatsiyaning ikkinchi guruhida esa alohida qo‘llana olmaydigan va mustaqil ma‘noga ega bo‘lmagan komponentlar qatnashadi, ikkinchi komponent xuddi birinchi guruhga o‘xshab birinchi komponentga mos ravishda qofiyalanadi (alliteratsiya hodisasiga uchraydi). Demak ikkala guruh o‘rtasidagi farq – takrordagi birinchi komponentning ma‘no anglatish yoki anglatmasligida o‘z ifodasini topadi:

¹³ Лингвистический энциклопедический словарь. 2-издание, дополненное. –М.: Большая Российская энциклопедия, 2002. –С.408.

¹⁴ Калинина З. М. Очерки лексикологии современного пушту. –Москва, 1972. –С.98.



1. Ritmik-qofiyali yoki exo-konstruksiya reduplikatsiya

Ushbu guruhdagi noto‘liq reduplikatsiyaning birinchi komponentida ot so‘z turkumining takrorlanishi sarmahsulir¹⁵. Bunda ikkinchi komponentning birinchi tovushi ko‘p hollarda **m** [m] yoki پ [p] tovushi bilan almashadi va ma’no kuchayadi¹⁶. Masalan, so‘zlashuv tilida ishlatiladigan دكان موكان [dukān-mukān] “do‘kon-mo‘kon”, ya’ni biron-bir savdo shoxobchasi ma’nosini beruvchi so‘z bunga misol bo‘la oladi yoki شرم پرم [šarm-parm] “sharm-hayo”.

ovqat-povqat	ḍuḍey-muḍey	دودى مودى
sharm-hayo	šarm-parm	شرم پرم
uy-puy	kor-mor	کور مور
dori-pori	dawā mawā	دوا موا
yajuj-majuj	juj majuj	جوج ماجوج
go‘gurt-po‘gurt	gogəṛ mogəṛ	گوگر موگر

ابراهيم تری د اسماعیل د حال احوال پوښتنه وکړه، ښځې وویل بهر وتلی چې دودى مودى راوړي¹⁷.
 [ibrāhim tre də ismāyil də hāl ahwāl poštəna wukṛa, šedze wuwayəl bahar watəlay čə **ḍuḍey-muḍey** rawuṛi]

“Ibrohim undan Ismoilning hol ahvolini so‘radi, ayol esa uni **yegulik (ovqat-povqat)** olib kelish uchun tashqariga chiqqanini aytdi”.

Bu misollardagi ikkinchi komponent mustaqil holda qo‘llanilmaydi, balki birinchi komponentning leksik ma’nosini umumiyashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, bu kabi takrorlar matndan kelib chiqqan holda istehzo, piching ma’nolarini ham berishi mumkin:

د کور خاوند ور ته وویل چې ولی گوگر موگر په کور کی نه و¹⁸.

[də kor xāwənd wər ta wuwayəl čə wali **gogəṛ mogəṛ** pə kor ke na wu]

“Uy egasi nega uyda go‘gurt-po‘gurt ham yo‘q deb so‘radi”.

Noto‘liq reduplikatsiyalar ma’noni umumlashtirishdan tashqari uni kuchaytirishni ham anglata oladi. Bunda birinchi komponentdagi ot ko‘plikda ifodalansa, ritmik qofiyalanayotgan ikkinchi komponent ham ko‘plik shaklini oladi:

yangiliklar, xabarlar	xabaruna-mabaruna	خبرونه مبرونه
yig‘ilish, uchrashuv	nāste-paste	ناستیپاستی ¹⁹
kiyim-kechak	kāli-māli	کالی مالی

Ikkinchi komponent ritmik qofiyalanayotganda uning birinchi **tovushi [t], [w] va [š]** tovushlari bilan ham almashib kela oladi:

yuz, tashqi ko‘rinish	cera tera	خبره تیره
-----------------------	-----------	-----------

¹⁵ Ko‘rsatilgan manba, B-98.

¹⁶ Inomkhoyayev R. Pashto an intermediate Textbook. Georgetown University Press, USA, 2016.– P.73.

¹⁷ <https://kabull.com>

¹⁸ صدیق الله رشتین، پښتو قیصی. ص- ۲۹.

¹⁹ <https://quizlet.com/194699521/rhyming-words-flash-cards/>

qilayotgan ish	kaṛa waṛa	كره وره
stol	mez-šez	میزشیز
choy-poy	čāy-šāy	چای شای

جدي خېره تېره كاته، له تحكم او هېيته ډك حرکات.²⁰

[jedi **cera tera** kātə, lə tahkim aw haybata ɖak harakāt]

“Jiddiy **tashqi ko‘rinish**, mustahkam va haybat to‘la harakatni kuzatardi”.

قابیچیان د هر غلام بچه كره وره تر نظر لاندی ونیسی.²¹

[qābčiyān də har ġulām bača **kaṛa waṛa** tər nazar landi wunisi]

“Lagan yasovchilar har bir g‘ulombachaning **qilayotgan ishini** nazorat qilsin”.

Noto‘liq reduplikatsiyaning birinchi komponentida sifatning takrorlaninshi:

yosh	dzawān-jayān	خوان جیان
qing‘ir-qiyshiq, egri-bugri	kaṛe waṛe	كړې وړې
tit-pit, tartibsiz	tət pət	تت پت
juda katta	ġaṭ paṭ	غټ پټ
kirlangan, buzilgan	laṭ paṭ	لټ پټ
qing‘ir-qiyshiq	kṛing pṛing	كړینگ پړینگ

بڼه غټ پټ پښتون به وي له خلكو به پوښتنې په پردی ژبه كوي؟²²

[ʃə **ġaṭ paṭ** paštun bæ wi lə xalko bæ poštane pə pradey jeba kawi?]

“Odamlardan boshqa tilda savollar so‘rayotgan **gavdali** kishi pashtundir??”.

لاندي مي پر يوه كس سترگي ولگېدې چې په وينو كي لټ پټ و د هوټل دننه او دباندې څخه

د ډزو غږ اورېدل كېده.²³

[landi me pər yawa kas sterge wulagede če pə weeno ke **laṭ paṭ** wu də hoṭal dənəna aw də bānde cxa də ɖazo ġaṭ awredəl keda]

“Pastda usti-boshi qonga bo‘yalgan odamni ko‘rdim, mehmonxonaning ichkarisi va tashqarisidan o‘q ovozi eshitilardi”.

Yuqorida keltirilgan misollarda takroriy sifatlar harakatning, obyektning sifatini, xususiyatini kuchaytirish uchun ishlatilgan.

Noto‘liq reduplikatsiyaning birinchi komponentida ravishning takrorlaninshi:

uyon-buyon	dexwa āxwa	دېخوا اېخوا
------------	------------	-------------

²⁰ اکبر بری. د سپوږمۍ سرتگه، کابل، ۲۰۰۴م کال. ص-۴۹.

²¹ خیرنمل ژواک. پرونی هنداره، کابل، ۱۳۵۷م کال. ص-۳.

²² <https://www.pashtowraza/posts/689441714576673>

²³ <https://www.bbc.com/pashto/afghanistan-46949369>



دومره می دېخوا اېخوا وځنگوله چې نژدې می پر مخکه راغورخولي وه.²⁴

[domra me **dexwa āxwa** wudzangawəla če nəjde me pər mədzəka rāğurdzawəle wa]

“Shunchalik **uyonga-buyonga** tebranimdan yerga yiqilib tushishimga sal qoldi”.

Ushbu misolda دېخوا [dexwa] “bu yer, bu tomon” so‘zi ritmik qofiyalanib “uyon-buyon” ma’nosini hosil qildi.

Ritmik qofiyalanayotganda ikkinchi komponentning birinchi harfi hardoim ham almashib kelmaydi. Masalan:

yashirin, maxviy	pət pəṭunay	پت پتونى
otishma	ḍazo ḍuza	دزو دوزه
shox-shabba	čaṇ čaṇo	چن چنو
tarqoqlik	xān xāney	خان خانى
olomon	gaṇa guṇa	گنه گونه
hazil-huzul	ṭoke ṭəkāle	توكي تڪالى
xilma-xil	belā bel	بېلا بېل

سكربت پلورونكي خبرو چې فلم نوي لگول شوى، ده ته دا هم ورمالومه وه، چې پر هر نوي فلم د خلكو دېره گنه گونه وي.²⁵

[sigreṭ plorunki xabaro če film neway lagawəl šway, də ta dā ham wərmaluma wa, če pər har nəwi film də xalko ḍera **gaṇa guṇa** wi]

“Sigaret sotuvchisi film yangi olinganligini va har bir yangi filmga odamlar **olomoni** yig‘ililishini bilardi”.

بس سهار چې به په روغتون راننوت، بيا به نو تر مازديگره پورې دى و، **توكي تڪالى** به وي.²⁶

[bas sahar če bə pə roğtun rānənwut, biyā bə no tər māzdigara pore day wu, **ṭoke ṭəkāle** bə we]

“Sahar chog‘i u kasalxonaga kirishidan asrgacha u yerda **hazil-huzul** bo‘lardi”.

Qofiyali-ritmik reduplikatsiyaning ichki fleksiya orqali ikkinchi elementni takrorlanishida [ā] yoki [o] unlisiga o‘zgarishi ham ko‘p uchraydi. Bunda ikkinchi o‘rinda takrorlanayotgan so‘z ham leksik ma’noga ega bo‘ladi:

متحدہ ایالت به له افغانستان سره ټول ټال خومره مرسته کوي

[mutahida ayālāt bə lə afgānistān sara **ṭol ṭāl** comra mrasta kawī]

“AQSH Afg‘onistonga **to‘la-to‘kis** yordam berib kelyapti”.

هغه چوپ چاپ ټولي کوتي معاینه کړی

[hağa **čūp čāp** ṭole koṭe mu‘āyna kre]

“U barcha xonalarni **jimgina** tekshirdi”.

خو ټول رنگونه په خپلو کي ادل بدل شوي

²⁴ اکبر بری. د سپورمی سرتگه، کابل، ۲۰۰۴م کال. ص-۳۳.

²⁵ اکبر بری. د سپورمی سرتگه، کابل، ۲۰۰۴م کال. ص-۲.

²⁶ اکبر بری. د سپورمی سرتگه، کابل، ۲۰۰۴م کال. ص-۱۰.



[xo ʈol rangūna pə xpəlo ke **adal badal** šəwī]
 “Ammo barcha ranglar **aralashib** ketdi”.

Shuningdek, ikki mustaqil bir- biriga hamohang boʻlgan soʻzlarning birikishi natijasida: لارو چارو “yechim”, حال احوال “hol-ahvol” soʻzlari qoʻfiyalanib kelib ikkala komponenti ham maʼno berib, reduplikatsiya holiga kelib qolgan:

ابراهيم تري د اسماعيل د حال احوال پوښتنه وكړه، بنځي وويل بهر وتلي چې ډوډۍ موډۍ راوري²⁷
 [ibrāhim tre dā ismāyil dā **hāl ahwāl** poštəna wukra, šedze wuwayəl bahar watəlay če dūdey-
 mudey rawuri]

“Ibrohim undan Ismoilning **hol ahvolini** soʻradi, ayol esa uni yegulik olib kelish uchun tashqariga chiqqanini aytdi”.

Notoʻliq reduplikatsiyalarga kiruvchi yana bir qancha misollar:

albatta, istasa-istamasa	aro maro	ارو مرو
hayron-hayron	heş peş	هېښن پېښن
hangu-mang	hāk pāk	هک پک
u yondan bu yonga agʻdarilmoq	awuštəl-rāawuštəl	اوبښتل را اوبښتلو
oʻgirmoq, aylantirmoq, burmoq	aṛawəl rā aṛawel	ارول را ارول

2. Notoʻliq reduplikatsiyaning ikkinchi guruhi kammahsul²⁸ boʻlib, bu guruhga taqlidiy soʻzlar kiradi. Bunda ikkala komponent ham alohida qoʻllana olmaydi va mustaqil maʼnoga ega boʻlmaydi.

تپ توپ [tap tup] tapur-tupur (oyoq ovozigga nisbatan)

تک تیک [tik tīk] tik-tik (soatning chiqillashiga nisbatan)

درب دروب [drab drub] dukur-dukur (dukurlagan ovozga nisbatan).

Tahlilni quyidagicha xulosalash mumkin:

1. Ritmik-qoʻfiyali/ exo-konstruksiya reduplikatsiyada birinchi komponent koʻproq ot yoki sifat orqali ifodalanishi kuzatildi. Bunda ikkinchi oʻrinda takrorlanayotgan soʻz پ [p] yoki م [m] tovushi bilan almashinishi sermahsul ekanligi ham misollar yordamida dalillandi.
2. Notoʻliq reduplikatsiyada birinchi komponentdagi ot koʻplikda ifodalansa, ritmik qoʻfiyalanayotgan ikkinchi komponent ham koʻplik shaklini oladi va umumiylik maʼnosini kuchaytiradi.
3. Ritmik qoʻfiyalanayotganda ikkinchi komponentning birinchi tovushi [t], [w] va [š] tovushlari bilan ham almashib kela olishi aniqlandi.
4. Notoʻliq reduplikatsiyaning birinchi komponentida ravishning ham takrorlanishi (دېخوا اېخوا) aniqlandi.
5. Ritmik qoʻfiyalanayotganda ikkinchi komponentning birinchi tovushi hardoim ham almashib kelmasligi misollar orqali (دزو دوزه، چن چنو، گنه گونه) dalillandi.

²⁷<https://kabull.com>

²⁸ Калинина З. М. Очерки лексикологии современного пушту. –Москва, 1972. –С.100.



6. Noto'liq reduplikatsiyaning ichki fleksiya orqali ikkinchi element takrorlanishida [ā] yoki [o] unlisiga o'zgarishi ham ko'p uchradi. Bunda esa ikkinchi marotaba takrorlanayotgan so'z leksik ma'noni anglatishi aniqlandi.
7. Shuningdek, ikki mustaqil bir- biriga hamohang bo'lgan so'zlarning o'zaro birikishi natijasida tayyor reduplikatsiya holiga kelib qolgan so'zlar ham borligi (لارو چارو، حال احوال) kuzatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Калинина З. М. Очерки лексикологии современного пушту. –Москва, 1972. –С.98.
2. Лингвистический энциклопедический словарь. 2-издание, дополненное. –М.: Большая Российская энциклопедия, 2002. –С.408.
3. Inomkhoyayev R. Pashto an intermediate Textbook. Georgetown University Press, USA, 2016.– P.73.
4. صديق الله رشتين، پښتو قيصی. ص- ۲۹.
5. اکبر بری. د سپوږمۍ سرتهگه، کابل، ۲۰۰۴م کال. ص-۴۹.
6. څیرنمل ژواک. پرونی هنداره، کابل، ۱۳۵۷م کال. ص- ۳
7. <https://www.pashtowraza/posts/689441714576673>
8. <https://quizlet.com/194699521/rhyming-words-flash-cards/>
9. <https://kabull.com>
10. <https://www.bbc.com/pashto/afghanistan-46949369>

UDK 82-1

JORJ ORVELNING “FILNI OTISH” BA'DIY TASVIRIY ASARI TARJIMASI XUSUSIDA MULOHAZALAR

Hayitgul O'roqovna Musoeva

Bulung'ur tumani 22-umumiy o'rta ta'lim maktabi ingliz tili o'qituvchisi
 Samarqand viloyati, O'zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada taniqli ingliz adibi Jorj Orvelning ingliz tilida yozilgan “Shooting an elephant” nomli ocherkining o'zbek tili tarjima sohasida qiyosiy tahlil qilingan holatlarining yoritib berilishini maqsad qilingan. Maqola boshida hikoya muallifi, uning hayoti va ijodi, xarakteriga xos xususiyatlar va u haqida zamondoshlaridan birining bildirilgan fikri haqida qisqa ma'lumot keltirilgan. Maqola asosan ocherkda ishlatilgan badiiy tasvirlash va unda ushbu ingliz adibining mahorat bilan yondoshganligini ma'lum tahlillar orqali yoritib berilishini o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: tasviriy ifoda, metafora, metanomiya, sinekdoxa, o'xshatish, mubolag'a, kinoya, zidlantirish, shaxslantirish, ritorik so'roq gap.

Buyuk ingliz yozuvchisi Jorj Orvel 1903-yilda Hindistonda Motiharida dunyoga kelgan. Otasi Britaniya Hindistonida mijozlarga xizmat ko'rsatish bo'limida kichik rasmiy xodim bo'lgan. U Anglyadagi Avliyo Kiprian tayyorlov maktabida taxsil olgan. U keyinchalik “Qanchalar quvonchli edi” tarjimai hol ocherkida bu maskanni Kesishgan darvozalar sifatida tasvirlagan. 1917-yilda u Elton kollejining stipendiyasi sohibi bo'ldi va u yerda 1921-yilgacha



o'qishni davom ettirdi. Uning boylik xazar qilingan muhitda kambag'al bola bo'lishni tushunib yetishi uni demokratik islohotlar tarafdori bo'lgan o'spiringa aylantirdi.

1922-yildan 1927-yilgacha Jorj Orvel Birmada (hozirgi Myanmar)da Hindiston Imperiasining Poliysiya mahkamasida xizmat qilgan. Bu uning dunyoqarashini o'zgartirgan hal qiluvchi davr bo'lgan. U asta-sekin Kallonial hukumatning vakili sifatidagi o'z rolini yomon ko'rib qoldi va o'zini qaram insonlar bilan teng hisoblay boshladi. 1927-yilda u Imperiyaning Politsiya mahkamasidan iste'foga chiqishga qaror qildi va istalgan bir kishining boshqa bir kishi ustidan hukmronlik qilishiga qarshi yozish va ochiqchasiga bayon qilish bilan shug'ullandi. "U avliyosifat shaxs bo'lgan va bunday xarakterda ko'proq siyosatdagi kabi dushmanlaridan ko'ra o'z tomonidagilarni jazoga tortgan",-deydi taniqli britaniyalik kinoya ustasi bo'lgan yozuvchi Viktor Savdon Pritchett Jorj Orvel haqida. "Filni otish", yoki ba'diyy talqinda "Fil halokati" ocherki ruhiy tarjimai hol qiymati va sifatiga ega. Jorj Orvel g'irrom siyosat va pala-partish til ajralmas va o'zaro uzviy bog'liq illatlar ekanligini ta'kidlaydi. Muallif voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan va bosh qahramon sifatida barcha jarayonlar guvohi bo'lgan.

G'oya yoki fikrga o'ziga xos ta'sirchanlik berish uchun foydalaniladigan so'z yoki so'zlar guruhi tasviriy ifodadir. Maxsus ma'nodorlik asosan so'zning qat'iy adabiy ma'nosidan yoki odatda ko'p qo'llaniluvchi so'z tartibini yoki gap tuzilishini o'zga bir ma'noda ishlatish orqali hosil qilinadi. Qadim davrlardan to hozirgacha bunday shakldagi iboralar notiq va yozuvchilar tomonidan nutqdag yoki asardagi o'z uslublarini ma'nosini kuchaytirish va yanada bezash uchun keng foydalanib kelinmoqda. Keng foydalaniladigan bir qator tasviriy ifodalarning ba'zilari troplar deb ham ataladi. Ular quidagicha nomlanilib kelinmoqda: metafora, metanomiya, sinekdoxa, o'xshatish, mubolag'a, kinoya, zidlantirish, shaxslantirish, ritorik so'roq gap va boshqalar. Maxsus ifoda tasviriy vositalari tilda obrazlilik, xissiylikni keltirib chiqaradi. Ulardan foydalanish bilan muallif tinglovchi yoki kitobxonning sezgisiga ta'sir qiladi. Bundan tashqari bayonda qisqalikka, aniqlikka erishiladi. Buning uchun esa ma'lum shart-sharoitlar kerak bo'ladi. Birinchidan muallif ifoda tasviriy vositalarining tabiatini, xususiyatini yaxshi tushungan, bilgan bo'lishi kerak. Ikkinchidan ifoda tasviriy vositalarga nutqni bo'yash, ko'r-ko'rona xaddan tashqari ko'p murojat qilmaslik kerak. Ifodalilik, ekspressivlik va aniqlikni ta'minlash niyatida biror narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko'chirish, o'xshatish yoki so'zlarni shu maqsadda umuman ko'chma ma'noda ishlatish troplardir.

Mahoratli yozuvchi Jorj Orvelning "Filni otish" ocherkini tarjima qilish jarayonida juda ko'plab so'zlarning ko'chma ma'noda ustalik bilan qo'llanganligining guvohi bo'ldim. Uning so'zlarni bejirim shodaga terib, kitobxon e'tiboriga haqiqiy san'at asari kabi taqdim eta olish qobiliyati taxsinga sazovor.

Metaphor. Metafora – biror predmetning shaklining, belgisining, harakatining o'xshash tomonini boshqasiga ko'chirishdir.

1) All I knew was that I was stuck between my hatred of the empire I served and my rage against the **evil-spirited little beasts** who tried to make my job impossible. Menga ma'lum bo'lgan barcha narsa shu ediki, mening ishimni yo'qqa chiqarishga uringan **yovuz niyatli kichik yirtqichlarga** qarshi mening isyonim va men xizmat qilgan imperiyaga mening nafratim orasida tiqilib qolgandim. Muallif asarning bosh qahramoni sifatida yosh birmalik yigitlarga bo'lgan o'ta kuchli nafrati va g'azabi tufayli hatto ularni yirtqich hayvonga qiyoslab so'zlarning ko'chma ma'nosidan foydalangan.

2) A story always sounds clear enough at a distance, but the nearer you get to the **scene of events** the vaguer it becomes. Ma'lum masofada voqea aniqdek tuyuladi, lekin **voqealar sahnasiga** yaqinroq borganingizda, u noaniq bo'lib chiqadi. Muallif asarda politsiya ofitseri bo'lgani va turli-tuman tartibsizliklar yuzasidan ish olib borishda ko'plab qiyinchiliklarga uchraganini nazarda tutayabdi.

3) I had almost made up my mind that the whole story was **a pack of lies**, when we heard yells a little distance away. Biz bir oz olis masofada qichqiriqlarni eshitganimizda, men deyarli



butun hikoya **yolg'onlar bo'g'chasi** deb qaror qilgandim. Bir filning bozorni vayron qilib, odamlar tinchini buzganligi to'g'risidagi ma'lumotga umuman ishonmaganligini shu jumla orqali aniq va ta'sirli ifodalagan.

4) They did not like me, but with the **magical rifle** in my hands I was momentarily worth watching. Ular meni yoqtirishmasdi lekin qo'llarimdagi **sehrli miltiq** bilan men o'sha daqiqalardagina tomosha qilishga arzirdim. Muallif o'zi uchun emas balki, birmalik juda sodda va oddiy xalqning miltiqqa huddi sehrli buyumdek qarashayotganini ifodalagan.

5) But in reality I was only an **absurd puppet...** Lekin aslida men bor yo'g'i bir **bemani qo'g'irchoq** edim. Muallif o'z zimmasidagi ishlarni majburan, xoxlamasdan bajarayotganini shu jumla bilan ifodalagan.

6) When I pulled the trigger I did not hear the bang or feel the kick--one never does when a shot goes home--but I heard the **devilish roar of glee** that went up from the crowd. Qurol tepkisini tortganimda na o'qning otilishini eshitdim, na o'qning orqaga tepganini his qildim--inson o'q qaytganini hech qachon bilmaydi--lekin men olomon tomondan kelgan **xursandchilikning iblisona bo'kirishini** eshitdim. Muallif filni otishni umuman xoxlamagan, lekin oddiy aholining bor yo'g'i go'sht uchungina filning otilishiga juda intiq bo'lishgani va xatto o'q uzilganida buni olqishlab baqirishganini umuman yoqtirmaganligini ifodalagan.

Synecdoche. Sinekdoxa (grekcha: birga anglash, nazarda tutish) – shaxs yoki predmet qismi nomini aytish bilan uning o'zini tushunish yoki uning o'zining nomini aytish bilan uning qismini tushunish asosida ma'no ko'chishidir.

1) **People jostling at my heels. Oyog'im ostida o'ralashayotgan odamlar.** Muallif qadamba-qadam unga ergashib kelayotgan ikki ming birmalikning bu vaziyatga biron bir chora topa olishiga halaqit berayotganligini ifodalagan.

2) I looked at the sea of **yellow faces** above the garish clothes-faces... Men **yorqin liboslar uzrasidagi sariq yuzlar ummoniga** qaradim. Birma xalqining yuz rangi orqali butun shu xalqni ifodalagan.

Simile "as", "like". O'xshatish -narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, aniqroq, bo'rttiribroq ko'rsatib berishdir. Ikki xil fikr yoki narsalar o'rtasida „kabi“ so'zi vositasida maxsus qiyoslashdi.

1) The friction of the great beast's foot had stripped the skin from his back **as neatly as one skins a rabbit.** Katta bir hayvon panjasining ishqalanishi go'yo kimdir **quyonning terisini shilgan kabi** uning orqasidan terisini yechib olgandi. Muallif jazavaga tushgan ulkan filning panjasining ishqalanishi natijasida hind, qora rangli Dravidian qora ishchisining terisining yechib olinganligini o'xshatishda o'zgacha tarzda qo'llagan.

2) They were watching me **as they would watch a conjurer about to perform a trick.** Ular **go'yo hiylani ijro qilmoqchi bo'lgan sehgarni tomosha qilishgandek** menga qarashardi. Muallif o'z ortidan boqib turgan birmaliklar undan filning otilishini tezroq amalga oshirishini kutib, juda katta ishonch bog'laganligini tasvirlagan.

3) Here was I, the white man with his gun, standing in front of the unarmed native crowd--**seemingly the leading actor of the piece;** Bu yerda men qurollanmagan mahalliy olomon oldida qo'lida miltiq bilan turgan oq tanli kishi edim – **hodisaning yetakchi aktyoridek** ko'rinib. Muallif yovvoyi bo'lmagan, qo'lga o'rgatilgan lekin jazavaga tushgan filning taqdiri uning miltiq tutgan qo'llarida bo'lganligini nazarda tutgan.

4) If the elephant charged and I missed him, I should have about as much **chance as a toad under a steam-roller.** Agar fil hujum qilib, men uni xato otib qo'ysam, menda taxminan **yo'l tekislaydigan mashina ostidagi cho'lbaqaniki kabi** imkon bo'lgan bo'lardi. Muallif jazavaga tushgan filning o'ta xavfli ekanligi va tepalikdagi jasad ham aynan shu filning qurboni bo'lganligini hisobga olib xato qilmasligi kerakligi va xato qilgan taqdirda bu uning hayoti uchun jiddiy xavf tug'dirib, u hech qanday imkonsiz qolishini tasvirlay olgan.



5)The crowd grew very still, and a deep, low, happy sigh, **as of people who see the theatre curtain go up at last**, breathed from innumerable throats. Olomon xuddi **nihoyat teatr pardasining ko'tarilishini ko'rgan odamlardek** behisob tomoqlardan nafas olishib sokin va chuqur, past, baxtli xo'rsinish ko'tardi.

Muallif filni otish borasida biror qarorga kela olmasdan yotib olganda, birmaliklar hodisa boshlanayotgandek yanada e'tibor qaratishgan.

6)But in falling he seemed for a moment to rise, for as his hind legs collapsed beneath him he seemed to **tower upward like a huge rock toppling**, his trunk reaching skyward **like a tree**. Lekin u yiqilayotib bir daqiqa ko'tarilgandek tuyuldi, uning orqa oyoqlari uning ostida yiqilgani uchun u **minoraning yuqorisidan ag'darilib tushayotgan ulkan toshdek** tuyildi, uning xartumi **daraxt kabi** osmonga qarab ko'tarilar edi. Muallif filning o'qlar zarbidan to'lg'onib, og'riq azobiga dosh berolmasdan orqa oyoqlarini bukib qolishini obrazli tarzda o'xshatgan.

7)The thick blood welled out of him **like red velvet**, but still he did not die. Quyuq qon undan **qizil baxmal kabi** otilib chiqdi lekin hanuz u o'lmagan edi. Muallif filning tanasidan otilib chiqayotgan qonni aynan qizil baxmal rangiga o'xshatgan. Bu kitobxon tasavvurida voqeani jonli tarzda gavdalanitiradi.

8)The tortured gasps continued **as steadily as the ticking of a clock**. Azoblanayotgan bo'g'ilishlar **soatning chiqillashidek to'xtovsiz** davom etardi. Muallif filni o'ldirish uchun barcha o'qlarini sarfladi, lekin vijdon azobi tufayli filning qanchalik azoblanayotganligiga, o'lim talvasasi ichida bo'g'iq ovoz chiqarayotganligiga ham befarq qarab turolmadi. Kitobxon bu bo'g'ilishlarni aniq ko'z oldida gavdalanitira oladigan darajada mahoratli o'xshatish qo'llangan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Jorj Orvelning peysaj tasvirlash usuli o'ziga xos, takrorlanmas va shunchalar ta'sirliki, yangicha tasviriy iboralar yaratilgan. Hikoyani o'qish jarayonida huddi siz ham birmaliklar safida yurib, birga nafas olib, politsiyachini kuzatib, xatto jazavaga tushgan filning holatini guvohi bo'lasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1."Yer yuzi" sentabr-oktabr 2014 5-son. "Shooting an elephant" by George Orwell. (O'zbek tiliga tarjima uchun tavsiya)
2. Adventures in English literature. Heritage Edition Revised. Copyright: 1985- 1990- P. 1024
3. An anthology of English and American verses. Progress publishers Moscow: 1972- P. 719
4. Aznaurova E.S. Translation Theory & Practice. T.: "Ўқитувчи"-1987. P. 195
- 5.Rayevka N.M. English lexicology. Kiyev. 1971- P. 331
- 6.Understanding literature. Literature Series Scribner Educational Publishers. – New York. 1989-P. 721
- 7.Volter Skott. Nara's vow. Oxford, Oxford Press 1982-P. 268-269
- 8.Webster's New College Dictionary. G.I.C. Merrian Co, Made in the United States. Copyright 1980-1990- P. 1531
9. Madrim Hamrayev Ona tili – "Sharq"-Toshkent 2012.
- 10.http: // www.grammar.ru.
- 11.http: // www.philology.ru



UDK 82-1

**O'QUVCHILARDA O'LMAS UMARBEOVNING "QIYOMAT QARZ" HIKOYASI
 ORQALI INSONIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISH**

Fozilova Mohigul

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining
 mustaqil tadqiqotchisi, Toshkent shahar Chilonzor tuman
 79 – maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
 Toshkent, O'zbekiston

***Anotatsiya:** Mazkur maqolada adibimiz O'lmas Umarbekovning "Qiyomat qarz" hikoyasi orqali o'quvchilarda insoniy fazilatlarni shakllantirish haqida ma'lumot berilgan. Maqolada hikoya tahlili hamda o'zbek millatiga xos umuminsoniy qadriyatlar ulug'lanib tasvirlangan.*

***Kalit so'zlar:** Ma'naviy ideal, urush, ma'naviy qadriyatlar, milliy taraqqiyot, zinama zina, menga so'z bering, galeriya, qonuniya va nazariya.*

O'quvchilarda insoniy fazilatlarni shakllantirishda adabiyot ta'sirini tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega. "Adabiyot masalasi – bu ma'naviyat masalasidir".²⁹ Darhaqiqat, adabiyot shaxs ma'naviy hayoti bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanib boradi. Ta'kidlaganimizdek, biz uchun aqliy yetuklik o'ta zarur. Ammo insonda insoniy fazilatlar bilan ma'naviy yetuklik bilan uyg'unlashmasa, samaradorlik darajasi pastligicha qolaveradi. Bugungi kunda yoshlarimizning o'z "ma'naviy ideali"ni yaratish yo'lidagi izlanishlari barchani quvontirmoqda. Yuksak insoniy fazilatlarga erishish ehtiyoji va bu yo'lda astoydil sobitqadamlik bilan harakat qilish milliy taraqqiyotning muhim omili ekanini tan olmay ilojimiz yo'q.

Qirg'iz xalqining atoqli adibi, o'zbek xalqining qardosh do'sti Chingiz Aytmatovdan "Sizning ijodingizning bosh prinsipi nima?, - deya so'rashganlarida, – Men haqiqatni so'zlashni istayman. Insonning inson degan nomga munosib bo'lishini istayman"³⁰, - deya javob bergan ekan.

Darhaqiqat, Adabiyot deb atalmish ko'hna olam yaralgandan beri muhtaram yozuvchi ta'kidlagan "insonning inson degan nomga loyiq bo'lish" tamoyilining ustuvorligi, bardavomligi uchun xizmat qilmoqda.

Adabiyot ezgulikning, yorug'likning, iymon-e'tiqodning bardavomligini ta'minlab turuvchi buyuk ma'naviyat bulog'idir. O'quvchilarimizda ana shu ma'naviyat bulog'idan orqali insoniy fazilatlar singdiriladi. Adabiyot darslarini mazmunli, qiziqarli hamda tarbiyaviy ahamiyatga molik tarzda tashkil etish adabiyot o'qituvchisidan kuchli bilim va katta pedagogic mahorat talab etadi. O'qituvchi maktabda o'quvchilarni asarni o'rganishga qiziqtiribgina qolmay, tahlil jarayonida yozuvchining g'oyaviy niyatini bilib olishlariga, asar mazmunini tasavvur qilishlariga, ularda asarni estetik baholash va ko'nikmalarini o'stirishga, egallagan bilimlarini aql – zakovat, his – hayajon bilan

²⁹ И.А.Каримов Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш – бизнинг олий мақсадимиз. – Тошкент. Ўзбекистон, 2009.-Б249.-17

³⁰ Aytmatov Ch., Hotamov G'. Yozuvchi va zamon// Adabiyot va zamon. – T.: "G'afur G'ulom" nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.



ifodalashni bilishlariga ham ahamiyat berish lozim . Bu o‘qituvchidan katta ijodiy izlanishni talab etadi.³¹

Shunday iste’dod egalari borki, tengdoshlari va zamondoshlarining hurmat - e’tiborini qozonish baxtiga muyassar bo‘ladilar. Ijoddagi bunday holat faqat o‘sha iste’dodning baxtigina bo‘lib qolmay, balki u mansub bo‘lgan adabiyotning ham omadi, ravnaqidan bir dalolatdir. O‘lmas Umarbekov ana shunday iste’dodlar orasidan o‘ziga munosib o‘rin egallab olgan, sermahsul, hozirjavob adibdir.

Ma’lumki hikoyachilik janri yozuvchidan katta mahorat talab qiladigan janrlardan biridir. O‘lmas Umarbekov hikoyalari tilining shiradorligi, lirizmga boyligi, qahramonlarning qalb go‘zalligi bilan ajralib turadi.

O‘lmas Umarbekov ijodi umumta’lim maktablari “Adabiyot” fani o‘quv dasturining 7-sinfidan o‘rin olgan bo‘lib, adib hayoti va ijodini o‘rganish uchun 3 soat ajratilgan. Dasturda “Qiyomat qarz” hikoyasini o‘qib-o‘rganish nazarda tutilgan. Davlat ta’lim standartida yozuvchi hayoti va ijodi haqida umumiy ma’lumot berish, hikoyada ilgari surilgan insoniy fazilatlar xususida tushuncha berish qayd etilgan.

Avvalo, biz o‘quvchilarga ijodkorning tarjimai holi haqida ma’lumot berishdan boshlaymiz. O‘lmas Umarbekov adabiyotimizga 20 – asrning 50 – yillarida xuddi tong yulduzidek charaqlab kirib keldi. Adabiyot va ma’naviyat atalmish ko‘rkam bu bog‘ni chaqmoqday yoritib, yashnatdi. Biroq bu bog‘dan xuddi qish quyoshi kabi ancha erta, bemahal ketdi.

Adib hayoti va ijodini o‘rganishda interfaol metodlardan foydalanish orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, o‘z fikrini bayon qila olish, bahs – munozaralar olib boorish ko‘nikmalari shakllanadi. Buning uchun “Zinama- zina”, “ Menga so‘z bering”, “Sirli tilsim”, “Galeriya” kabi metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu metodlar orqali o‘quvchilar mavzu bo‘yicha ob’yektlarni aniqlashi, ularga ta’rif berishi, ma’lumotlarni qayta ishlaydilar

“Zinama – zina” usuli namunasi

Taniqli o‘zbek yozuvchisi O‘lmas Umarbekov 1934 – yilning 25 – yanvarida Toshkent shahrida tug‘ilgan. Abdulla Avloniy asos slogan

Maktabni oltin medal bilan bitirgan adib o‘sha vaqtdagi O‘rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti) ning filologiya fakultetiga o‘qishga kirgan.

Oliy o‘quv yurtini tugatmay turib , 1956 – yilda Respublika radiosida muharrir sifatida ish boshlagan.

O‘lmas Umarbekov badiiy ijodni hikoyachilikdan boshlagan . “Xatingni kutaman” hikoyasi “Yilning eng yaxshi hikoyasi” mukofoti bilan siylandi.


Darsliklarda ijodkorning hayoti va ijod yo‘li bir oz rasmiylashtirilgan tarzda beriladi (to‘g‘ri har bir ijodkor katta bir olam, uni batafsil yoritishning sira ilojisi yo‘q).

³¹ A. Zunnunov , N. Hotamov , J. Esonov , A. Ibrohimov. Adabiyot o‘qitish metodikasi T: O‘qituvchi nashriyoti; 1992 , 77 – b.

“U qanday inson bo‘lgan? “Qanday shaxsiy sifatlar egasi edi?”, “Fe‘l-atvori, xarakteri qanday bo‘lgan?” kabi adibning real hayotiga nisbatan savollar beradi.

Birinchi darsda berilgan topshiriqlar va yana bir qator metodlar orqali o‘quvchilar yozuvchi shaxsiyatiga kirib boradi. Vazifa sifatida darslikda berilgan “Qiyomat qarz” hikoyasini mustaqil mutolaa qilib kelish topshiriladi.

Uyga vazifa sifatida o‘quvchilarga darslikda berilgan hikoya bilan tanishib kelish topshirilgani bois, uni qayta dars mobaynida mutolaa qilishga hojat yo‘q. O‘quvchilarning asar bilan mustaqil tanishib kelganliklarini tekshirish maqsadida “**Kim epchil-u, kim chaqqon?**” rukni ostida guruhlarga bo‘lib savol-javob o‘tkazish mumkin:



Ushbu savollardan badiiy asarlar mavzusi haqida savol mavzusi bo‘lib kelgan va bu mavzu asarlar mavzusi jihatidan shash bo‘lsa-da, turli mualliflarning dunyoqarash va yondashuvlarida ma’lum farqlar mavjudligi ko‘zga tashlanadi. Bu asosan, qahramon ruhiyati bilan bog‘liq tarzda kechishini alohida ta’kidlash joiz. Xususan, O‘lmas Umarbekov “Qiyomat qarz” hikoyasida urush millionlab odamlarning yostig‘ini quritishdan tashqari, ularning ongini, ruhiyatini ham tuzatib bo‘lmas darajada jarohatlanishiga sabab bo‘lganligini asar qahramonlari orqali yaqqol ko‘rsatib bergan. “O‘quvchilarning o‘rgangan qonuniyat va nazariyalarni aniq amaliy vaziyatlarga tatbiq eta olishi, tushuncha va tamoyillarni har xil vaziyatlarga tatbiq etishga qodirligi bilan ahamiyat kasb etadi”³². Bundan kelib chiqib, o‘quvchilarda hikoya qahramoni Sarsonboy otaning sabr- matonati, sofdilligi, rostgo‘yligi kabi xislatlari insoniy fazilatlar ekanligi haqida tushuncha beradi. Xalqimizda: “Omonatga xiyonat qilmaslik” naqli bor. Bu naql bizning o‘zbek xalqiga juda muhim ahamiyatga ega. Qadimdan xalqimizning azaliy odatlaridan biridir. Sarsonboy ota ham shunday insonlardan biridir. Otaga o‘g‘lining do‘sti – Haydarali urushga ketishidan oldin ikkita qo‘yni omonat qilib qoldirib ketadi. Urush tugab, ancha yillar o‘tgan bo‘lsa-da, ota qo‘ylarni asrab – avaylab egasiga qaytarish umidida yashaydi. Ko‘rinadiki, adib ushbu hikoyasida cheksiz hayotiy sinovlar, kuchli ruhiy iztiroblar girdobidagi qahramonlar tasvirlanadi. Yozuvchi hikoyada batafsil bayon qilish yo‘lidan bormaydi. “Chunki hikoya janri batafsil bayonni ko‘tarmaydi”³³. O‘quvchi ko‘z oldida jonlantirilgan ruhiy g‘alayonlar, o‘tkir dramatik to‘qnashuvlar tasviri undan kelib chiqadigan ma’naviy-estetik ma’no salmog‘ini oshiradi.

³² Husanboyeva H., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.: “Barkamol fayz media” nashriyoti, 2018. 214-b

³³ Karimov N. Nasr baxshisi. – T.: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2003. 11-b



Xulosa qilib aytganda, ta'limning kafolatlanganlik natijasi samaradorlikni va maqsadga erishishni belgilaydi. Bundan ko'rinadiki, natija maqsadga qancha yaqin bo'lsa, o'quv – tarbiya jarayoni shuncha samarador hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. И.А.Каримов Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш – бизнинг олий мақсадимиз. – Тошкент. Ўзбекистон, 2009.-Б249.-17
2. Aytmatov Ch., Hotamov G'. Yozuvchi va zamon// Adabiyot va zamon. – T.: “G‘afur G‘ulom” nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1981.
3. A. Zunnunov, N. Hotamov, J. Esonov, A. Ibrohimov. Adabiyot o‘qitish metodikasi T: O‘qituvchi nashriyoti; 1992, 77 – b.
4. Husanboyeva H., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.: “Barkamol fayz media” nashriyoti, 2018. 214-b
5. Karimov N. Nasr baxshisi. – T.: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2003. 11-b

UDK 801.8

ENGLISH LEXICOLOGY- WORKING DEFINITIONS OF PRINCIPAL CONCEPTS

Avezova Ma'mura Maksudbekovna

English teacher Khorezm region

Khazarasp district school 34

Sa'dullayeva Gulshoda Qilichevna

English teacher Khorezm region

Khazarasp district school 34

Khorezm, Uzbekistan

Annotation: *The aim of this work is to teach students to be word-conscious, to be able to guess the meaning of words they come across from the meanings of morphemes, to be able to recognise the origin of word. Also, English teachers can use the following work to hold their lessons to give much information about the origin of the word and to write scientific articles.*

Key words: *Lexicology, linguistics, descriptive lexicology, special lexicology, morpheme, the science of the word*

Lexicology is a branch of linguistics, the science of language. The term **Lexicology** is composed of two Greek morphemes: lexis meaning ‘word, phrase’ and logos which denotes ‘learning, a department of knowledge’. Thus, the literal meaning of the term **Lexicology** is ‘the science of the word’. The literal meaning, however, gives only a general notion of the aims and the subject-matter of this branch of linguistic science, since all its other branches also take account of words in one way or another approaching them from different angles. Lexicology, is the study of the grammatical structure of language. It is concerned with the various means of expressing grammatical relations between words and with the patterns after which words are combined into word-groups and sentences. Lexicology as a branch of linguistics has its own



aims and methods of scientific research, its basic task being a study and systematic description of vocabulary in respect to its origin, development and current use.

Lexicology is concerned with words, variable word-groups, phraseological units, and with morphemes which make up words. There are two principal approaches in linguistic science to the study of language material, namely the synchronic (Gr. *syn* — ‘together, with’ and *chronos* — ‘time’) and the diachronic (Gr. *dia* — ‘through’) approach. With regard to **Special Lexicology** the synchronic approach is concerned with the vocabulary of a language as it exists at a given time, for instance, at the present time. It is special **Descriptive lexicology** that deals with the vocabulary and vocabulary units of a particular language at a certain time.

Etymologically the vocabulary of the English language is far from being homogeneous. It consists of two layers - the native stock of words and the borrowed stock of words. **Borrowed words** (or loan words or borrowings) are words taken over from another language. The most effective way of borrowing is direct borrowing from another language as the result of contacts with the people of another country or with their literature. When analysing borrowed words one must distinguish between the two terms - "**source of borrowing**" and "**origin of borrowing**". The first term is applied to the language from which the word was immediately borrowed, the second - to the language to which the word may be ultimately traced e.g. table - source of borrowing - French, origin of borrowing - Latin elephant - source of borrowing - French, origin-Egypt convene - source of borrowing - French, origin-Latin. **The borrowed stock of words** may be classified according to the nature of the borrowing itself as borrowings proper, translation loans and semantic loans.

Translation loans are words or expressions formed from the elements existing in the English language according to the patterns of the source language (the moment of truth - sp. *el momento de la verdad*).

A semantic loan is the borrowing of a meaning for a word already existing in the English language e.g. the compound word shock brigade which existed in the English language with the meaning "аварийная бригада" acquired a new meaning "ударная бригада" which it borrowed from the Russian language.

Latin Loans are classified into the subgroups.

1. Early Latin Loans. Those are the words which came into English through the language of Anglo-Saxon tribes. The tribes had been in contact with Roman civilisation and had adopted several Latin words denoting objects belonging to that civilisation long before the invasion of Angles, Saxons and Jutes into Britain (cup, kitchen, mill, port, wine).

2. Later Latin Borrowings. To this group belong the words which penetrated the English vocabulary in the sixth and seventh centuries, when the people of England were converted to Christianity (priest, bishop, nun, candle).

3. The third period of Latin includes words which came into English due to two historical events: the Norman conquest in 1066 and the Renaissance or the Revival of Learning. Some words came into English through French but some were taken directly from Latin (major, minor, intelligent, permanent).

4. The Latest Stratum of Latin Words. The words of this period are mainly abstract and scientific words (nylon, molecular, vaccine, phenomenon, vacuum). Norman-French Borrowings may be subdivided into subgroups:

1. Early loans - 12th - 15th century

2. Later loans - beginning from the 16th century.

The Early French borrowings are simple short words, naturalised in accordance with the English language system (state, power, war, pen, river) Later French borrowings can be identified by their peculiarities of form and pronunciation (regime, police, ballet, scene, bourgeois).

The Etymological Structure of the English Vocabulary:

The Native element:



I. Indo-European element

II. Germanic element

III. English proper element (brought by Angles, Saxons and Jutes not earlier than 5th c. A.D.)

The Borrowed Element:

I. Celtic (5-6th c. A.D.)

II. Latin: 1st group: B.C. 2nd group: 7 th c. A.D. 3d group: the Renaissance period

III. Scandinavian (8-11 th c. A.D.)

IV. French: 1. Norman borrowings (11-13th c. A.D.); 2. Parisian borrowings (Renaissance)

V. Greek

VI. Italian (Renaissance and later)

VII. Spanish (Renaissance)

VIII. German IX. Indian and others

In conclusion, this work is intended for all English teachers and students using English lexicology, origin of the word in their lessons. It may also be of interest to all readers, whose command of English is sufficient to enable them to read texts of average difficulty and who would like to gain some information about the vocabulary resources of Modern English.

USED LITERATURES:

1. Iriskulov A.T.-Theoretical Grammar of English-Tashkent 2006.p-9-11
2. A.Hill.Introduction to Linguistic Structures:from sound to sentence in English.N.Y.1958
3. Davletbayeva D.N.-Lectures on English Lexicology-Kazan 2010.p5

UDK 801.8

L'ENSEIGNEMENT DE LA PRODUCTION ORALE DANS L'APPRENTISSAGE DE LA LANGUE FRANÇAISE

Fozilova Oyazim Abduraimovna
 professeur du français de l'école № 6,
Karimova Nigora, Paraydinova Zilola
 professeurs du français
 Andijan, Ouzbékistan

***Annotation:** La production orale exige que l'élève mette en œuvre un ensemble de stratégies pour communiquer divers messages en fonction de ses besoins d'information, d'imaginaire et d'esthétique. La situation pédagogique à l'intérieur de laquelle l'évaluation en communication orale est menée doit être cohérente à l'expérience d'apprentissage de l'élève.*

***Les mots clés:** la préactivité, l'activité, la postactivité, la capacité, l'habileté, l'efficacité, un climat de confiance, à l'écoute réciproque, la consigne.*

La démarche pédagogique dans le cadre de l'enseignement et de l'apprentissage de la production orale comporte trois étapes : - **en production orale: la préactivité, l'activité et la postactivité.**

Toute situation d'apprentissage en production orale doit comporter une intention de communication qui se traduira par un travail particulier relié à cette intention dans chacune des



trois étapes de la démarche. La production orale exige que l'élève mette en œuvre un ensemble de stratégies pour communiquer divers messages en fonction de ses besoins d'information, d'imaginaire et d'esthétique. Ces stratégies touchent :

Сөзлер жазамыз: алма, ыссы, бағман, келешек

Берилген сөзлерден даўыслылардың астын сызамыз.

Таллаў жасаймыз:

а-сеси даўыслы, жуўан, езиўлик, ашық, тил арты.

ы-сеси даўыслы, жуўан, езиўлик, қысық, тил арты

Ал, морфологиялық таллаўда сөзлерди түбир хәм қосымтаға ажыратып сөз сөз шақапларына ажыратамыз. Сеслер, сөзлер, гәп избе-изликте келип таллаўда қурамаласып бара береді.

Биз билемиз, қарақалпақ тилинде бес гәп ағзасы (баслаўыш, баянлаўыш, анықлаўыш, толықлаўыш, пысықлаўыш) бар.

Гәптиң тийкарын бас ағзалар дүзеди. Екинши дәрежели ағзалар (анықлаўыш, толықлаўыш, пысықлаўыш) толықтырып, түсиндирип, анықлап келеді. Яғный гәп ағзасының өз атқаратуғын хызмети, орналасыў тәртиби бар. Мәселен: баслаўыш затлық уғымды билдирип, атаў сеплигинде келеді хәм гәптиң басында көбирек қолланылады.

Мысалы: Муўса оғада жас ўақытларынан баслап саз шертиўге, қосық айтыўға қызыққан. Бул гәпте баслаўыш-Муўса сөзи ким? деген сораўға жуўап берип гәп басында қолланылып тур.

Синтаксислик ямаса гәп ағзаларына таллаў жасаймыз. Гәптеги хәр бир сөзге сораўлар қойған халда гәп ақырынан талланады.

Не қылған? қызыққан сөзи- баянлауыш.

Ким қызыққан? (баянлауыш пенен байланыстарған алда) Муўса -баслауыш.

Неге қызыққан? саз шертиўге, қосық айтыўға- толықлауыш.

Қашан? ямаса қай ўақыттан қызыққан? жас ўақытларынан баслап-пысықлауыш (ўақыт)



Қарақалпақ тилинде баслауыш гәп ағзасынан болған сөзлер тек гәп басында қолланылады деген жууымақ емес, олар гәп ортасында да келиуі жағдайлары ушырасады.

Мысалы: Апрель айының ақырына таман қанатлары қыйқашланған, суп-сулыу, кеуилли хәм сайрағыш бир жуп қарлығаш келип , өткен жылғы уясының этирапында пәрмана болып уша баслады.

Усындай тақылетте және бир гәп ағзасы толықлауыш табыс, шығыс, барыс, орын сеплигиниң затлыә формадағы сорауларына (кимди?, нени?, кимнен? неден, кимге?, неге?, кимде?, неде?) жууап берип баянлауышқа байланысып келеди.

Қарақалпақ халқы әжайып табысларды қолға киргизди.

Жоқарыдағы мысалдағы сөзлердиң астын сызып әйсы ағзаға тийисли екенін көрсеттик. Енди сораулар қойып гәп ағзаларына талласақ.

не қылды? киргизди- баянлауыш

неге киргизди? – қолға толықлауыш

нелерди киргизди? табысларды - толықлауыш

қандай табысларды? әжайып- анықлауыш

кимлер киргизди? қарақалпақ халқы-баслауыш

Сораулар қойуы арқалы талланса сөздиң екінши бир сөз бенен байланысын да анықлаймыз. Толықлауыш сыяқлы пысықлауыш гәп ағзасы да баянлауышқа байланысly болып ис-хәрекеттиң хәр қыйлы белгилерин билдирип келеди.

Пысықлауыш гәп ағзасын оқыушыларға түсіндирер де сепликлердиң айырымларының сораулары пысықлауыш гәп ағзасының сораулары екенлигин айтып өтемиз.

Не себеп сеплик?

Математика илиминде көбейтиу кестесин жақсы билиу қарақалпақ тилинде сепликлер, олардың қосымталары, сорауларын жақсы билиудей деген сөз.

Шығыс сеплигиниң шығыу орнын билдиретуғын қайдан? қай жерден? Сораулары барыс сеплигиниң барыу бағытын билдириуши қайда? қаяққа? сораулары, орын сеплигиниң белгили бир орынды билдириуши қаяқта? қайда? қай жерде? Сораулары пысықлауыш сораулары болады.

Және де оның ис-хәрекеттиң сынын, муғдарын, уақтың, себеп-мақсетин билдириуши сораулары да бар.

Синтаксислик таллау уақтында хәм сеплик хаққында, хәм гәп ағзаларының сораулары хаққында оқыушының ядына саласаң. Бул қарақалпақ тилиниң илимлери бир – бири менен байланысly, шынжырлас екенлигин аңлауға болады.

Гүлжан қитап, дәптерлерин партаның үстине қойды.

қойды (не қылды? баянлауыш)

Гүлжан (ким? баслауыш) қойды

партаның үстине (қайда? пысықлауыш) қойды

қитап, дәптерлерин (нелерин? толықлауыш)

Сөзлердиң хәр бири баянлауыш гәп ағзасы менен байланысly. Яғный гәптен баянлауышты тауып, сөзлерге сораулар қойып талласақ синтаксислик таллауда алжаспаймыз.

Оқыушыларға баслауыш класста синтаксислик таллау әпиуайы, аңсатластырылып үйретилип барылуы, ал жоқары класста гәп ағзаларының қурамалылығы да артып барады.

Биз баянлауыш гәп ағзасын дәслепп тек ис-хәрекетти билдирип не қылды? не иследи? не қылып атыр? не ислеп атыр? сорауларына жууап береди деп үйретемиз. Кейин ала ол қурамаласып атауыш (хәр қыйлы сөз шақаптарынан болған) баянлауыш болып келиуі жағдайларына гез келемиз.

1.Атлық баянлауыш.



Баянлауыш атау сеплигиндегі атлық сөзден болады.

Бұлар-өзиміздің балалар, Төрткүлден келген шайырлар.

2.Келбетлік баянлауыш.

Бағымыз мийұалы. (қандай?) Әсіресе алма, жүзим, алмұрт зор, ширели. (қандай?)

3.Санлық баянлауыш.

Класымыз оқыушылары жарыста бәрхә биринши. (нешинши?)

Демек, гәп ақырында қайсы сөз шақабы келип, қандай сорауға жууап берсе ол баянлауыш гәп ағзасы бола алады.

Енди бұл жерде оқыушы гәп ағзаның сөз шақаптары менен байланысын аңлайды хәм олардың сорауларын айыра билиу дәрежесине жетеди.

Атлық - баслауыш

Халық өз орнын ақыллы ул-қызлары арқалы әлемге танытады.

Бұл гәпте баслауыш - халық сөзі атлық сөзден болған, атау сеплигинде тұр.

Таллау:

Не қылады? танытады - баянлауыш.

Ким танытады? халық - баслауыш.

Неге танытады? әлемге - толықлауыш.

Кимлер арқалы танытады? ул-қызлары арқалы -толықлауыш (толықлауыш сөзлер айырым уақыттары тиркеуішлер менен байланысып келеди).

Қандай ул-қызлары? ақыллы-анықлауыш.

Несин ақыллы ул-қызлары арқалы танытады? өз орнын-толықлауыш.

Мийұалы ағаштың шақасы бәрхә төмен қарап өседі.

Атлық сөз тартым жалғауын қабыл етип неси? сорауына жууап берип баслауыш гәп ағзасы болып тұр.

Алмасық сөз шақабы да, атлық сыяқлы гәпте баслауыш болып келиу жағдайлары көп ушырасады.

Мысалы: Бизлер бір ата-анадан тууылған төрт ул,егіз қыз-алты тууысқанбыз.

Ал, анықлауыш гәп ағзасы зат мәнисин билдиретуғын гәп ағзаларының белгилерин анықлайды.(баслауыш хәм толықлауыш гәп ағзасы хәм хәр бір сөз шақабынан болған баянлауыш) Қайсы ағзаны анықласа сол ағзаның алдында турады.

Азықлы адам шаршамас.

Ийелик сеплигинің кимнің? нениң? сыяқлы сораулары анықлауыш гәп ағзасының сорауларының бири есапланады. Меншикли хәм ғалабалық атлықтардан болады.

Мысалы: Атамның бағы бизлерге үлкен мийрас.

Келбетлік сөз шақабы гәпте анықлауыш болып келеди.

Оқыушылар сулыу, шырайлы тәбиятқа сүйсине қарайды.

Келбетликтен болған сулыу, шырайлы сөзлери қандай деген сорауларға жууап берип гәпте анықлауыш гәп ағзасы болып тұр.

Жаксы дос ис түскенде билинеди.

Қарақалпақ тилинде синтаксислик таллауды үйрету арқалы оқыушылардың гәп ағзалары хаққында түсинигин беккемлеймиз. Оқыушыларды тилимиздегі сөзлерден дурыс пайдаланыуға, байланыслы сөйлеуге үйретемиз. Бұл арқалы оқыушылар синтаксислик таллауда гәп ағзаларының сөз шақаптарының, сепликлеридиң бир-бирине байланысын үйретеди хәм кең түсиникке ийе болады.

ПАЙДАНАЛЫНЫЛҒАН ӘДЕБИЯТЛАР:

- 1.Хәзирги қарақалпақ тили (Синтаксис) Нәкис “Билим” баспасы 1996- жыл
- 2.А.Даулетов “Тил билими тийкарлары” Нәкис Қарақалпақстан баспасы 2013- жыл



UDK 37.013

O'ZBEK TILI DARSLARIDA INTERFAOL TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH

Sadikova Parizod Berdibayevna

Toshkent shahar Bektemir tumanidagi 291-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining o'zbek tili fani o'qituvchisi

Kubasheva Latifa Djurayevnayevna

Toshkent shahar Bektemir tumanidagi 291-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining o'zbek tili fani o'qituvchisi

Mirolimova Muqaddam Vahobovna

Toshkent shahar Bektemir tumanidagi 291-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining o'zbek tili fani o'qituvchisi
 Toshkent, O'zbekiston

***Аннотация** Ушбу мақолада hozirgi kunda ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarning interfaol metodlarini o'quv jarayoniga qo'llanilishi va uning turlari haqida so'z boradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llash orqali iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, sust o'quvchilarning o'z kuchlariga ishonch hosil qilishlari uchun sharoit yaratishga erishish nazarda tutiladi.*

***Kalit so'zlar:** pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, ta'lim metodlari va turlari, ta'lim jarayoni, ta'lim sifati, o'qituvchi va o'quvchi, baholash.*

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarning interfaol metodlarini o'quv jarayoniga tatbiq qilish kun sayin kuchayib bormoqda. O'qitishning bunday faol usullari o'quvchilarni mehnat qilishga, diqqatini to'plashga, o'z ustida mustaqil ishlashga, fikrlashga, izlanishga chorlaydi, ularning darslarga qiziqishi ortib, darsga qatnashishi faollashadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashda noan'anaviy usullardan foydalanish orqali iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, sust o'quvchilarning o'z kuchlariga ishonch hosil qilishlari uchun sharoit yaratishga erishish nazarda tutiladi.

Pedagogik texnologiya- ma'lumotlarni o'zlashtirish uchun qulay shakl va usulda uzatish hamda o'zlashtirish jarayonidan iborat. Demak, pedagogik texnologiya insonga oldindan belgilangan maqsad bo'yicha ta'sir o'tkazish faoliyatidan iborat.

Ma'lumki, har qanday pedagogik texnologiya ta'limning yangi loyahasini rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillariga asoslangan bo'lib, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. O'qituvchi va o'quvchi hamda o'quvchilarning hamkorlikda ishlash malakalari shakllanadi.

Hamkorlikka asoslangan ta'lim besh asosiy elementga ega:

1. Ijodiy o'zaro bog'liqlik (bir-biridan yordam so'rash, guruhlariga yordam berish natijasida ijobiy tomonda bir-biriga bog'lanish yuzaga keladi).
2. Mas'uliyatlilik (o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni vaqtida bajarish, o'zi va boshgalar uchun javob berish, vazifalarga mas'uliyat bilan yondashish, bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun mas'ullik hissini rivojlantiradi).
3. «Yuzma-yuz o'tirish imkoniyati» (juft bo'lib yoki guruhlarda ishlanganda, o'quvchilar yuzma-yuz, bir-birlariga qarab o'tirishlari kerak. Shu holatda fukrlashib va bahslashib, qarorlar qabul qilishadi).
4. Ijtimoiy malakalar (hamkorlikdagi faoliyat natijasida o'quvchilar bir-birlarining qobiliyatlarini aniqlay boshladilar, kim rasm chiza oladi, kim g'oyalar bera oladi. Bundan tashqari o'quvchilar juft bo'lib yoki guruhlarda ishlanganda bemalol gapira olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarning gapini to'g'ri va noto'g'ri deb baholaydi.). Demak bunda og'zaki nutq rivojlanayapti, xuddi shu vaqtda qolganlar tinch eshitishi kerak, ularda tinglay olish madaniyati shakllanayapti. Yangi, yaxshi fikrlar qo'llab quvvatlandimi, demak fikr egalarida o'ziga ishonch



paydo bo'ladi, o'quvchilar o'zlari qaroro qabul qila boshlaydilar, bu qarorni himoya qila oladilar. Shunday qilib, o'quvchilar jamiyatda mustaqil hayot kechirishda o'zlari uchun zarur bo'ladigan turli ijtimoiy malakalarga ega bo'ladilar.

5. Baholash (hamkorlikdagi jarayonida o'quvchilar bir-birlarini kuzatadilar, nazorat qiladilar, baholaydilar. O'qituvchi o'quv jarayoning boshqaruvchisi sifatida kuzatadi, biroq o'quvchilarning fikr-mulohazalari inobatga olinishi shart. Bu jarayonda har bir berilayotgan baho ma'lum faktlar asosida tushuntirilishi va izohlanishi shart. Bu holat ularning o'zlariga tashqaridan nazar tashlaganda, o'z hatti-harakatlarini nazorat qila olishlariga o'rgatadi).

Darsning faol, mahsuldor, ta'sirchan va samarali bo'lishida darsning yangi shakllari, o'qitish metodlari, ko'rgazmali qurollar va texnika vositasidan unumli foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

Sizlarga tavsiya etayotgan interfaol metodlaridan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish yo'llari haqida so'z yuritmoqchimiz.

«So'z top» - mashg'uloti. («Domino»). Bu metodni darsning kirish qismida o'tkazish mumkin. O'qituvchi biron so'z aytadi, o'quvchilar davom ettiradilar. Masalan, ona – anor – rom – maktab – bola va h. k.z.

«Klaster» metodi. Bu usul o'quvchiga berilgan mavzu bo'yicha mustaqil o'ylash va fikrlarni erkin bayon etish uchun sharoit yaratadi. «Klaster» usuli bir o'quvchiga yoki guruhlarda qo'llanishi mumkin. Bunda o'quvchi nimani o'ylasa, shuni aytadi yoki yozadi. Yozilgan fikrlar to'g'ri noto'g'ri bo'lishidan qat'iy nazar muhokama qilinmaydi. Mashg'ulot berilgan vaqt tugagunga qadar davom etadi. Bu esa, sinfdagi har bir o'quvchi tomonidan ilgari surilayotgan g'oyalarni uyg'unlashtirish hamda ular o'rtasidagi aloqalarni topa olish imkoniyatini yaratadi. «Klaster» usuli yangi mavzuni boshlashdan avval o'quvchini darsga qiziqitirib, mavzu bo'yicha ilgari egallagan bilimlarini aniqlash maqsadida, o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun ishlatiladi.

«Zanjir» metodi. Bu usulni biz she'r berilgan darslarda qo'llashni tavsiya etamiz. She'rni yod olish uyga vazifa qilib berilmaydi. Biroq berilgan she'r «Zanjir» usulida, ya'ni kelgan joyidan so'ralganda, o'quvchi sinfdagi do'stlari oldida uyalib qolmaslik uchun ham she'rni yod olishga majbur bo'ldi. Matnni ham xuddi shu usulda o'qitish mumkin. Har bir o'quvchi bitta gapni o'qib, keying o'quvchi tartib bilan davom ettiradi. Shu yo'sinda she'r yoki matn har bir o'quvchi ishtirokida yoddan aytiladi yoki o'qib chiqiladi.

«Mozayka» metodi. (yoki mayda bo'laklardan yaxlit ko'rinish hosil qilish). Bunda rasmlar, ertaklar, matnlar, maqollar, topishmoqlar bo'laklarga bo'lib yozilib, konvertlarga alohida joylanadi. Guruh qatnashchilari tanlagan konvertdagi bo'lakchalarni bir butun holga keltiradilar.

«Meva va sabzavotlar» mashg'uloti.

1-variant. Sinf o'quvchilarining soniga qarab, meva va sabzavotlar rasmi aks etgan kartochkalar stol ustiga teskari holatda qo'yiladi. O'quvchilar xohlagan kartochkalarinin tanlab olib, joylarini egallaganlaridan so'ng, o'qituvchi doska oldiga chiqib: «Sabzavotlar» deb chaqiradi. Kimning qo'lida sabzavotlarning rasmi bo'lsa, o'qituvchi ko'rsatgan joyiga chiqib turadi. «Mevalar» deb chaqirganida, mevalar o'z joylarini egallaydilar. Kim qolib ketsa, mag'lub bo'ladi.

2-variant. O'quvchilar qo'llaridagi meva yoki sabzavoyga ta'rif beradilar. Masalan, bu – olma, rangi qizil, mazasi shirin. Daraxtda o'sadi. Bu karam, rangi yashil, u vitaminlarga boy. Javob bergan o'quvchilar joylariga borib o'tiradilar. Aniq va tez javob bergan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

«Kim tez bajaradi» mashg'uloti.

1-variant. Berilgan so'zlar alifbo tartibida joylashtiriladi. Har bir guruhga bir xil so'zlar beriladi. Topshiriqni birinchi bajargan guruh g'olib sanaladi.



2-variant. Stol ustiga soʻzlar yozilgan kartochkalar teskari qoʻyilgan. Sinf oʻquvchilari uch guruhga boʻlinadilar. Har bir guruh beshtadab kartochka tanlab oladi. Tanlagan kartochkalardagi soʻzlalarifbo tartibida joylashtirilishi kerak. Topshiriqni birinchi bajargan guruh gʻolib sanaladi.

«Har bir harfga bir ustun soʻz» mashgʻuloti. Sinf oʻquvchilari uch guruhga boʻlinadilar. Har bir guruhga 3-4 harfdan iborat boʻlgan soʻz beriladi. Oʻquvchilar shu soʻzning har bir harfi tagiga shu harf bilan boshlanuvchi toʻrttadan soʻz yozadilar. **Namuna:**

B	O	L	A
Bol	Ol	Lola	Asal
Bosh	Ota	Laylak	Aka
Besh	Ona	Lak	Ayiq
Bet	Olma	Lobar	Archa

Mashgʻulot boshlanishidan avval oʻqituvchi doskada oʻyin namunasini koʻrsatish kerak. Guruhlar topshiriqni flipchatlarda bajarib, doskaga osadilar. Har bir toʻgʻri yozilgan ustun uchun toʻrt ochko beriladi, har bir xato uchun esa bittadan ochko olib tashlanadi. Bu mashgʻulotni toʻgʻri va tez bajargan guruh gʻolib sanaladi.

«Lugʻatimizni boyitamiz» mashgʻuloti. Oʻquvchilar doira shaklida turadilar va qogʻozdan yasalgan qor bilan qorboʻron oʻynaydilar. Qogʻoz qorni otgan oʻquvchi bir soʻz aytsa, ilib olgan oʻquvchi tarjimasini aytishi kerak. Shu tarzda oʻyin davom etadi (paxta-хлопок, maktab- школа, uy-дом va h.k.z). Javob bera olmagan oʻquvchi oʻyindan chiqib ketadi. Bu oʻyinni oʻtkazish uchun 5 daqiqa vaqt beriladi. Shu vaqt ichida qolgan oʻquvchilar gʻolib sanaladi.

«Navbatchi harf» oʻyini. Uchta kartochkaga bir xil harf yozilib, stol ustiga teskari qoʻyiladi. Guruhlarga rangli markerlar va flipchatlar beriladi. Guruh aʼzolaridan biri chiqib, kartochkalardan birini tanlaydi. Bu topshiriqni oʻtkazish uchun 3 daqiqa vaqt beriladi. Oʻquvchilar shu harf bilan boshlanadigan oʻzlari bilgan va istagan soʻzlarni yozishlari mumkin. Masalan, O harfiga – olma, olam, osmon, Olim, olxoʻri va h.k.z.

«Rasmli rebus» mashqi.

1-variant. Sinf oʻquvchilari uch guruhga boʻlinadilar. Har bir guruhga uch tadan rasm beriladi. Rasmdagi narsaning nomi qaysi harfdan boshlansa, shu harfga mos ertak qahramonining nomini yozish kerak. Topshiriqni birinchi boʻlib bajargan guruh gʻolib boʻladi.

2-variant. Sinf oʻquvchilari uch guruhga boʻlinadilar. Har bir guruhga rasmlar beriladi. Berilgan rasmlar nomining bosh harfidan ertak qahramonining nomi chiqishi kerak. Masalan: zebra, uy, mushuk, raketa, anor, doʻppi- ZUMRAD.

«Chapak chalish» mashgʻuloti. Soʻzlarni guruhlang. Oʻqituvchi oʻquvchilarga «Kiyim-kechaklar», «Oziq-ovqatlar», «Oila» mavzusiga oid soʻzlarni eslab olishni taklif etadi. Ketma-ket shu mavzuga oid boʻlgan soʻzlarni oʻqiydi. Oʻqituvchi «Oziq-ovqatlar» mavzusini eʼlon qiladi. Oʻquvchilar oʻqituvchisozlarini diqqat bilantinglab borar ekanlar, agar soʻz shu mavzuga oid boʻlsa, tinch oʻtiradilar. Mabodo aytilgan soʻz boshqa mavzu doirasiga kirsam, u holda chapak chalib qoʻyadilar. Masalan, osh, sanchiq, non, choy, choʻmich, paxta va h.k.z. Mashgʻulot tugagach faol qatnashgan oʻquvchilar ragʻbatlantirilib, rasm yordamida yangi mavzu tushuntiriladi.

«Men qayerda boʻldim...» mashgʻuloti. Oʻqituvchi har bir oʻquvchiga sen qayerda boʻlding va nima qilding?-deb savol beradi. Har bir oʻquvchi birma-bir javob beradi. Javoblar takrorlanmasligi kerak. Masalan: «Men Mustaqillik maydoniga boʻldim, shahardagi eng katta archa atrofida oʻynadim». «Men archa bayramida boʻldim u yerda tomosha koʻrdim»-deb javob beradilar. Mashgʻulotda hamma oʻquvchilar javob bermaganlaricha davom etadi. Barcha oʻquvchilar javob berib boʻlganlaridan soʻng oʻqituvchi mashgʻulotga yakun yasaydi va yangi mavzu tushuntiriladi.

«Kalit diktant». Gutuhlarga namunada berilgan jadval tarqatiladi. Oʻqituvchi H va X harfli soʻzlardan oʻqiydi. Oʻquvchilar diqqat bilan eshitib, nechanchi soʻzda «H» yoki «X» harfi



ishtirok etgan bo'lsa, o'z jadvallariga «+» yoki «-» belgisini qo'yqadilar. Masalan: 1. Bahor. 2. Xalq. 3. Daraxt. 4. Hamma. 5. Hashar.

«Aks sado» mashg'ulotini o'tkazamizi. Maqsad o'quvchilarda o'zaro hurmat hissini rivojlantirish va yangi mavzuga oid so'zlarni o'rganish hamda mustahkamlash. Mashg'ulotni quyidagi usulda o'tkaziladi: o'quvchilar yarim doira shaklida o'tirib oladilar. O'qituvchi: «Siz qachondir aks sadoni eshitganmisiz? Bu ovoz bir nechamarotaba takrorlanib, har takrorlanganda sakinlashib boradi»-deydi. O'qituvchi biron so'zni baland ovozda aytadi. Yonidagi o'quvchi sekinroq takrorlaydi. Keyingi o'quvchi undan ham sekinroq takrorlaydi. Shu tariqa hamma o'quvchilar takrorlab chiqadilar. Mashg'ulotda har bir o'quvchio'z so'zini baland ovozda aytib, qolgan bolalar ushbu so'zlarni qaytarganlaricha davom etadi. Masalan, Ho-h-hoy. Odamlar odamlar, eshitmadim demanglar. Yurtimizga Bahor keldi. Navro'z keldi. Yangi yil muborak. Yangi kun muborak...

Mashg'ulot tugagach, o'qituvchi quyidagi savollarni berishi mumkin: Nimani his qildingiz? Qanday yangi so'zlarni o'rgandingiz? Har bir o'quvchi savollariga javob berib bo'lgach, mashg'ulot yakunlanib, yangi mavzu tushuntiriladi.

Hurmatli o'qituvchilar. Sizing e'tiboringizga interfaol usullaridan ayrim mashg'ulotlarni havola qilindi. O'qituvchio'z imkoniyatidan kelib chiqib, o'quvchilarning bilim darajasi, Yoshi, fiziologik holatini inobatga olgan holda, bu usullardan foydalanish mumkin. B usullar orqali dars jarayonini qiziqarli o'tishi amalda o'z isbotoni topdi. Har bir darsda o'quvchi imkon qadar yangi interfaol usulidan foydalansa, o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishadi, degan umiddamiz.

Siz tomondan o'tkazilayotgan har bir dars nafaqat dars ishlanmalari varaqlarida, balki tarix varaqlarida zarhal harflar bilan bitilsin deb qolamiz.

FOYDALAMILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "O'qituvchilarga foydalanish uchun metodik tavsiyalar" Toshkent 2018 yil
2. www.ziyonet.uz
3. www.lex.uz
4. www.kitobxon.com



УДК 37.013

ДЕЛА ДАВНО МИНУВШИХ ДНЕЙ, ПРЕДАНЬЯ СТАРИНЫ ГЛУБОКОЙ

Ахмедова Анара

учитель русского языка и литературы
 №3 общеобразовательной средней школы
 Тахиаташского района Республика Каракалпакстан

Нуруллаев Асадбек

студент 3-курса факультета Истории НГПИ имени Аджинияза по направлению методика преподавания истории
 Республика Каракалпакстан

***Аннотация** Показать роль литературы в формировании и развитии человека как личность. Развитие культуры как развитие человеческого мировоззрения. Идеи джадидизма в развитии национальной культуры. Образ педагога в воспитании молодёжи.*

***Ключевые слова:** Искусство слова, добрые чувства, удивительная сила, голос писателя, современная действительность, глубинная память.*

Литература – это искусство слова. Искусство даёт нам возможность приобщаться к духовной культуре человечества и радость творческого отношения к жизни.

Ведь каждый писатель - особый мир, и нужно душевно измениться, чтобы войти в него. Писатель вовлекает читателя в такой сложный лабиринт противоречивых чувств, побуждает видеть в одном и том же герое доброе и дурное, а в одном же событии - высокое и ничтожное.

Эта внутренняя борьба побуждает человека сопереживать: радоваться, негодовать, тревожиться, сочувствовать, осуждать...

Удивительная сила художественной литературы и других искусств делать живым давно прошедшее и угадывать будущее. Это чудесная сила искусства происходит лишь в том случае, если читатель услышал голос писателя, и пошёл за ним.

Художественная литература - не замкнутый мир. Писатель связан со своей эпохой, с предшествующим и современным ему искусством. Поэтому каждый писатель описывает современную действительность по- своему, как он видит.

Мы должны догнать всё человечество в своём развитии.

Так как человек отличается от животного прежде всего тем, что ему не только дан от природы непосредственный инстинкт, но и сознательная память культуры. Если эта глубинная память отсутствует, то человек становится само собой дикарём.

Значит, связь времён даёт человеку направление движения, опору и возможность совершать новые открытия.

Поэтому, осваивая историю художественной литературы, мы постараемся следить за тем своеобразным, чем отмечена каждая новая эпоха в развитии искусства, и улавливать эхо прошлых веков в последующем искусстве, в нашей современности.

М. Горький заметил, что "задача литературы - облагородить человека".

В ходе чтения и после знакомства с произведением мы хотим обдумывать его. Значит, размышление и анализ - путь к уяснению авторской позиции. Это попытка приблизиться к писателю, к его мировосприятию и к осмыслению мира в целом. Анализ прочитанного позволяет нам сделать искусство не просто искусством действительности, а открытием мира и себя в нём.



Каждый прошедший день зарождает всегда нового человека, так как растёт мировоззрение и мировосприятие духовного мира личности, и тем же растёт её духовная, национальная культура.

Это же развитие культа личности в целом влияет развитию общенациональной, культурной и духовной ценности.

"Задача воспитания духовного и физически развитого самосовершенствования поколения для нас задача общенациональная, задача в общегосударственном масштабе, ещё раз буду упомянуть, что последовательно и с ответственностью продолжить работы по осуществлению этой благородной цели стоит сегодня в центре нашей политики". (И. А. Каримов)

"Сегодняшний бурно развивающийся мир открывает новые и новые, высокие потенциалы перед молодёжью и перед человечеством ... ярко отражается и развития опасности «массовой культуры». (Ш.Мирзиёев)

В нашей стране огромное внимание уделяется сохранению богатого духовного, историко-культурного наследия наших великих предков.

В процессе воспитания и обучения подрастающего поколения большую роль играют книги. Ведь в книгах – духовность поколений.

Книга - источник знаний, великое изобретение человечества. Она побуждает человека стремиться к лучшему, к великому будущему, самосовершенствованию. В виде книг мы передаём наследие предков будущему поколению.

Книга - великое сокровище, которое было и остаётся духовной и нравственной ценностью, отражает всю красоту богатого наследия человеческой цивилизации.

Каждое поколение в своё время стремилось показать и доказать свои передовые взгляды. В этом постоянно помогли записки, дневники, книги, издания газеты и другие. Например, книга "Авесто" сохранит источники о богатом наследии в экономической и духовной культуре Востока. Ещё в X-XI веках культура Востока заняла передовые места во всех сферах.

Произведения великих учёных Ибн Сина, Аль-Фараби, Аль-Фергани были переведены уже в XII-XIII веках и оказали огромное влияние в развитии науки, философии в Европе.

По версиям учёных философов, совершенствование духовной культуры личности воплощает в себя следующие источники: религия, наука, литература, искусство и образование. Они взаимосвязано оказывают влияние на ум и деятельность. Значит, в свою очередь определяется источники духовной культуры:

- 1) наука; 2) литература; 3) искусство; 4) религия; 5) образование;
- 6) творческая деятельность; 7) религиозно- духовные ценности.

Теперь же появляются духовные потребности. Каждая личность старается осуществить эти потребности и ставит перед собой цели и задачи.

Исходя из этого постоянно меняется и культура, так как общество требует этого. И это же, в свою очередь, помогает развитию общества. Значит, материальная и духовная культура - умственная способность, талант и труд человека. Народ - это не только творец культуры, но и постоянно развивающийся, воспитывающий передающего из поколения в поколения.

Культура каждого народа развивается в взаимосвязи с другими культурами народов. Поэтому культура узбекского народа растёт под влиянием общечеловеческих ценностей.

Идеи джадидизма – просветительское движение. Они создали новую литературу, близкая народу. Зачинателями были Фитрат и Чулпан. Свободолюбивые идеи джадидизма доказали, что театр – это литература, рассчитанная на широкую публику а спектакль – это



роман, события которого происходят на сцене. Джадиды были во всех отношениях передовыми людьми своего времени.

"Знания открывают двери в будущее". Эти слова должны звучать в каждом доме. Так как современный мир сегодня не развивается без знаний. Развитие человечества в руках образованного, духовно богатого и культурного человека.

"Целители человеческих душ" - так называют педагогов.

Образ педагога - это то каким видят его другие: родители, ученики, коллеги. Теперь стоит задача: воспитание конкурентоспособной личности, умеющей жить в открытом обществе, мобильной, владеющей коммуникативными навыками, правовой культурой. В этой ситуации очень важно формирование положительного образа.

"Не меняются только самые мудрые и самые глупые", - когда-то говорил Конфуций.

«Каждый человек – целый мир. За смертью одной личности последует исчезновение всего мира» (И. В. Гёте)

В книге "Авесто" утверждалось, что сначала нужны благородные мысль и слово, а затем они перерастают в благородные дела.

Во имя благородной цели не уставая служат учителя и наставники.

Воспитание духовно богатого и гармонично развитого поколения-неотклонимая задача учителей.

Для повышения культуры чтения в школах проводятся разные мероприятия: конкурсы, вечера, инсценирования отдельных эпизодов, внеклассные чтения, открытые уроки с использованием инновационной технологии, различные интеллектуальные игры, викторины и т.д.

Каждый раз ученикам предлагается читать избранные книги: осмысливать и обсуждать прочитанное, делать правильные выводы, анализировать их.

Для выявления уровня культуры чтения можно провести анкетирование или занятия по внеклассному чтению. Эти же занятия помогут учителям формировать у школьников самостоятельного мышления, навыков аргументирования своей позиции, умение правильно анализировать, развивать речевую деятельность, а главное работать с книгой.

Для повышения уровня культуры чтения учащихся необходимо рекомендовать и родителям активно участвовать в школьных мероприятиях. Даже иногда можно провести различные тренинги для родителей.

Каждый простой человек знает, что духовность и гуманность - это наставления выдающихся предков. Если человек любит историю своего народа, свою культуру, значит, он - частичка своей Родины. Значит, он верный продолжатель традиции своего поколения.

Мы, воспитывая подрастающее поколение, каждый раз подчёркиваем дела давно минувших дней, предания старины глубокой.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йук. –Т. Шарк. 1998.
2. Каримов И. А. «Камолот» ёшларнинг чинакам суянчи ва таянчи. Т.- «Узбекистон» - 2001
3. С. Х. Носирхожаев, М. Ф. Лафасов, М.З. Заиров. «Основа дужовности» Учебник для академических лицеев и колледжей
4. Личность и общество. Учебное пособие для учащихся академических лицеев и профессиональных колледжей. Полиграфический творческий дом «Укитувчи». Ташкент – 2005
5. Ш. Гуломов. Суз кадри ва маъсулияти. Тошкент –«Узбекистон»- 2014
6. Ш. Мирзиёев. Обеспечение верховенства закона и интересов человека – гарантия развития страны и благополучия народа. Тошкент – «Узбекистон» 2017



7.Газета «Учитель Узбекистана» №33 2016

UDK 82-1

JAHON E'TIROFIDAGI SHAXS

Oktyabirova Mavjuda Sotvoldiyevna

7-umum ta'lim maktabi ona tili va adabiyot o'qituvchisi
 O'zbekiston Respublikasi

***Annotatsiya:** ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsi, uning dunyo e'tirof etgan ma'naviy olami haqida ayrim mulahazalar bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:** Zahiriddin Muhammad Bobur, sharq madaniyati, Temuriy shaxzodalar, Javohirla'l Neru, Uilyam Erskin, Eduard Golden.*

Sharqning eng yetuk ma'naviyati va madaniyatini o'zida mujassam etgan buyuk shaxslardan biri Zahiriddin Muhammad Boburdir. Zahiriddin Muhammad Bobur O'rta asr sharq madaniyati, adabiyoti va she'riyatida o'ziga xos o'rin egallaydi, adib, shoir, olim bo'lish bilan bir qatorda yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir.

Bizga tarixdan ma'lumki Bobur juda yosh paytida taxtga o'tirdi bu davrda Amir Temur barpo etgan buyuk davlat inqirozga uchrayotgan o'zaro ichki urushlar, Amir Temur tuzgan yirik davlatga egalik qilish uchun kurash nihoyatda keskinlashgan edi.

Bobur Farg'ona ulusining hokimi bo'lgunga qadar adabiyot, nafis san'at, tabiat go'zalligiga mehr qo'ygan, barcha Temuriy shaxzodalar kabi bu ilmlarning asosini otasi saroyida, yetuk ustalar rahbarligida egalladi. Ma'naviy yuksak shaxs darajasiga yetdi. Uning davlat arbobi sifatidagi faolyati Mavorounnahrda siyosiy hayot nihoyat murakkablashgan feodal guruhlarining o'zaro taxt uchun kurashishlari avjiga chiqqan va Temuriylar davlatining inqirozi davom etayotgan bir davrga to'g'ri kelgan edi.

Boburdek serqirra inson janglarda qanchalik qat'iyatli bo'lsa, she'riyatda shu qadar nafosatli, hayotda esa o'z ma'naviyatini bir umr saqlab qolgan madaniyatli yetuk shaxs.

Bobur atrofda gilarining xiyonatiga uchragan paytlarda ham o'zligini yo'qotmadi. Qayerga qadam bossa o'sha joyda obodonchilik ishlarini olib bordi. Bosqinchi podshoxlar u yutrnning moddiy va ma'naviy boyliklarini o'z yurtiga toshib ketadilar Bobur Afg'oniston va Hindistonni egallab Buyuk Bobur imperyasini tashkil qildi. Lekin bu yurtlarda talon-tarojlik qilmadi, aksincha bosib olgan yurtini obod qilib, dunyoning barcha turli mamlakatlaridan mevali, manzarali daraxtlar olib keltirib, bog'-rog'lar yaratdi. U yerlarda ulkan bunyodkorlik ishlarini amalga oshirdi. Shuning uchun tarix Bobur shaxsini hech qachon "bosmachi" nomi bilan atamadi yillar davomida Bobur va boburiylar o'sha yurtlarning olimu fozillari hurmat va jamiyat bilan tilga olib kelmoqdalar.

Javohirla'l Neru Bobur haqida shunday yozgan "Bobur-dilbar shaxs. Uyg'onish davrining tirik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo'lgan. U san'atni, adabiyotni sevardi, hayotdan huzur qilishni yaxshi ko'rardi.



“Boburnoma asarini ingliz tiliga tarjima qilgan va Bobur haqida roman yozgan Uilyam Erskin Boburni shunday baholaydi ” Saxovati va mardligi, istedodi, ilm-fan, san’atga mahabbati va ular bilan muvaffaqiyatli shug’ullanishi jihatdan Osiyodagi podshoxlar orasida Boburga teng keladigan birorta podshox topilmaydi”.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma asari va lirik merosi, farzandlariga yozgan maktublari bilan tanishar ekanmiz badiiy mahorat bobida tengi yo’q ijodkor, mumtoz so’z san’atkorining buyuk tarixiy siymosi ko’z o’ngimizda gavdalanadi. Vatanni chinakam sevish va unga bir umr bog’lanish, oshiqona ehtiroslar, tolesirlik, g’ariblik tuyg’ularini shoh va shoir shaxsiyatini yana ham nurlantirib kelgan.

Qadim ul-ayyomdan Yevropa va AQSH sharqshunoslari Bobur shaxsi bilan qiziqib kelishgan. Ingliz tarixchisi Eduard Xolden, avvalo Boburni mashhur Yuliy Sezar bilan qiyoslab “Bobur fe’l-atvorga ko’ra Sezarga qaraganda sevishga arzigulikdir. Uning manglayiga yuksak fazilatli inson deb bitib qo’yilgan”, - deydi. Bu baho yevropaliklarning butun bir sharq olamiga, o’zbek xalqiga bergan yuksak bahosidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma Toshkent-2012
2. Bahrom Zolilov “Boburnoma yildan” Toshkent-2014
3. “Ma’naviyat yulduzlari” Toshkent-2001.

UDK 801.8

INTEGRAR YONDOSHUVLARNING O`ZBEK (DAVLAT) TILI SAMARADOLIGINI OSHIRISHDAGI O`RNI

Yuldasheva Munajatxon Hakimbekovna

Namangan shahri 6-davlat ixtisoslashtirilgan
 umumta’lim maktabi o’zbek tili fani o’qituvchisi
 Namangan, O’zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim boshqa tilda olib boriladigan maktablarda davlat tilini o’qitish bo’yicha printsiplar va metodlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: differensiya, integratsiya, platforma, nutqiy kompetensiya

Ta’limni tabaqalashtirish rad etmaydigan, uni to’ldiradigan integratsiya tizimini kiritish yaxlit dunyoqarashga, o’zidagi bor bilimlarini mustaqil tartibga solish va turli muammolarni hal qilishga noan’anaviy yondashish qobiliyatiga ega bo’lgan bilimdon yoshlarni tarbiyalashda an’anaviy predmetlarga bo’lib o’qitishga nisbatan ko’proq yordam beradi.

Integratsiya (lot-integratio-tiklash, to’ldirish-integer-butun so’zidan olingan. Fanlarning yaqinlanishi va o’zaro aloqa jarayoni, differensiya bilan birga kechadi.

Ta’limning integratsiya qilish mohiyati nimadan iborat? – degan savolga quyidagicha javob beramiz.

Avvalo, ta’limga bog’liq “integratsiya” tushunchasi ikkita ma’noga ega:

1. O’quvchilarda atrofda olam to’g’risida yaxlit tasavvur qilish (bu yerda integratsiya ta’lim



maqsadi sifatida ko`riladi)

2. Predmetli bilimlarga yaqinlashtirish uchun umumiy platformani toppish (bu yerda integratsiya ta`lim vositasi)

Integratsiya ta`lim maqsadi sifatida olam tizimining alohida qismlari bog`liqligini ko`rsatuvchi bilimlarni berilishi emas, balki, o`quvchilarni barcha elementlari bir-biriga bog`liq yaxlit olamni tasavvur qilishga birinchi qadamlarida o`rgatish kerak. Albatta, bu maqsadni boshlang`ich sinflarda amalga oshirish muhim hisoblanadi.

Integratsiya – predmetli bilimlar chegarasida yangi tasavvurlarni qabul qilish vositasi. Eng birinchi navbatda tabatalashtirilgan bilimlar orasida bilmagan joylarni to`ldirish, ular orasidagi aloqalarni o`rnatish lozim.

Bu esa o`quvchilarning bilimini oshishiga, ta`limdagi tor ixtisoslashni yangilashga yo`naltirilgan. Shu bilan birga integratsiya ta`limning klassik o`quv predmetlari o`rnini egallash kerak emas, u faqat olinayotgan bilimlarni yaxlit bir tizimga birlashtirish kerak, xolos. Muammoning qiyin tomoni integratsiyaning ta`lim boshidan oxirigacha dinamik rivojlanishidir.

Agar boshida “hamma narsa to`g`risida ozgina bilish” lozim bo`lgan bo`lsa, keyinchalik tarqoq bilim va ko`nikmalarni birlashtirish kerak bo`ladi, shuningdek, oxiriga kelib, “ozgina narsa to`g`risida hamma narsa bilish” kerak bo`ladi, ya`ni bu yangi integratsiya darajasidagi ixtisoslashtirishdir.

Hozirgi davrda o`quv jarayonida integratsiyalangan ta`limdan foydalanishga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Integratsiyalangan darslarning tuzilishi o`rganishlarning barchabosqichlarida o`rganilayotgan materiallarning aniqligi va izchilligini puxta o`rganilganligini va o`zaro mantiqiy aloqalarni talab qiladi. Bunda dasturdagi o`quv materiallarining ixcham va yig`iq ekanligi, undan tashqari, o`quv materialini o`rganishning tashkil etishning ba`zi zamonaviy usullarini kiritish orqali erishish mumkin.

Umumta`lim maktablarining har bir o`tiladigan fanlarida, jumladan, davlat tilini o`qitishda o`quvchining nutqini o`stirish masalasi hal qilinadi, bunda o`quvchilarning o`rganayotgan materialining o`ziga xosligi va nutq o`stirish masalasini tanlashning maqsadga muvofiqligi hisobga olinadi. O`quvchilar bunday darslarni juda yaxshi ko`radilar. Ular ko`p yangi, kerakli tushunchalar beradilar, tasavvurlarini tartibga soladilar, shuningdek, o`quvchilar boshqa darslarda olgan bilimlaridan foydalanishlari zarur bo`lgan holatlarni yaratadi. Ana shunday holatda o`quvchilar o`rganilayotgan materialni (mavzuni) yaxshiroq o`zlashtiradilar, bilimlar tizim xoliga keladi va fan o`qituvchilari uchun zaruratga aylanadi.

Shu bilan bog`liq integratsiyalangan dars taklif qilinadi, u o`quvchilar uchun tushunarli va olingan bilimlarni yangi o`quv sharoitida ishlata bilish ko`nikmasini shakllantirishga yordam beradi.

Rus maktablarining davlat tili darslarida nutqiy kompetensiya o`quvchilarning tilga oid bilimlarni o`zlashtirishi va ulardan nutqiy vaziyatga muvofiq o`rinli foydalanish ko`nikmasiga ega bo`lishiga qarab belgilanadi.

Til haqidagi bilim maxsus dastur asosida ta`lim muassasalarida o`qitish orqali shakllantiriladi. Nutqiy kompetensiya – notanish matnni ifodali o`qiy olish, o`zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda uni og`zaki bayon qila olish, fikrni yozma ravishda izchil ifodalay olish darajasi hisoblanadi. Nutqiy kompetensiya til ta`limining quyidagi to`rt amali bo`yicha: tinglab tushunish bo`yicha (eshitilgan va eshittirilgan nutqni, tinglangan matndagi asosiy axborotni, dolzarb mavzulardagi radio va teledasturlarni tushunish); gapirish bo`yicha (monologik, dialogik og`zaki nutq turlarida o`z shaxsiy qarashlari va fikrlarini bildirish, mavzu doirasida taqdimot qila olish ko`nikmalarini rivojlantirish); o`qish bo`yicha: mavzuga oid materiallarni, adabiy-badiiy matnlarni, ommabop materiallarni (gazeta, hikoya, shaxsiy va elektron xatlarni) o`qish; yozish bo`yicha (diktant, bayon, yoza olish, ijodiy matnlar tuza olish, rasmiy ish qog`ozlarini yuritishni bilish).



Nutqiy kompetensiyani rivojlantirish uchun boshlang'ich ta'limdanoq o'quvchilarga turli mavzulardagi matnlar bilan tanishtirish kerak. O'quvchilar uchun notanish bo'lgan matn 3 marta o'qib eshittiriladi, o'quvchilar matn mazmunini eslab qolib, u haqda ma'lumot berishlari, og'zaki tarzda aytib berishlari lozim.

Davlat tili fanidan dars o'tish jarayonida o'quvchilarni fanga qiziqtirish maqsadida o'qitishning noan'anaviy usullarini qo'llash zamon talablaridan biridir. Noan'anaviy darsning maqsadi – o'quvchilarni shu fanga, mavzuga qiziqishlarini oshirishdir. Noan'anaviy darslarda o'quvchilar erkin, mustaqil bo'ladilar, darsga faolligi oshadi, ularga qo'yilgan muammoga ijodiy yondashadilar, o'z imkoniyatlarini to'la namoyon etadilar, boshqalar fikrini hurmat qilishga, o'z fikrini asoslay olishga o'rganadilar natijada darsning sifat samaradorligi oshadi.

Bularning bari o'quvchilarga fanlararo bog'liqlikni o'rgatish orqali ularda olam tuzilishini ilmiy asoslarini to'liq idrok etish va ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Dars o'tish qulay va jonli bo'lishi uchun turli ko'rgazmali qurollar ishlab chiqamiz. Ulardan o'z vaqtida va o'rnida foydalanishga harakat qilamiz. Murakkab mavzuni o'quvchilar ongiga osongina yetkazish uchun **“Aqliy hujum”**, **“Zakovat”**, **“Modul dars”**, **“Zig-zag”**, **“O'yin dars”**, **“Munozarali-bahsli dars”**, **“Sayohat darsi”**, **“Musobaqa dars”** **“Sirli sandiq”** kabi usullardan foydalanamiz. Har bir usuldagi darslar ikki-uch marta o'tilganda o'zini oqlaydi. Me'yoridan oshmasligi, o'quvchilarni zeriktirmasligi uchun usullarning turlicha bo'lishi darsning samaradorligini yanada oshiradi.

Davlat tili darslarida fanlararo integratsiya jarayonini turli zamonaviy usullar asosida hosil qilish mumkin. **“Rasmlar asosida matn yoki dialog tuzish”** usulini o'tkazish uchun darslikdagi topshiriqlarda berilgan yoki mavzuga doir rasmlardan foydalanish ham ijobiy natija beradi. Masalan, 8-sinf (X.Muhitdinova, 2019) darsligidagi **“Hosil bayrami”** (21-bet), **“O'zbek yozuvchilari”**(35-bet), **“Milliy hunarmandchilik”** (48-bet); **“Dunyo mo'jizalari”** (77-bet); 9-sinf(A.Rafiyev, G.Muhamedjanova, 2019) darsligidagi **“Vatan himoyachilari”**(60-bet), **“O'zbekiston sporti”** (68-bet), 10-sinf (X.Muhitdinova, G.Muhamedjanova va b. 2017) darsligidagi **“Mehnat – kelajak poydevori”** (108-bet), **“Dunyo taomlari”** (125-bet) kabi mavzularni o'tishda mazkur usulni tadbiiq etish yaxshi samara beradi. Bu o'rinda o'zbek tili, rus tili, geografiya, vatan tuyg'usi, jismoniy tarbiya, adabiyot, rasm fanlari o'zaro uyg'unlashadi. Chunki o'quvchi avval rasmni kuzatadi, tasvirlangan rasm haqidagi dastlabki tasavvurlari, fikrlarini rus tilida bayon qilish uchun jamlaydi, so'ngra uni o'zbek tilidagi tarjimasini bayon qiladi. Bog'lanishli matn tuzishga harakat qiladi, adabiyotning badiiy unsurlaridan foydalanadi.

O'zbek tili darslarida bunday usullardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil, ijodiy va mantiqiy fikrlashga o'rgatishga, muammoli vaziyatni amaliy va hayotiy ko'nikmalar asosida yechishga, o'quvchilarni tashkilotchilikka va yo'naltiruvchilikka undashga, do'stona munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Biz bilamizki, kishining lug'ati qanchalik boy va rivojlangan bo'lsa, uning nutqi ham shunchalik boy bo'ladi; o'z fikrini aniq va ifodali bayon etishiga keng imkoniyat yaratiladi. Shuning uchun lug'atning boyligi, xilma-xilligi, harakatchanligi metodikada nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning muhim sharti hisoblanadi. Maktabda nutq o'stirishning muhim vazifalaridan biri lug'at ustida ishlashni yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo'nalishlarini ajratish va asoslash, o'quvchilarning lug'atini boyitish jarayonini boshqarish hisoblanadi. Maktabda lug'at ustida ishlash asosiy yo'nalishlarni ko'zda tutishi maqsadga muvofiq. Buning uchun:

- o'quvchilar lug'atini boyitish, ya'ni yangi so'zlarni, shuningdek, o'quvchilar lug'atida boyigan ayrim so'zlarning yangi ma'nolarini o'zlashtirish. O'zbek tilining lug'at boyligini bilib olish uchun o'quvchi o'z lug'atiga har kuni boshlang'ich sinfda 2-4 ta yangi so'zni, yuqori sinfda esa 4-8 ta so'zni qo'shishi, ya'ni shu so'zlar ma'nosini o'zlashtirishi lozim.

- o'quvchilar lug'atiga aniqlik kiritish, ya'ni puxta o'zlashtirmagan so'zlarning ma'nosini to'liq o'zlashtirish, ya'ni shu so'zlarni matnga kiritish, ma'nosi yaqin so'zlarga qiyoslash, zid



ma'nosini tanlash yo'llari bilan ulaming ma'nosiga aniqlik kiritish; so'zlaming ma'nodoshlari o'zlashtirish;

- lug'atni faollashtirish, ya'ni o'quvchilar ma'nosini tushunadigan, ammo o'z nutq faoliyatida ishlatmaydigan nofaol lug'atidagi so'zlarni faol lug'atiga o'tkazish. Buning uchun shu so'zlar ishtirokida so'z birikmasi va gaplar tuzdirish, ular o'qiganlarni qayta hikoyalash, suhbat, matn tuzish jarayonida ishlatishga o'rgatish.

Davlat tili darslarida savol asosida gap tuzish, berilgan savolga keng, mukammal javob; o'qilgan asarni so'zlab berish, grammatik materialni o'rganish; o'quvchilar lug'atini faollashtirish bilan bog'liq holda har xil matnli mashqlar; o'qilgan matnni turli variantda og'zaki qayta hikoyalash; berilgan mavzu, rasm, kuzatishga oid boshlab berilgan yoki oxiri berilgan hikoya, reja yoki sujet asosida o'quvchilaming og'zaki hikoyasi; badiiy matnni hikoya qilish, yod olish, o'quvchilar saviyasiga mos matnlarni yoddan yozish; ertakni tayyorlanmasdan aytish, kichik she'r, hikoya tuzish; namunasi berilgan badiiy, ilmiy-ommabop matn asosida matn yozish; o'qituvchi bergan matnni og'zaki va yozma qayta tuzish (tanlab qayta hikoya qilish, sahnalashtirish kabi usullar asosida fanlararo integratsiyani yaratish mumkin.

Davlat tilini boshqa fanlar bilan integratsiyalash asosida:

1. o'quvchilarga mustaqil fikr yuritadi, tasavvur hosil qilinadi;
2. ijodiy yondasish va mantiqiy fikrlashga o'rgatadi;
3. fikrini bir nuqtaga jamlaydi va uni bayon qilishga o'rgatadi;
4. o'quvchilarda fan asoslari, yutuqlari to'g'risida aniq tushuncha hosil qiladi;
5. olgan bilimlarini amaliyotda qo'llashga o'rgatadi, deb hisoblaymiz.

Fanlarni integratsiya qilib dars o'tilganda quyidagilarga e'tibor berish kerak.

-har bir dars muayyan maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

-fanlararo aloqalarga oid tanlangan qo'shimcha material o'tiladigan mavzu bilan bog'lanishi shart.

-sinf o'quvchilari faolligini oshirish maqsadida ular bilan ishlash yo'llarini aniqlash mumkin.

Dars faqat ta'limiy bo'lib qolmasdan, o'quvchilarni insonparvarlik jihatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi kerak. Mavzuni mazmunidan kelib chiqqan holda, tabiat, jamiyat, inson tafakkuri, taraqqiyoti haqidagi ilmiy bilimlar, o'quv respublikamiz kelajagiga ishonch va e'tiqodni shakillantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Umuman olganda integratsiya darsi bir-biriga mos kelishi (mavzu jihatdan) va puxta reja asosida tuzilgan bo'lishi kerak.

Olimlarimizning fikricha, integratsiya didaktik prinsiplar qatoriga kiradi va ular orasida yetakchi o'rin egallaydi. Bunday tushuncha ta'lim tizimida integratsiya masalasini, fanlararo uzviylik va bog'liqlik masalasini yana bir bor ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Ta'lim sistemasiga integratsiyani kiritish maktab va jamoatchilik o'rtasida turgan ta'lim va tarbiyaga oid vazifalarni hal etishda asosiy vosita bo'lishi mumkin. Integratsiyalashtirilgan darslar bolalar dunyoqarashida bir butunlikni, voqealar uzviyligini tushunishini tabiatan anglab yetishga o'rgatadi.

Integratsiya- bu fanlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bog'liqligidir.

